MALAKAVIY AMALIYOT

M-21

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BARAKAYEV MUROD, JALILOV ANVAR,
JUMANIYOZOV QUDRAT, XO'JAYEV BEGZOD,
RAHMONOV ISTAM

MALAKAVIY AMALIYOT

("5110100 – Matematika o'qitish metodikasi"
ta'lim yo'nalishi misolida)

JIZZAX DPI
INV № 107430
AXBOROT RESURS MARKAZI

«TURON-IQBOL»
TOSHKENT – 2015

UO'K: 372.851(072)
KBK: 74.58
M-21

Murod Barakayev
Malakaviy amaliyot: uslubiy qo'llanma / M.Barakayev [va boshq.]. –Toshkent: «Turon-Iqbol», 2015. -152 b.

Taqrizchilar:

Sanaqulov Hamroqul – Nizomiy nomidagi TDPU "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;

Muxamedova Gulchehra – Nizomiy nomidagi TDPU "Matematika va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi.

Mas'ul muharrir:

M.A. Hamrayev – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu metodik qo'llanma oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lgan "Malakaviy amaliyot" to'g'risidagi yo'riqnomalar va o'quv dasturlari talablari asosida tayyorlandi. Unda malakaviy amaliyot, uning mazmuni, tashkil qilish jarayoni, bu davrda talabalar va unda bevosita ishtirok etadigan pedagok xodimlar vazifalari to'la yoritib berilgan hamda uning samaradorligini oshirish yo'llari yoritilgan. Mazkur qo'llanma pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari, shu soha professor-o'qituvchilari, metodistlari va malakaviy amaliyot o'tkaziladigan ta'lim muassasasi mas'ul xodimlari uchun mo'ljallangan bo'lib, davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi talabalariga to'la javob beradi.

Uslubiy qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU ilmiy-uslubiy Kengashining 2015-yil 11 iyundagi 11-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

ISBN 978-9943-14-186-5

© M. Barakayev, 2015 y.
© «TURON-IQBOL», 2015 y.

«Ta'lim tizimini isloh qilish vazifalari muvaffaqiyatli hal etilsa, ijtimoiy-siyosiy iqlim keskin o'zgaradi, odamlar ongida demokratik qadriyatlar qaror topadi. Inson jamiyatdagi o'rnini ongli ravishda o'zi belgilaydi"

Islom KARIMOV

KIRISH

Talabalarning oliy o'quv yurtlarida olgan nazariy bilimlarini kelgusi kasbiy faoliyatida to'g'ri amalga oshirishda o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lgan malakaviy amaliyot muhim bo'g'in hisoblanadi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o'tkazilayotgan malakaviy amaliyot davri talabalar uchun egallayotgan kasbiga doir bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirish bosqichi hisoblanadi. Shuning uchun talabalarning umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga pedagogik amaliyotni o'tashga borgan davrda hal qilinishi zarur bo'lgan juda ko'p muammolarga duch kelishadiki, bu muammolarni to'laligicha hal qilmasdan turib ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Masalan. Kasbiy faoliyatiga amaliy jihatdan kirishga tayyorlanishning oxirgi bosqichi bo'lgan malakaviy amaliyot davrida amaliyotchi-talabani umumiy o'rta yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quvchilari qanday kutib oladi?

Amaliyotchi-talaba qanday qilib umumiy o'rta yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi jamoasi bilan aloqa o'rnatishi kerak?

Qanday qilib ularning ishonchini qozonishi kerak?

Oliy ta'lim muassasasida olgan ilmiy, nazariy, metodik, pedagogik, psixologik bilimlari va amaliy tayyorgarligi malakaviy amaliyot davrida yetarli bo'larmikan?

Ular bunday amaliyotni uddalay olisharmikan?

Amaliyot davrida zarurat bo'lganda zamonaviy texnologiyalarni to'g'ri qo'llay olishga va o'quvchilarni zamonaviy texnologiyalarni to'g'ri qo'llay olishga o'rgata olishga tayyormi?

Malakaviy amaliyot jarayonida yuqoridagi muammolarni hal qilish muhim hisoblanadi.

Mazkur o'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi yuqorida qayd qilingan qiyinchiliklarni bartaraf etishga va shu orqali malakaviy amaliyotni talab darajasida o'tishida amaliyotchi-talabalarga hamda uni tashkil etishda ishtirok etuvchi barcha mutaxassislarga yordam berishdan iboratdir.

Qo'llanma malakaviy amaliyot to'g'risidagi yo'riqnomalar va Nizomga asoslangan holda tayyorlandi. Unda "Umumta'lim fanlari" bo'yicha amaliyotchi-talaba tomonidan darslarga tayyorlanish va uni tashkil etish, bu jarayonda zamonaviy ta'lim tizimi yangiliklarini to'g'ri va o'rinli tatbiq etish yo'llari, darsdan va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasiga doir hamda uni tashkil etishda ishtirok etadigan barcha mas'ul xodimlar uchun kerakli metodik ko'rsatmalar bayon etilgan.

I BOB. MALAKAVIY AMALIYOTNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Malakaviy amaliyot va uning kasbiy tayyorgarlikdagi o‘rni

Oliy o‘quv yurtlari “110000 – Pedagogika“ sohasi barcha ta’lim yo‘nalishlarida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun birinchi navbatda ularga shu yo‘nalish bo‘yicha yetarli nazariy va amaliy bilimlarni berish hamda uni Davlat standartlari talablari darajasida egallashiga erishish zarur. Chunki, oliy o‘quv yurtini tamomlab kasbiy faoliyatini boshlagan yosh mutaxassis birinchi yildanoq o‘zi mustaqil pedagogik faoliyatni amalga oshirishga va barcha ta’lim-tarbiya jarayonini bajarishga tayyor bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlarni tayyorlash Milliy dasturi” (1997-yil) va “Ta’lim to‘g‘risida”gi (1997-yil) Qonunlari izchil amalga oshirilayotgan hozirgi davrda bu yanada muhim ahamiyatga ega.

Malakaviy amaliyot bo‘lajak pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimining ajralmas qismi bo‘lib, u bo‘lg‘usi pedagogda kasbiy mahoratni shakllantirish va uni yanada rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ma’lumki, bo‘lg‘usi pedagog o‘zi tanlagan kasbiy yo‘nalish bo‘yicha yetarli nazariy-amaliy bilimga ega bo‘lsa-yu, uni kasbiy faoliyati davrida o‘quvchi-talabalarga yetkaza olmasa, ya’ni qanday o‘qitish kerakligini bilmasa, u holda bizning kelajagimiz bo‘lgan bugungi yoshlar ertaga zamon talabi darajasidagi mutaxassislar bo‘lib yetisha olmaydilar. Buning oldini olishda amalyotchi-pedagoglarga pedagogik amaliyot asosiy va muhim bosqich hisob-

lanadi. Chunki, malakaviy amaliyot davrida bo‘lg‘usi mutaxassis o‘z kasbini amaliy jihatdan chuqur egallashi uchun imkoniyat yaratiladi.

Bunda o‘quvchilar bilan doimiy muloqotda bo‘lish, tajribali o‘qituvchilar va amaliyotchi-talabalarning ish tajribalarini kuzatish jarayonida ularda kelgusi kasbiy faoliyati davrida zarur bo‘ladigan sabr-toqat, odob va xushmuomalalik, atrofdagilarga e’tibor, jamoa bilan ishlash, ustoz va shogirdning o‘zaro munosabatlari, tanlagan kasbining jamiyatda tutgan o‘rni va uning mohiyatini to‘la tushunib yetish kabi sifatlar shakllanadi. Bular kelgusida amaliyotchi-talabaning o‘z ishining mohir ustasi bo‘lib yetishishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim maskanlarida o‘tkaziladigan amaliyot talabalarning oliy o‘quv yurtida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari uchun sinov vazifasini ham bajaradi. Negaki, amaliyotchi-talabaga o‘z kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha mashg‘ulotlarga tayyorlanish, uni o‘tkazish, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o‘tkazish davrida egallagan bilimlari doirasi qanday darajada ekanligi namoyon bo‘ladi. Kelgusida nimalarga ko‘proq e’tibor berish va o‘rganish kerakligini anglab yetadi. Natijada amaliyot jarayonida kasbiy ko‘nikmalar to‘la shakllanish imkoniyatlari ro‘yobga chiqadi.

Amaliyotchi-talaba amaliyotni o‘tash davrida mehnat faoliyatini ham o‘rganadi. Chunki, bu davrda vaqtincha shu jamoa a’zosi hisoblanib, uning faoliyati ishtirokchisiga aylanadi. Unga jamoa tomonidan mas’ul ishlar topshiriladi (masalan, guruh murabbiyligi), mutaxassislik fanlari bo‘yicha darslar o‘tish, darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o‘tkazish, jamoa umumiy yig‘ilishlarida qatnashish, umum-

jamoa tadbirlarini o‘tkazishga tayyorlanish va uni o‘tkazishda faol ishtirok etish bo‘yicha aniq vazifalar beriladi hamda ularni bajarish talab etiladi. Natijada bevosita o‘zi kelgusida mustaqil faoliyat yuritishida kerak bo‘lgan hayotga o‘rganadi. Bular amaliyotchi-talabaning o‘z kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha kerakli malaka va ko‘nikmalarni egallashida muhim o‘rin tutadigan o‘quv jarayoni ekanligini anglashiga olib keladi.

Shunday qilib, malakaviy amaliyot ham bevosita o‘quv jarayoni hisoblanib, uni to‘g‘ri tashkil qilish hamda o‘tkazish bo‘lg‘usi yosh mutaxassisning kelgusidagi mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham mutaxassis kafedra jamoasi, metodist o‘qituvchilar, pedagog va psixologlar, amaliyot olib boriladigan ta’lim muassasasi jamoasining bu ishga jiddiy yondashishi talab etiladi.

1.2. Malakaviy amaliyotning vazifalari

“110000 – Pedagogika“ sohasi barcha ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlashda oliy o‘quv yurtlarida olib boriladigan o‘quv mashg‘ulotlari bilan bir qatorda pedagogik amaliyot muhim o‘rin tutib, u kasbiy pedagogik tayyorgarlikning yakunlovchi bosqichi hisoblanadi.

Uning xarakterli jihati shundaki, amaliyot bevosita talabaning egallayotgan kasbi bo‘yicha kelgusida mustaqil kasbiy faoliyat yuritishi kerak bo‘lgan sharoitda tashkil etiladi. Bu amaliyot o‘quv dasturida belgilangan vazifalarning bajarilishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi, ya’ni oliy o‘quv yurtida olgan nazariy-amaliy bilimlarini chuqurlashtirish

va mustahkamlash, kasbiy faoliyatini to‘la amalga oshira olish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Bunda:

1) amaliyotchi-talabalar umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasida o‘tkaziladigan pedagogik amaliyot davrida o‘quvchilarni o‘qitishga va tarbiyalashga;

2) ta’lim va tarbiya birligiga;

3) aqliy, ma’naviy, axloqiy, siyosiy, milliy, huquqiy, iqtisodiy, diniy, jismoniy, mehnat tarbiyasini birgalikda amalga oshirishga keng qamrovli yondashish kabi sifatlarni o‘zlarida shakllantirishga erishishlari talab etiladi.

Bunga erishiladi ham, chunki amaliyotchi-talabaning malakaviy amaliyot davrida ko‘pgina o‘quv predmetlari bo‘yicha tayyorgarligi davom ettiriladi va oliy o‘quv yurtida o‘rganilgan fan asoslari yanada chuqurlashtiriladi.

Natijada bo‘lg‘usi yosh mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik darajasi o‘sadi. Tanlagan kasbiga nisbatan ongli yondashuv shakllanadi.

Amaliyot jarayonida olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlarini kuzatish, ularni tahlil qilish, sintez qilish, aniqlangan ma’lumotlarni umumlashtirish va yakunida mantiqiy xulosa chiqarish malakasi hosil bo‘ladi.

Amaliyot jarayonida metodika, pedagogika, psixologiya va yosh fiziologiyasiga oid olingan bilim, malaka, ko‘nikmalar asosida o‘quvchilar ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish metodlarini o‘rganadilar hamda uni kundalik kasbiy faoliyatida qo‘llaydilar.

Malakaviy amaliyotning yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarini amalga oshirishda mutaxassislik, pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha professor-o‘qi-

tuvchilarning, amaliyot o‘tkaziladigan ta’lim dargohi jamoasining amaliyot ishiga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi, ya’ni uni to‘g‘‘ri tashkil etish va o‘tkazish talablariga mos kelishida namoyon bo‘ladi. Bu esa amaliyotchi-talabaning oldiga qo‘yilgan talablarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradi.

1.3. Amaliyotchi talabaning vazifalari

Malakaviy amaliyotni tashkil etish va o‘tkazish davrida amaliyotchi-talaba oldiga quyidagi **vazifalar** qo‘yiladi:

1. Amaliyotchi-talaba ushbu amaliyotining asosiy ishtirokchisi bo‘lib, amaliyot jarayonida mavjud yo‘riqnoma va dasturda ko‘rsatilgan ishlarning barchasini bajarishi.

2. Ular har bir darsga, darsdan va sinfdan tashqari ishlarga, tarbiyaviy ishlarga puxta tayyorlanishi, ularni yuqori saviyada o‘tishini ta’minlashga erishishi.

3. Amaliyot dasturini yaxshi bilishi.

Izoh: Agar amaliyotchi-talaba dastur talablarini to‘liq bajarmasa, u holda amaliyot muvaffaqiyatli o‘tdi deb hisoblanmaydi. Amaliyot talablarini bajarmagan amaliyotchi-talaba faoliyati qoniqarsiz deb baholanadi va u fakultet kengashining qarori bilan oliygoh o‘quv mashg‘ulotlaridan ajralmagan holda qayta amaliyotdan o‘tadi.

4. Amaliyotchi-talaba amaliyot davomida o‘sha (o‘zi amaliyot o‘tayotgan) ta’lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga to‘la amal qilishi, ma’muriyat va amaliyot rahbarining buyruqlariga bo‘yin sunishi.

5. Umumta’lim fanlari o‘qituvchisi va guruh murabbiylari tajribalarini o‘rganish maqsadida ular to-

monidan olib boriladigan mashg'ulotlar va tadbirlarda ishtirok etishi, o'z guruhi talabalarining barcha amaliyot jarayonida olib boradigan ishlarida qatnashib, ularning muhokamasida faol ishtirok etishi.

6. Malakaviy amaliyot davomida har bir amaliyotchi-talabadan quyidagi hujjatlarni yuritish va ularni amaliyot yakunida amaliyot rahbariga topshirishi:

a) amaliyot bo'yicha amaliyotchi-talabaning reyting kartasi;

b) kundalik;

d) amaliyot o'tkazilayotgan ta'lim muassasasi tarixiga doir ma'lumotlar;

e) amaliyot o'tkazilayotgan ta'lim muassasasi tuzilishiga doir ma'lumotlar;

f) umumta'lim fanlari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha amaliyot

jarayonida amalga oshiriladigan ishlar taqvim rejasi;

j) amalyotchi-talaba tomonidan umumta'lim fanlair bo'yicha tashkil etilgan darslar reja-konspekti;

h) amaliyot jarayonida kuzatilgan darslar va ularning tahlili;

i) amaliyotchi-talaba tomonidan tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar senariysi;

k) akademik guruhda amaliyot jarayonida o'tkazilgan yig'ilishlar bayonnomasi;

l) o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbir muhokamasining bayonnomasi;

m) sotsiometriya metodi yordamida akademik-guruhni o'rganish natijalari;

n) xulosa va h.k.

1.4. Malakaviy amaliyot rahbarining vazifalari

Amaliyot rahbari qilib mutaxassislik bo'yicha metodistlardan biri yoki amaliyot o'tkazish ishi bilan tanish bo'lgan amaliyot o'tkaziladigan ta'lim muassasasi xodimi fakultet kengashi qarori bilan tayinlanadi. Bu rahbar amaliyot davomida o'ziga biriktirilgan guruh amaliyotchi-talabalari faoliyatiga boshchilik qilib, shu jarayonda quyidagi **vazifalarni** bajaradi:

1. Amaliyot amalga oshiriladigan ta'lim muassasasi bilan shartnoma tuzish va uning ma'muriyati bilan amaliyotning mazmuni, uni o'tkazishda ularning vazifalari to'g'risida suhbat o'tkazishi, ularga kerakli yo'l-yo'riqlarni tushuntirish.

2. Oliy o'quv yurtida amaliyotga bag'ishlangan kirish va yakunlovchi anjumanlarni tashkil etish, bunda amaliyotchi-talabalarning shaxsan ishtirok etishini ta'minlashi.

3. Metodistlar va pedagogika bo'yicha mas'ul xodimlar hamda amaliyot o'tkaziladigan ta'lim muassasasi rahbari bilan birgalikda amaliyotchi-talabalarni guruhlarga biriktirib chiqishi.

4. Amaliyotchi-talabalarning sinov darslari, tarbiyaviy ishlarni o'tkazish jadvalini tuzishi.

5. Amaliyotchi-talabalarning amaliyot bo'yicha tuzgan shaxsiy rejalarini tasdiqlashi.

6. Amaliyot davomida amaliyotchi-talaba shaxsiy rejasining qanday bajarayotganligini nazorat qilib borishi.

7. O'tkazilgan dars va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning muhokamasini tashkil etish.

8. Amaliyot yakunida amaliyotchi-talabalar hisobotini qabul qilish va ularni tekshirib chiqib amaliyot uchun mas'ul xodimlar bilan birgalikda baholash.

9. Amaliyotchi-talabalar, mas'ul xodimlar bergan hisobotlarga asoslangan holda amaliyot yuzasidan fakultet rahbariyatiga yozma hisobot berish.

1.5. Malakaviy amaliyot jarayonida mutaxassislik bo'yicha metodistning vazifalari

Amaliyot jarayonida mutaxassislik bo'yicha metodist amaliyotchi-talabalarga bevosita rahbarlik qiladi.

Mazkur jarayonda uning **asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

- pedagogik amaliyotga bag'ishlangan va yakunlovchi anjumanlarda, ta'lim muassasasi rahbari huzuridagi yig'ilishlarda, amaliyotchi-talabalarning metodik kengashlarida ishtirok etish;
- amaliyotchi-talabalarning mutaxassisligi bo'yicha ta'lim muassasasi o'qituvchilarining ish tajribasi bilan tanishtirish;
- mutaxassis o'qituvchilarning darslariga, sinfdan tashqari mashg'ulotlarga amaliyotchi-talabalarning muntazam qatnashishlarini ta'minlash va ularning muhokamalarini tashkil etish;
- ta'lim muassasasi o'qituvchilari hamkorligida amaliyotchi-talabalar tomonidan amaliyot davrida o'tkaziladigan darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar mavzusini aniqlash va ularni taqsimlash;
- amaliyotchi-talabalarga tegishli maslahatlar berish;
- amaliyotchi-talabalarni o'zi o'tadigan darslarga dars jihozlarini tayyorlash va ko'rgazmali qurollarni yasashga (tayyorlash) o'rgatish;
- amaliyotchi-talabalarning dars uchun tuzgan ishlanmalarini ko'rib chiqish va tasdiqlash;
- amaliyot jarayonida ochiq dars o'tib berish;

• fan o‘qituvchilari va amaliyotchi-talabalar bilan birgalikda sinov darslarini kuzatish, muhokama qilish va baholash;

• amaliyotchi-talabalarning sinfdan tashqari tadbirlarini tashkil qilish ssenariylarini ishlab chiqish va ularni o‘tkazishga boshchilik qilish;

• amaliyotchi-talabalarning kurs ishi mavzusi bo‘yicha kuzatish va tajribalar o‘tkazishini tashkil etish va unga rahbarlik qilish;

• ta’lim muassasasi o‘qituvchilariga metodik yordam ko‘rsatish va ular bilan hamkorlikda ishlashni tashkil etish;

• pedagogik amaliyot yakunlari bo‘yicha yozma hisobot tayyorlash va uni kafedraga, fakultet dekanatiga topshirish.

1.6. Malakaviy amaliyot jarayonida pedagogika bo‘yicha mutaxassis vazifalar

Amaliyot jarayonida amaliyotchi-talabalarni pedagogik-psixologik nuqtai nazardan o‘quvchilar bilan amalga oshiradigan ishlari o‘quv jarayoni va tashkiliy ishlar samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun, amaliyot jarayonida amaliyotchi-talabalarga pedagogika bo‘yicha mutaxassislarni biriktirish talab etilib, ularning amalga oshiradigan **asosiy vazifalari** quyidagilardan iboratdir:

1. Amaliyotchi-talabalarni har biri ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan rituallar tizimi:

• O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi;
• O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i;
• O‘zbekistan Respublikasining davlat gerbi;
• Ta’lim muassasasi o‘quvchisining qasamyodi;
• «Mustaqillik kuni»;

• «Bilimlar kuni»;
• Yangi o'quv yili boshlanishining tantanali ochilishi;
• O'quvchilarni sinfdan-sinfga o'tkazish marosimi;
• Ta'lim muassasasida navbatchilikni tashkil etish tartiblari;
• Ta'lim muassasasida ish tartibi va hokazolar bilan tanishtirilishi va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni bajarish jarayonida ularga to'liq amal qilishlariga erishish va h.k.

2. Malakaviy amaliyot davrida amaliyotchi-talabaning guruh rahbari sifatida amalga oshiradigan ishlariga boshchilik qilish, tegishli maslahatlar berish, ular amalga oshiradigan ishlarni rejalashtirish.

3. Guruhlar yoki ta'lim muassasasi miqyosida o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda amaliyotchi-talabalarga yordam berish va ularning muhokamasini o'tkazish.

4. Amaliyotchi-talabalar bilan ta'lim muassasasi tajribali o'qituvchilari ishtirokida davra suhbatlarini tashkil etish.

5. O'quvchi-talabalar shaxsini va o'qituvchilar jamoasini o'rganishga oid topshiriqlarni bajarishiga rahbarlik qilish.

1.7. Ta'lim muassasasi direktorining vazifalari

Ta'lim muassasasi direktori pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish jarayoniga bevosita rahbar hisoblanib, amaliyotning samarali o'tishida uning bajaradigan vazifalari asosan quyidagilardan iborat:

a) ta'lim muassasasida pedagogik amaliyotning samarali o'tishi uchun tuzilgan shartnoma shartlarini bajarilishi uchun sharoit yaratib berish;

b) amaliyotchi-talabalarni ta'lim muassasasi ishlari bilan to'la tanishishlarini ta'minlash;

d) ta'lim muassasasi o'quv bazasi (fan kabinetlari, o'qitish vositalari, kutubxona va h.k.), ta'lim muassasasi jamoasi, metod birlashmalari va ota-onalar kengashi ishlari bilan tanishtirish;

e) pedagogik amaliyot rahbari bilan birgalikda amaliyotchi-talabalarni guruhlarga taqsimlash;

f) amaliyotchi-talabalarning sinov darslari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlari va ularning muhokamasida ishtirok etish;

g) amaliyot boshlanishida va yakunida amaliyotchi-talabalar bilan kengash o'tkazish.

1.8. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari

• Amaliyotchi-talabalarning ta'lim muassasasi ma'naviy-ma'rifiy ishlarining yillik rejasi bilan tanishtirish, uni amalga oshirish yo'llari bo'yicha ko'rsatmalar berish;

• amaliyotchi-talabalar bilan ish olib borishda akademik guruh rahbarlariga yordam berish;

• amaliyotchi-talabalar bilan hamkorlikda ta'lim muassasasi miqyosida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazishga rahbarlik qilish, uning muhokamasida bevosita ishtirok etish va kerakli maslahatlar berish va h.k.

1.9. Umumta'lim fanlari o'qituvchilarining vazifalari

• O'ziga biriktirilgan amaliyotchi-talabalarni yillik shaxsiy ish rejasi bilan tanishtirish;

• umumta'lim fani bo'yicha ochiq dars o'tib ko'rsatish;

• metodist-o'qituvchi bilan hamkorlikda amaliyotchi-talabalarga umumta'lim fani bo'yicha dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni taqsimlash;

• amaliyotchi-talabalarga doimiy ravishda maslahatlar berish, ular o'tgan dars mashg'ulotlarini bevosita kuzatish, muhokama qilish va baholash;

• amaliyotchi-talabalarning ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar tayyorlashiga boshchilik qilish va tegishli maslahatlarni berish;

• zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish ko'nikma va malakalarini chuqurlashtirish;

• amaliyotga bag'ishlangan barcha anjumalarda qatnashishi talab etiladi.

1.10. Guruh (sinf) rahbarining vazifalari

• Amaliyotchi-talabalarning asosiy tarbiyaviy vazifalari, o'zining ish rejalari bilan tanishtirish;

• akademik guruh o'quvchilari ishtirokida namunaviy ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazib berish;

• o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganishda amaliyotchi-talabalarga tegishli yordam berish;

• amaliyotchi-talabalarni guruhini kundalik ishlarga jalb etish;

• amaliyotchi-talabalarning guruhda amalga oshiradigan ma'naviy-ma'rifiy ishlariga boshchilik qilish, kuzatish, muhokama qilish va baholashda shaxsan ishtirok etish;

• amaliyotga bag'ishlab o'tkaziladigan barcha anjumanlarda qatnashish.

II BOB. MALAKAVIY AMALIYOTNI O'TKAZISHNING TASHKILIY MASALALARI

Malakaviy amaliyotni tashkil etishda uning o'tkazilish vaqtini to'g'ri tanlash, unga mos keladigan o'rta umumta'lim maktabi, akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji va undagi shart-sharoitning, malakali mutaxassis-o'qituvchi kadrlarning yetarliligi, amaliyotchi-talabaning tayyorgarlik darajasi ko'zlangan maqsadga erishishda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun malakaviy amaliyotning tashkiliy masalalariga alohida to'xtalib o'tamiz.

2.1. Malakaviy amaliyotni o'tkazish vaqti va amaliyot uchun bazalarni tanlash

Ma'lumki, oliy o'quv yurti talabalarining o'quv rejasiga ko'ra **o'quv amaliyoti** 6-semestrda (o'quv rejasi bo'yicha to'rt hafta muddatda) va **pedagogik amaliyot** 8-semestrning dastlabki 11 haftasida o'tkaziladi.

Malakaviy amaliyotni tashkil etishda ta'lim muassasalarini to'g'ri tanlash muhim o'rin tutadi. Masalan, Nizomiy nomidagi TDPU "Matematika o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha pedagogik amaliyotni tashkil etishda mumkin qadar tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari bilan shartnomalar tuzib, shu yerda amaliyotni o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanib, nechta amaliyotchi-talabani jo'natish masalasi ta'lim muassasasining imkoniyatlari darajasidan kelib chiqqan holda hal etiladi.

Pedagogik amaliyotda 1 ta akademik guruhga bitta amaliyotchi-talabani biriktirish maqsadga mu-

JIZZAX DPI
INV.№ 107430

vofiq bo'lib, o'rtacha bitta ta'lim muassasasiga bitta ixtisoslik bo'yicha 10-12 ta amaliyotchi-talabani yuborish yetarli bo'ladi.

Amaliyotchi-talabalar guruhini tuzishda ularning bir-biriga o'zaro yordam bera olish imkoniyatlarining hisobga olinishi pedagogik amaliyotning samarali o'tishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

2.2. Malakaviy amaliyotning tuzilishi va mazmuni

"O'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv amaliyoti (3-kursda) va pedagogik amaliyot (4-kursda) o'tkaziladi.

Malakaviy amaliyot barcha oliy o'quv yurtlarida kirish anjumanlarini o'tkazish bilan boshlanadi. Bunda amaliyotchi-talabalarning vazifalari, amaliyot davomida amalga oshiradigan ishlarining mazmuni, ular oldiga qo'yiladigan talablar tushuntiriladi.

Amaliyot ikki qismdan iborat bo'ladi:

1. Tanishuv davri. Amaliyotning 1-haftasi tanishuv davri bo'lib, bunda **quyidagi ishlar amalga oshiriladi:**

- Amaliyotchi-talabalar pedagogik amaliyot metodistlari bilan tanishadilar;
- pedagogik amaliyotda bevosita ishtirok etuvchi amaliyotchi-talabalar ta'lim muassasasi direktori, uning o'rinbosarlari, umumta'lim fanlari o'qituvchilari va guruh murabbiylari bilan tanishadilar hamda ular bilan suhbat o'tkaziladi;
- amaliyotchi-talabalar guruhlarga biriktirib chiqiladi;
- amaliyotchi-talabalar o'zlariga biriktirilgan guruh bilan tanishib chiqadilar, o'tiladigan barcha darslarni kuzatadilar;

• umumta'lim fanlari bo'yicha va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rejalar bilan tanishib chiqadilar va shunga asosan o'zlari uchun shaxsiy reja tuzib oladilar;

• o'zlariga biriktirilgan guruhda ta'lim-tarbiya ishlarini boshlashga tayyorgarlik ko'riladi.

2. Malakaviy amaliyotning faol davri.

Amaliyotchi-talabalar amaliyotning faol qismida o'zlariga biriktirilgan guruhda o'quv dasturi va shaxsiy rejalari asosida ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradilar. Bu davrda ular umumta'lim fanlari bo'yicha darslarga tayyorlanadilar va ularni mustaqil tashkil etadilar. Shuningdek, shu o'quv guruhida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish uchun o'quvchilar bilan birgalikda tayyorgarlik ko'radilar va uni o'tkazadilar. O'zaro darslarga kiradilar va ushbu dars muhokamalarida ishtirok etadilar. Bunda metodistlar, umumta'lim fanlari o'qituvchilari tomonidan amaliyotchi-talabalarga yakka va umumiy tartibda maslahatlar beriladi.

Malakaviy amaliyot ta'lim muassasalarining pedagogik kengashida va oliy o'quv yurtidagi amaliyot yakuniga bag'ishlangan anjumanni o'tkazish bilan yakuniga yetadi.

Ta'lim muassasasida amaliyot yakuniga bag'ishlangan pedagogik kengashda amaliyotchi-talabalar, amaliyotda bevosita qatnashgan ta'lim muassasasi o'qituvchilari hisobot beradilar va amaliyotchi-talabalar faoliyatini baholaydilar. Oliy o'quv yurtida amaliyot yakuniga bag'ishlangan anjumanda amaliyotning umumiy yakuni (amaliyot davrida amaliyotchi-talabalar erishgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklar, bundan keyingi vazifalar) ko'rib chiqiladi.

Malakaviy amaliyotning mazmuni asosan quyidagilardan iborat bo'ladi:

• Malakaviy amaliyotning boshlanishiga bag'ishlangan anjumanda barcha amaliyotchi-talabalarning qatnashishi;

• ta'lim muassasasi rahbariyati, pedagogik amaliyotga bevosita aloqador bo'lgan xodimlar va o'quvchilar bilan tanishish hamda ular bilan suhbat o'tkazish;

• ta'lim muassasasining moddiy bazasi bilan tanishish;

• amaliyotchi-talabalarning akademik guruhlarga taqsimlanishi, amaliyot davomida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining mazmunini belgilab olish;

• har bir amaliyotchi-talaba o'ziga biriktirilgan akademik guruh o'quvchilari bilan yaqindan tanishish;

• umumta'lim fan o'qituvchisi va guruh murabbiylarining ishlarini kuzatishi va o'rganish;

• amaliyot davomida bajariladigan barcha ishlar mavzusini (masalan, "Matematika" fani bo'yicha o'tiladigan mavzular, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mavzulari va h.k.) belgilab olish;

• maxsus fan bo'yicha (masalan, "Matematika" fani bo'yicha) fan o'qituvchisining darslarini kuzatish va muhokamasida ishtirok etish;

• guruh rahbarlari tomonidan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarini kuzatish va ularni tahlil qilish;

• malakaviy amaliyotni o'tash bo'yicha shaxsiy taqvimiy reja tuzish va uni amaliyot rahbarlariga tasdiqlatish;

• guruh rahbari ish rejasi asosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish;

• ta'lim muassasalarida amaliyotni o'tayotgan amaliyotchi-talabalar o'zaro bir-birining darslarini kuzatishi va ularning birgalikdagi muhokamasida ishtirok etishi;

• amaliyotchi-talabalar amaliyot davomida 1 ta dars yoki 1 ta ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni yozma ravishda psixologik tahlil qilishi;

• ta'lim muassasasi miqyosida amaliyotchi-talabalar navbatchiligini joriy qilish;

• malakaviy amaliyot jarayonida unga bag'ishlangan metodik kengashlar o'tkazish, ularda amaliyotchi-talabalarning faol qatnashishi;

• malakaviy amaliyot jarayonida amaliyotchi-talabalar tomonidan amaliyotga tegishli bo'lgan hujjatlarni talab darajasida yuritish;

• malakaviy amaliyot yakuniga bag'ishlangan anjumanda barcha amaliyotchi-talabalarning ishtirok etishi talab etiladi.

2.3. Malakaviy amaliyotni o'tkazishga tayyorlash

Malakaviy amaliyotning samarali o'tishida amaliyot tashkil etiladigan ta'lim muassasasi jamoasining o'rni beqiyosdir. Agar bu jamoa oliy o'quv yurti amaliyotchi-talabalarining mazkur ta'lim muassasasida pedagogik amaliyotda bo'lishini o'zlari uchun sharafli, o'ta mas'uliyatli ish ekanligini his qilgan holda qabul qilishsa, amaliyotning muvaffaqiyatli o'tishi uchun ular qulay sharoit yaratgan bo'ladilar. Bu o'z navbatida ushbu ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilashga xizmat qiladi, chunki, malakaviy amaliyot davrida amaliyotchi-talabalarning **o'zlari kasb sirlarini mukammal o'rganish jarayonida umumta'lim fanlari** o'qituvchilari va guruh

rahbarlariga yaqindan yordam berishadi. Natijada ushbu ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligi oshadi, chuning uchun malakaviy amaliyotni o'tkazish uchun tanlangan ta'lim muassasasida tayyorgarlik ishlarini oldindan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim muassasasini malakaviy amaliyotni tashkil etishga tayyorlash jarayonida uning rahbari va metodistlar umumta'lim fanlari o'qituvchilari hamda guruh rahbarlarining rejalari bilan tanishib chiqib, tegishli metodik ko'rsatmalarni berishi amaliyotni yuqori saviyada o'tishda muhim o'rin tutadi.

Malakaviy amaliyotning muvaffaqiyatli o'tish omillaridan yana biri amaliyot jarayonida olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishdir.

Malakaviy amaliyot davrida amalga oshirish kerak bo'lgan ta'lim-tarbiya ishlari oldindan mazkur amaliyot to'g'risidagi yo'riqnomalarga, dastur talabiga asoslangan bo'lmog'i, pedagogik amaliyot mazmuni, vazifalari va talablarini to'laligicha o'z ichiga qamrab olmog'i lozim. Olib borilgan ilmiy-metodik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, malakaviy amaliyot rejasini ta'lim muassasasi pedagogik kengashida muhokama qilish, tegishli taklif va mulohazalarni kiritgan holda tasdiqlash amaliyot ishlarini talab darajasida tashkil etishda muhim o'rin tutadi.

2.4. Malakaviy amaliyot jarayoni

Amaliyotchi-talaba malakaviy amaliyot jarayonida bevosita amalga oshirishi kerak bo'lgan ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni, uni amalga oshirish yo'llarini yaxshi bilishi lozim, chunki amaliyotchi-talaba amaliyot maqsadi, mazmuni va uning yakuniy vazi-

falari haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lsa, amaliyot jarayoni samarali o'tadi.

Amaliyotchi-talaba ta'lim muassasasi hayoti bilan to'la tanishib (ta'lim muassasasi jamoasi, uning moddiy bazasi, tarixi, ta'lim muassasasi nizomi, ustavi va h.k.), birinchi navbatda o'ziga biriktirilgan akademik guruh o'quvchilarini va guruh jamoasini o'rganishi maqsadga muvofiq. Bunda:

- akademik guruhdagi har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini chuqur o'rganish talab etiladi (o'quvchilarda xotira, diqqat va qiziqishining rivojlanishi va h.k.);
- o'z-o'zini anglash va xarakterning shakllanishi;
- o'zlashtirish darajasi;
- guruh jamoasi a'zolarining o'zaro munosabati;
- amaliyotchi-talaba va o'quvchi o'rtasidagi do'stona munosabatlar;
- o'quvchilarning o'rganilayotgan fanga qiziqishi;
- ta'lim muassasasi ijtimoiy hayotidagi ishttroki va h.k.

Yuqoridagilarga erishish uchun amaliyotchi-talabadan juda katta bilim va izlanish talab etiladi.

Shuning uchun malakaviy amaliyot davrida amaliyotchi-talaba vaqtni to'g'ri taqsimlagan holda ishni tashkil etishi, malakali mutaxassislar yordamidan unumli foydalanishi tavsiya etiladi. malakaviy amaliyot maqsadi va mazmunini to'g'ri anglab yetish hamda uni to'la o'zlashtirish, uning vazifalarini to'la amalga oshirish kelgusida yetuk mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlaydi.

III BOB. MALAKAVIY AMALIYOTNI TASHKIL ETISH

3.1. Malakaviy amaliyot davrida ta'lim-tarbiya jarayonini kuzatish va tahlil qilish

Malakaviy amaliyotda ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganish va uni o'zlashtirish amaliyotning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bunga erishishda darsni kuzatish va tahlil qilish muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, dars – bu o'qituvchi bilan o'quvchilarning belgilangan vaqtda birgalikdagi amalga oshiriladigan maqsadli faoliyatidan iborat.

Demak, amaliyotchi-talaba darsni kuzatish va uni tahlil qilish jarayonida ana shu qoidadan kelib chiqqan holda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini birgalikda kuzatishi, uni tahlil qilishi, tegishli xususiy va umumiy xulosalar chiqarishga, ularni umumlashtirishga erishmog'i lozim. Ana shunda ko'zlangan maqsadga erishish imkoniyatlari oshadi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, amaliyotning dastlabki kunlaridan boshlab metodistlar, umumta'lim fanlari o'qituvchilari boshchiligida darslarni metodik, pedagogik va psixologik nuqtai nazardan sinchkovlik bilan kuzatish va atroflicha tahlil qila olishga erishish asosiy maqsad bo'lishi kerak. Natijada amaliyotchi-talabalar o'qitish jarayonining har bir bosqichini to'g'ri tashkil etishni, dars jarayonida o'qitish va tarbiya metodlarini to'g'ri tanlay olishni, yo'l qo'yilgan ilmiy, metodik, pedagogik kamchiliklarni o'z vaqtida to'g'ri anglash va ularni bartaraf qilish yo'llarini ongli ravishda o'zlashtiradi.

"Eng yaxshi metodist – eng yaxshi o'qituvchi" qoidasidan kelib chiqqan holda darsni kuzatuvchi dars jarayonida ham o'z kasbiy mahoratini oshiradi, ham darsi kuzatilayotgan o'qituvchi kasbiy mahoratini oshishiga yordam beradi.

Shunday ekan, har bir o'qituvchi, jumladan, har bir amaliyotchi-talaba doimiy ravishda darslarni kuzatishi va uni metodik, pedagogik hamda psixologik jihatdan tahlil qilib borishi talab etiladi.

Eslatma: o'qituvchida darsning o'quv rejasi mavzu bo'yicha turli ishlanmalarni bo'lishi, shu bilan bir qatorda turli didaktik tarqatma materiallari, ko'rgazmali qurollar tayyorlagan bo'lishi kerak. Darsni tahlil qiluvchi tomonidan o'qituvchining darsga tayyorgarligi bilan yuzaki tanishib chiqilmasdan, uning darsga bo'lgan tayyorgarligi butun dars davomida kuzatilishi va tahlil etilishi shart.

Amaliyotchi-talaba darsni kuzatganda quyidagilarga e'tibor berishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Darsga maqsad va vazifalarning qo'yilishi. O'qituvchi har bir darsga aniq maqsad qo'yganmi? Maqsadni qanchalik to'g'ri qo'ygan?

2. Tashkiliy tahlil. Dars o'tiladigan xonaning darsga tayyorligi avvalo o'quvchilar kayfiyati, sog'lig'i va sinf xonasi, doskaning tozaligi, bo'r va lattaning borligi, zamonaviy ta'lim vositalari bilan ta'minlanganligi, sinf xonasining tozaligi, mabodo ayrim o'quvchilar biron sababga ko'ra darsga qatnashmayotgan bo'lsa, ular haqida ma'lumot yozma ravishda o'qituvchi stoliga qo'yilishi kabilardan tashqari o'qituvchining darsga tayyorligi, uning tashqi qiyofasiga ham e'tibor beriladi.

3. Didaktik (ta'limiy) tahlil. Tahlilning bu turida didaktik tamoyillarga asoslanganligi, ya'ni mavzu-

ning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga tomon yo'nalganligi, ko'rsatmalilik va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyligi, jonli va ravon tilda ochib berilishi.

4. Metodik (uslubiy) tahlil. Bunda o'qituvchi faoliyatining ikki tomoni nazarda tutiladi.

Birinchidan, o'quv dasturi bo'yicha mavzu necha soatga mo'ljallangan bo'lsa, uni qanday metod va usul asosida o'quvchining yoshi va individual-psixologik xususiyatni hisobga olgan holda yetkazib bera olishi, o'quvchilarni o'ylashga, izlanishga majbur etishi va unga sharoit yaratishi.

Ikkinchidan, o'zining o'qituvchi sifatidagi tajribalari qay darajada ekanligini namoyish etishi. Bunda o'qituvchining ijodkorligi, metodik mahorati ko'zga tashlanishi lozim, chunki, ilg'or pedagogik va novatorlik tajribalari mana shu yerdan boshlanadi.

5. Metodologik tahlil. Ta'lim yo'nalishidagi qarorlar, talablar, davlat tili, milliy ruh, madaniyatning go'zal durdonalari, shu soha bo'yicha buyuk allomalar, olimlarning qilgan ishlari, fikrlari, o'zgarishlar asos qilib olinishi mumkin.

6. Psixologik tahlil. Avvalo, o'quvchining kayfiyati, uning sog'lig'i, jamoadagi sog'lom muhit, o'quvchining hushyorligi, diqqatining barqarorligi va ko'lami, fanga bo'lgan qiziqishi, dars berayotgan o'qituvchisiga munosabati, o'quvchining hozirjavobligi, sezgirligi va topqirligi, idroki, yangi va avvalgi materiallarni esda saqlashi, obrazli va mantiqiy tafakkuri, o'quvchi fantaziyasi, oldida turgan mas'uliyatga nisbatan o'quvchining irodali yoki irodasizligi, o'quvchidagi qobiliyat, bilim, ko'nikma va malakalar ko'lami kabi tomonlar kiradi. O'qituvchining favqulodda vujudga kelgan vaziyatdan chiqa olishi, o'zini boshqara olishi.

7. **Pedagogik tahlil.** Tahlilning bu turi ancha murakkab, mas'uliyatli bo'lib, o'qituvchining tashqi qiyofasi, sinf bilan til topisha olish mahorati, uning madaniyati, odobidan tashqari qanday qilib dars jarayonida umuminsoniy tarbiyaning tarkibiy qismlarini o'quvchiga bera olishi hamda o'qituvchining nutq madaniyati nazarda tutiladi.

Hozirgi kunda dolzarb bo'lib turgan milliy tarbiya, ekologik, iqtisodiy, axloqiy, jismoniy, mehnat, nafosat hamda milliy istiqlol g'oyasini singdirish, tarbiya elementlari qanday amalga oshiriladi?

Bu tarbiya turlaridan qay biriga aynan shu darsda e'tibor berildi?

Darsning tarbiyaviy ta'sirining samarasi qanday bo'ldi?

Bu masalalar pedagogik tahlilning asosini tashkil etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki. o'qituvchining mazmunli, ravon nutqini hech qachon boshqa narsaga qiyoslab yoki almashtirib bo'lmaydi.

8. O'qituvchi va talabalarning hamkorlikdagi tahlili.

- O'quvchilarni fikrlashga o'rgatishi;
- aniq fikr va materiallarni o'rganib mulohaza yuritishi, fikr bildirishi;
- o'quvchilarni mustaqil izlanishga o'rgatishi;
- o'quvchining o'zi mustaqil fikrga ega bo'lishiga erishish.

9. Yakuniy tahlil. Kuzatuvchining mutaxassis sifatidagi taklif va mulohozalarining bayoni.

Darsni yakuniy tahlil etish jarayonida o'qituvchining maqsadga erishganligi emas, balki o'quvchilarning maqsadga erisha olganligi muhim hisoblanadi. Dars tahlili jarayonida buni hisobga olish muhim hisoblanadi.

Izoh: O‘qituvchining darsiga va uning faoliyatiga bir soatlik dars tahlili bo‘yicha xulosa chiqarib bo‘lmaydi, tanqidiy baho berish uchun o‘qituvchining har bir shakldagi bir necha darsini kuzatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Dars o‘tish mahorati, dars mazmuni va metodini baholash anketasi

F.I.SH.					
Mavzu:					
Dars turi:					
№	I. Dars o‘tish mahoratini baholash	Ball (100 ball)			
		2 0-54	3 55-70	4 71-85	5 86-100
1	Asosiy mavzuning aniq yoritilganligi				
2	Darsning aniq reja asosida olib borilganligi				
3	Ko‘rgazmali qurollar, kompyuterdan samarali foydalanganligi				
4	O‘qituvchining o‘zini tuta bilishi				
5	O‘qituvchining o‘quvchilarni o‘ziga jalb qila olish mahorati				
6	O‘qituvchining his-hayajon bilan dars o‘tishi				
7	O‘qituvchining o‘quvchilarni dars jarayonida faollashtira olishi				
8	O‘qituvchi o‘quvchilar tomonidan berilgan savol va javoblarga munosabati				

9	O'qituvchining nutq madaniyati				
10	O'qituvchining tashqi qiyofasi				
	II. Dars mazmuni va metodini baholash				
11	Dars maqsadining aniq ifoda etilganligi				
12	O'qituvchi tomonidan taniangan metodga amal qilinish holati				
13	O'qituvchining metodik jihatdan tayyorgarligi				
14	Dars mazmunini aniq ifoda etilishi				
15	O'z vaqtida mantiqiy va tushunarli misollarning keltirilishi				
16	O'quv materialini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganligini muntazam nazorat qilib borganligi				
17	Darsda kirish, asosiy qism, yakunlovchi qismlarning mavjudligi				
Jami ball: 100 ball					

Yuqorida qayd etilgan talablarni har bir o'qituvchi (amaliyotchi-talaba) tomonidan to'la bajarilishi ular tomonidan samarali darsni tashkil etishlari, uning maqsadlariga erishishni kafolatlashda muhim o'rin tutadi.

"110000 – Pedagogika" sohasi barcha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bir soatlik darsni kuzatishning namunasi quyidagicha bo'lishi mumkin.

Amaliyotchi-talaba darsni kuzatish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi-talabaning har bir xatti-harakatini diqqat bilan kuzatib borishi, har bir yutuq va kamchilikni o'z vaqtida daftarga qayd qilib borishi, dars so'ngida o'z xulosalarini bayon qilishi lozim.

Umumiy ma'lumotlar: Akademik guruh, fan nomi, darsning vaqti, dars mavzusi, o'qituvchining ismi, familiyasi, sharifi, darsda ishtirok etayotgan boshqa kuzatuvchilar.

Tashkiliy qism: Dars xonasining holati, shu dars uchun jihozlarning ta'minlanganligi, darsning o'z vaqtida boshlanishi, salomlashish, davomatning tekshirilishi, tashkiliy qismga sarflangan vaqt.

Asosiy qism:

• Darsning qanday boshlanishi va yakunlanishi;

• uy vazifasini tekshirish va uni bajarishda yo'l qo'yilgan xatolar ustida ishlash;

• o'tgan darsni so'rash (bunda o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan savol-javobning izchilligi, aniqligi, savollarning mantiqiy bog'liqligi, o'quvchi-talabalar javobining aniqligi, to'liqligi, ularning ko'rgazmali qurollardan va zamonaviy ta'lim texnika vositalaridan foydalana olish malakasi, ularning faolligi va h.k.);

• unga sarflangan vaqt, o'quvchilarni yangi mavzuni o'rganishga tayyorlash jarayonining amalga oshirilishi, bunda ularni aniqlash qanday darajada ta'minlanganligi;

• yangi mavzuni o'rganish jarayoni, unga sarflangan vaqt, mavzuni o'rganishda foydalanilgan ta'lim metodlari, o'qitishning zamonaviy ta'lim, innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi, yangi mavzuni o'rganishga tayyorlash jarayonining amalga oshirilishi, bunda ularni aniqlashning qanday darajada ta'minlanganligi;

• yangi mavzuning o‘tilgan mavzular va boshqa fanlar bilan aloqadorligining o‘qituvchi tomonidan bayon qilinish darajasi, o‘quvchilarning yangi mavzuni o‘zlashtirish darajasi va uni aniqlashda o‘qituvchining mahorati, ta’lim va tarbiya birligiga erishilganlik darajasi;

• o‘tilgan yangi nazariy o‘quv materialini mustahkamlash uchun sarflangan vaqt, mustahkamlash jarayonida o‘qituvchining amalga oshirgan ishlari, ularning samaradorlik darajasi;

• o‘quvchilarni o‘zlashtirish darajasi;

• uy vazifalarining e’lon qilinishi, uni bajarish uchun kerakli metodik ko‘rsatmalarning berilishi.

Dars yakuni:

O‘tilgan darsning o‘qituvchi tomonidan xulosalanishi, faol o‘quvchilar faoliyatining baholanishi va dars tugaganligining e’lon qilinishi.

Bir soatlik darsning tahlili quyidagicha bo‘lishi mumkin (namuna)

Darsni tahlil qilishda quyidagilarga ko‘proq e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir:

• o‘qituvchining darsni tashkil etishga tayyorligi:

• dars xonasi va dars jihozlarining tayyorligi, ularning ta’minlanganlik darajasi;

• o‘qituvchi va o‘quvchilarning darsni boshlashga tayyorlik darajasi.

a) dars tuzilishi:

• dars qismlari va ularni amalga oshirishdagi uzviylik, izchillik, yetarlilik darajasi;

• uning ta’lim-tarbiya mazmuni vazifalariga mos kelish darajasi;

• darsning har bir qismini amalga oshirishda vaqtning to‘g‘ri taqsimlanganligi.

b) darsning mazmuni:

• yangi o'rganilayotgan nazariy va amaliy bilimlarning dastur talabiga mos kelishi;

• uning o'quv darsligiga muvofiqligi;

• dars davomida o'rganilgan materiallarning ilmiyligi;

• kelgusida yangi bilimlarni o'rganish uchun yetarliligi;

• nazariy va amaliy bilimlarning o'zaro bog'liqligi;

• ilgari o'rganilgan materiallar bilan bog'liqliligi;

• ta'lim va tarbiya birligi tamoyiliga amal qilinganligi;

• boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi va h.k.

d) o'qitish metodlari:

• darsni tashkil etishda o'qitishning qanday metodlaridan foydalanganligi;

• zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanganligi;

• qanday ta'lim vositalaridan foydalanganligi.

e) o'qituvchining faoliyati:

• darsga o'qituvchining rahbarligi qanday namoyon bo'lganligi;

• uning o'zini tutishi;

• nutqining ravonligi;

• qo'yilgan maqsadga erishish yo'lidagi talabchanligi, shaxsiy namunasi;

• dars jarayonida ilg'or pedagogik tajribalardan foydalanishi;

• guruhni boshqara olish qobiliyati;

• o'qituvchilar bilan munosabati, pedagogik muammoni qo'ya olishi;

• zamonaviy ta'lim, innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llay olishi;

• muammoli vaziyatlardan foydalanishi;

• o‘quvchilarni darsga jalb qila olishi;
• o‘qituvchining ma’naviy qiyofasi.

f) dars jarayonida o‘quvchilar faoliyati:

• o‘quvchilarning o‘rganishga moyilligi;
• o‘qituvchini tinglashi va o‘quv materiallarini qabul qilishi;
• ularning faolligi;
• dars davomida o‘quvchilar intizomi, agar intizomi yaxshi bo‘lmasa uning sabablari.

g) dars jarayonida ta’lim va tarbiya birligi:

• ta’lim va tarbiya birligi tamoyiliga amal qilinishi;
• ta’lim berish jarayonida Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash;
• milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasini o‘quvchilar ongiga singdirish;
• o‘rganilayotgan fanga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish va uni yanada rivojlantirish.

h) dars to‘g‘risidagi shaxsiy fikringiz:

• dars rejasining bajarilishi;
• qo‘yilgan maqsadga erishilganlik;
• o‘qituvchi faoliyati haqidagi fikringiz;
• darsning mantiqiy tugallanganligi;
• dars samaradorligini oshirish uchun yana nimalarga e’tibor qaratish kerakligi.

Agar amaliyotchi-talaba darsni kuzatish va tahlil qilish jarayonida yuqorida sanab o‘tilgan holatlarda atroflicha baho bera olishga o‘rgansa, u holda ko‘zlangan maqsadga erishildi, deb hisoblash mumkin.

Ma’lumki, ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya ishlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Shunday ekan, malakaviy amaliyot jarayonida amaliyotchilar akademik guruh murabbiy-

larining ish faoliyatini kuzatish va o‘rganishi ham asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Malakaviy amaliyot jarayonida guruh murrabiylarining ish faoliyatida quyidagi asosiy masalalarga ham e’tibor qaratish nazarda tutiladi:

• akademik guruh jamoasi shakllanganligi;

• o‘quvchilarning murabbiy tomonidan yaxshi o‘rganilganligi;

• guruh faollarining shakllanganligi va ular faoliyatining to‘g‘ri yo‘naltirilganligi;

• o‘quvchilarning har kungi faoliyatini to‘la bilishi;

• o‘quvchilarning kun tartibi, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va o‘tkazishdagi ishtirokining boshqarilishi;

• akademik guruh yig‘ilishlarining o‘tkazilishi, unda ko‘riladigan masalalarning dolzarbligi;

• akademik guruhda dars beradigan o‘qituvchilar bilan yaqin aloqaning yo‘lga qo‘yilganligi;

• ta’lim muassasasi jamoatchi tashkilotlari faoliyatida ishtirok etishi;

• akademik guruh o‘quvchilarining ota-onalari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar;

• o‘quvchilar shaxsiy hujjatlarining yuritilishi;

• akademik guruh bilan ishlash yillik rejasining keng qamrovliligi;

• yil davomida amalga oshirilgan murabbiy faoliyati yuzasidan hisobot tuzilishi;

• o‘quvchilar va pedagogik jamoa oldida bu faoliyat yuzasidan ma’lumot berish.

Bu ishlar taxminan .quyidagi ko‘rinishda amalga oshiriladi:

• Guruhga oid bo‘lgan barcha hujjatlar bilan tanishib chiqish;

• dars davomida o‘quvchilarni o‘quv-tarbiyaviy faoliyatini doimiy ravishda kuzatish;

• o‘quvchilarni psixologik nuqtai nazardan o‘rganish jarayonida psixodiagnostik usullardan foydalanish;

• guruhni o‘rganish jarayonida sotsiometriya metodidan foydalangan holda unga tavsifnoma tuzish.

3.2. Amaliyotchi talabani darsga tayyorlanishi

Ma’lumki, o‘qituvchining darsga tayyorgarligi quyidagi ikkita bosqichda amalga oshiriladi:

3.2.1. Darsga umumiy tayyorgarligi

U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• davlat ta’lim standarti, tayanch o‘quv reja, o‘quv dasturlari va ularga berilgan tushuntirish xatlarini o‘rganib chiqishi;

• o‘quv faniga oid yangi ilmiy-metodik adabiyotlar bilan doimiy ravishda tanishib borishi;

• o‘z fani sohasida eng yangi ma’lumotlarni to‘plash, muammoli masala va topshiriqlarni, test materialini jamlash;

• har bir darsda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ko‘rgazmali materiallar va o‘quv jihozlarini to‘g‘ri tanlay olishi va ulardan o‘rinli foydalanishi;

• ilg‘or pedagogik tajribalarni doimiy ravishda o‘rganib borishi orqali o‘z bilimlarini kengaytirib borishi;

• zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan dars jarayonida foydalana olish mahoratini oshirib borishi, elektron

darsliklar, matn muharrirlari, "Ziyo-Net" axborot portaliga joylashtirilgan ma'lumotlardan samarali foydalana olishi talab etiladi.

3.2.2. Darsga kundalik tayyorgarligi

Darsga kundalik tayyorlanish – darsni tashkil etish, o'quvchilarga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni qay darajada o'zlashtirishini ta'minlaydi. Dasrga tayyorlanish algoritmi (qoidalar majmui) barcha omillar, holatlarni hisobga olish va kafolatlaydigan izchil tadbir bo'lishi zarur. Shuning uchun har bir darsga tayyorlanishda quyidagi **tavsiyalarga** rioya qilishi lozim:

Darsga tayyorlanishdan oldin quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

• darsda o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun uning idrokini kuchaytirish va xotirasini mustahkamlash asosida o'quv materiallarining xotirada saqlanishini ta'minlash;

• dars maqsadiga erishish uchun o'quv materiallarini to'g'ri tanlash (bunda o'quvchilarning bilim saviyasini hisobga olish va darsni jihozlashga jiddiy e'tibor berish);

• o'quv materiallar o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun ta'limning metod va usullarini to'g'ri tanlashi hamda o'rinli qo'llay olishi muhim hisoblanadi.

Har bir darsga puxta tayyorlanish tajribali o'qituvchi uchun ham, yosh o'qituvchi uchun ham bir xil mas'uliyat yuklaydi. Bunda har bir o'quvchi shaxsini har tomonlama chuqur o'rganishi talab etiladi.

Chunki o'quvchi shaxsi ta'lim-tarbiya jarayonida ko'zlangan maqsadga erishishning asosi hisoblanadi.

Shuning uchun, **birinchidan,** sinf jamoasining quyidagi o'ziga xos bo'lgan xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim:

– o'quvchilarning bilim darajasi va o'zlashtirish saviyasi;

– o'quvchilarning fanga bo'lgan munosabati;

– guruhning ishlash tezligi;

– bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganligi;

– har xil turdagi o'quv jarayoniga munosabati;

– o'quvchilarni intizomi va h.k.

Ikkinchidan, har bir o'quvchining individual xususiyatlarni e'tiborga olish zarur:

– asab tizimi turlarining shakllanganligi darajasi;

– o'zaro fikr almashuvi;

– hissiyotga beriluvchanligi;

– yangi materialni o'quvchilar tomonidan qabul qilishni boshqarish;

– yomon kayfiyatni tarqatish yo'llarini bilish;

– o'zining bilim va qobiliyatiga ishonish;

– ta'limning turli didaktik vositalarining ishlash tamoyillarini va ulardan to'g'ri hamda o'rinli foydalanishni bilish.

O'qituvchi oldida turgan **asosiy vazifalardan** yana biri o'quvchilarga beriladigan ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, uni yanada rivojlantirish va yuqori bosqichga ko'tarishdan iboratdir.

Demak, o'qituvchi har bir darsni rejalashtirganda darsning yuqori saviyada o'tilishiga erishish uchun dars ishlanmasini batafsil tuzishi, unda aniq vaziyatlarni e'tiborga olishi hamda darslarni turli shakllarda o'tkazishi talab etiladi.

O'qituvchi tomonidan darsga kundalik tayyorgarlik quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

• taqvim-mavzu rejadagi yangi mavzu va unga ajratilgan vaqt aniqlashtirib olinadi;

• davlat ta'lim standarti va o'quv dasturidan o'tilayotgan mavzu yuzasidan o'quvchida qanday tushunchalar shakllantirilishi, ya'ni ushbu mavzu bo'yicha qanday bilim, malaka va ko'nikmalar shakllantirilishi lozimligi aniqlanadi hamda shu asosda dars maqsadlari aniqlanadi;

• mazkur darsda foydalaniladigan ta'lim vositalari (texnik vositalar, slaydlar, ko'rgazmali va didaktik materiallar, adabiyotlar) aniqlanadi hamda darsga tayyorlab qo'yiladi;

• darsning tarkibiy qismi, turi, metodlari va o'qitish usullari belgilab olinadi;

• fanlararo aloqadorlik imkoniyatlari aniqlanadi va undan dars jarayonida foydalanish yo'llari belgilab olinadi;

• o'qituvchi va o'quvchilarning darsdagi hamkorlikdagi faoliyatlari rejalashtiriladi;

• o'quvchilarning darsdagi mustaqil faoliyatlari hajmi belgilab olinadi;

• darsda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash usul va shakllari belgilab olinadi;

• uy vazifasining hajmi belgilab olinadi;

• darsni yakunlash shakllari belgilab olinadi;

• o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish usullarini aniqlab olish va kerakli materiallarni oldindan tayyorlash;

• belgilangan talablar asosida yuqoridagilarga asoslangan holda dars ishlanmasi tayyorlanadi.

3.3. Dars ishlanmasini tayyorlash

Har bir dars:

• ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilishi va puxta rejalashtirilgan bo'lishi;

• ma'naviy-ma'rifiy jihatdan milliy va umumbashariy tarbiyaga, milliy qadriyatlar va milliy urf-odatlarga yo'naltirillgan bo'lishi;

• turli ta'lim metodlari, usullari va vositalardan to'g'ri, samarali va o'rinli foydalangan holda olib borilishi;

• o'quvchilarning dars jarayonida samarali ishlashlarini ta'minlashga erishilishi;

• mashg'ulotlarni butun guruh bilan yoppasiga olib borish va o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlashni hisobga olgan holda amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lishi lozim.

Mashg'ulotlarning muvaffaqiyatli o'tishi ta'lim jarayonini to'g'ri rejalashtirishgan holda amalga oshirilishiga bog'liqdir.

3.3.1. O'quv jarayonini rejalashtirish

O'quv jarayonini **rejalashtirishda** quyidagilarga amal qilishi talab etiladi:

1. Dars mavzusini, maqsad va vazifalari, turi, tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash.

2. Dars uchun kerakli ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar va zarur jihozlarni tayyorlash.

3. Dars maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda uning har bir bosqichi uchun zarur bo'lgan o'quv materiallari, undagi faktlar, misol, mashq va topshiriqlarni tanlash.

4. Ta'lim metod, usul va vositalarini to'g'ri tanlash.

5. O‘quvchilar uchun mustaqil va uyda bajariladigan vazifalarni belgilash.

6. Bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashning aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, darsga ajratilgan vaqtdan to‘g‘ri va unumli foydalanish lozim.

Bularning barchasi dars ishlanmasida, ya’ni darsning texnologik xaritasida o‘z ifodasini topadi.

3.3.2. Texnologik xarita (Dars ishlanmasi)

Dars ishlanmasi (darsning texnologik xaritasi) o‘qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo‘lgan hujjat bo‘lib, uni tuzishdan ko‘zlangan asosiy maqsad - o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning dars jarayonidagi birgalikdagi faoliyatini rejalashtirish, dars mazmunini yoritib berish va shu orqali ta’lim samaradorligini oshirishga erishishdan iboratdir.

Dars ishlanmalari uchun tayyor qolip yo‘q, chunki jonli dars jarayonini hech qanday qolipga solib bo‘lmaydi. Dars ma’lum bir maqsadga qaratilgan, DTS (Davlat ta’limi standarti) talablari asosida o‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va malaka berish natijasini aniq belgilab olgan holda o‘qituvchining mahorati, o‘quvchilarning tayyorgarligi darajasi asosida rejalashtiriladi.

Dars mavzusi (taqvim-mavzu reja asosida belgilanadi)

1. Dars maqsadi:

Ta’limiy (o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini qanday rivojlantirish, shakllantirish ko‘zda tutilgan holda belgilanadi);

Tarbiyaviy (shaxsning qanday sifatlari shakllantirilishi ko‘rsatiladi);

Rivojlantiruvchi (o‘quvchilar aqliy faoliyatning qanday shakllari va mantiqiy fikrlash jarayonlarini o‘zlashtiradilar hamda u qanday rivojlantiruvchi natija berishi ifodalanadi.)

2. Dars turi: (taqvim-mavzu reja bo‘yicha darsning turi ko‘rsatiladi)

3. O‘qitish metodlari: (metodlar, usullar, pedagogik texnologiyalar)

4. Dars jihozi: O‘TV (o‘qitshning texnik vositalari), ko‘rgazmali qurollar, ma’lumotlar manbai, o‘qitishni didaktik vositalari tanlanadi.

5. Yangi bilim berishdagi tayanch tushunchalar: Yangi materialni o‘zlashtirish uchun yordam beradigan tayanch bilimlarning muhimlarini ajratish, o‘quvchilarning mustaqil ishlarini rejalashtirish, mavzuga tegishli bo‘lgan tarixiy ma’lumotlar berish, uning amaliy ahamiyati ochib berish, o‘rganilayotgan fanga bo‘lgan qiziqishni oshirish, muammoli vaziyatlarni hosil qilish, ish jarayonida nazorat shaklini belgilash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘zaro nazorat, teskari aloqani o‘rnatish shakllari uchun ajratilgan vaqt ko‘rsatiladi.

6. Yangi tushunchalar va harakat usullarini shakllantirish:

- o‘rganilishi lozim bo‘lgan yangi tushunchalar va ularni o‘zlashtirish usullarini ko‘rsatish;
- DTS talablari asosida bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantiruvchi, dars jarayonida o‘zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish yo‘llarini ko‘rsatish;
- bilimlarni o‘zlashtirish bosqichida bilish faoliyati usullarini shakllantirish;
- mustaqil ish turini aniqlash;
- fanlararo aloqani ta’minlash usullarini belgilash;

• individual topshiriqlarni bajarish uchun (tarqatma materiallar, muammoli va ma'lumotli savollar) didaktik materiallarni belgilab olish.

7. Qo'llash (ko'nikma va malakalarni shakllantirish).

Dars jarayonida o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar aniq ko'rsatiladi.

Masalan:

• savolni to'g'ri qo'yish malakasi, tasniflash, taqqoslash;

• teskari aloqa o'rnatish usullari belgilanadi, faoliyati baholanishi lozim bo'lgan o'quvchilar ismi, shariflari ko'rsatiladi va boshqalar.

8. Uyga vazifa. Asosiy vazifa ko'rsatiladi, takrorlash uchun savollar, ijodiy topshiriqlar beriladi.

Izoh. Uy vazifasining hajmi sinfda bajarilgan ishning 2/3 qismidan oshmasligi kerak.

3.3.3. Dars ishlanma rejasining tuzilishi

Sana _____
Sinf _____
Mavzu: _____
Maqsad:
Ta'limiy: _____
Tarbiyaviy: _____
Rivojlantiruvchi: _____
Turi: _____
Metodlari: _____
Jihozlanishi: _____

Dars bosqichlaridagi uzviy ketma-ketlik:

Tashkiliy	Yangi bilimni o'zlashtirish
Uy vazifasini tekshirish	Yangi bilimni mustahkamlash (yangi mavzu bo'yicha savollar tayyorlash)
Har tomonlama bilimlarini tekshirish (o'tilgan mavzular bo'yicha savollar tayyorlash)	Uy vazifasi bo'yicha turli axborot, yo'riqnomalar
Yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlash	

Dars tuzilmasining mazmuni:

Dars bosqichlari	Vaqti	Qo'llaniladigan metod va usullar, ta'lim vositalari hamda shakli	O'quvchi faoliyati	O'qituvchi faoliyati

Demak, **darsni rejalashtirishda** o'quvchilar bilimini mustahkamlash va oldingi o'tilgan darsni takrorlash, bilim va malakalarni tekshirish kerakligini esda tutishi, og'zaki va yozma ko'nikmalarni ifodalash, nutq madaniyati ustida ishlash mahoratini takomillashtirishi, darsdagi materiallarni yaxshi o'rganib chiqishi va o'quvchilar xotirada saqlashi kerak bo'lgan matnlarni yoddan bilishi lozim.

Dars – o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas, chunki o'quv amaliyoti va pedagogik taffakkur doimo uni takomillashtirish yo'llarini izlaydi. Shunday ekan, berilayotgan tavsiyalardan ijodiy yondashgan holda foydalanishingizni, uni yanada boyitishingizni istab qolamiz.

Dars ishlanmasi namunasi
Mavzu: Aralash sonlar
Darsning texnologik xaritasi
Mavzu: “Aralash sonlar” (5-sinf matematikasi)

I. **Darsning maqsadi va vazifalari** (darsning maqsadi vazifaga aylanadi)	Darsning ta'limiy maqsadi: • o'quvchilarni aralash sonlar, ularni noto'g'ri kasrga aylantirish, noto'g'ri kasrni aralash son ko'rinishida yozishga doir tushunchalar bilan tanishtirish; • kasrlar haqidagi tushunchalarni rivojlantirish; • aralash kasrlarni turli ko'rinishlari haqida tushunchalar hosil qilish; • noto'g'ri kasrni butun kasrga aylantirishga doir ma'lumotlar berish; **Darsning tarbiyaviy maqsadi**: o'quvchilarda jamoa bilan ishlashda o'zaro do'stona munosabatda bo'lish, o'zgalar fikriga hurmat bilan qarash, topqirlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish. **Darsning rivojlantiruvchi maqsadi**: o'quvchilar mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish.
II. **Darsninig mazmuni** (dars ishlanmasi oxirida ssenariy ko'rinishda berilishi maqsadga muvofiq)	• Aralash son haqida tushuncha berish; • aralash sonlarni natural songa aylantirish qoidalari bilan tanishish; • noto'g'ri kasrni aralash songa aylantirish qoidalarini bilish va uni misol, masalalar yechishda qo'llay olish; • mustaqil ravishda aralash sonlarga doir masalalar tuza olish.
III. **O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi** (**Texnologiya** – o'quv jarayonini to'laligicha egallovchi tizimli ketma-ketlik natijasi)	**Shakl:** og'zaki, yozma, ko'rgazmali **Metod:** og'zaki bayon qilish, “Bahs-munozara”, “savol-javob **Ta'lim texnologiyasi:** “Musobaqa darsi” (guruhlarda ishlash). **Vosita** – tarqatma. ko'rgazmali materiallar, kompyuter, ekran, videoproektor. **Usul** – savol-javob, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash, mustaqil ish. **Baholash** – o'z-o'zini baholash, hamkorlikda baholash, reyting asosida baholash.

IV. **Kutiladigan natijalar**	**O'qituvchi:** • aralash sonlar bilan tanishtirish; • aralash sonlarni noto'g'ri kasrga aylantirish haqida ma'lumot berish; • noto'g'ri kasrni aralash songa aylantirish haqida tushuncha berish.	**O'quvchi:** • aralash sonlar haqida ma'lumot olish; • aralash sonlarni noto'g'ri kasrga aylantirishni o'rganish; • noto'g'ri kasrni aralash songa aylantirishni o'rganish.
V. Kelgusi rejalar	**O'qituvchi:** • o'tilgan darslarni tahlil qiladi; • o'z-o'zini baholaydi; • mavzuni yangi materialiar bilan boyitadi; • mavzuni ochishda yanada samarali texnologiyalardan foydalanishni rejalashtiradi; • aralash sonlar haqidagi tushunchalarni yanada kengaytiradi.	**O'quvchi:** • oddiy va aralash kasrni farqlarini tahlil qiladi; • aralash sonlarni noto'g'ri kasrga aylantirish haqidagi malakalarini o'stiradi; • noto'g'ri kasrni butun qismiga ajratishga doir malakasini o'stiradi.

Dars rejasi:

№	Dars bosqichlari	Ajratilgan vaqti
1.	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2.	O'tilgan mavzuni so'rash	10 daqiqa
3.	Yangi mavzuni o'rganish	12 daqiqa
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash	16 daqiqa
5.	O'quvchilar faoliyatini baholash va uyga vazifa berish	5 daqiqa

Dars ssenariysi

I. Tashkiliy qism:

a) sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorligini aniqlash;

b) salomlashish;

d) davomatni aniqlash.

II. O'tilgan mavzuni so'rash:

Tarqatma materiallar, mavzuga doir misol, masala va savollardan foydalangan holda savol-javoblar "musobaqa" tarzida o'tkaziladi. Buning uchun sinf o'quvchilari kichik guruhlarga ajratiladi.

O'tilgan mavzuni so'rash quyidagi **2 bosqichda** amalga oshiriladi:

1-bosqich: Kichik guruhlarga oldindan tayyorlangan savollar beriladi va javoblar aniqlanadi.

Masalan:

1-guruhga: "Bo'lish" amali deganda nimani tushunasiz? Misollar keltiring.

2-guruhga: Kasr bilan bo'lish amalining qanday bog'liqligi bor? Kasr chizig'i qanday ma'noni bildiradi?

3-guruhga: Har qanday kasrni bo'lish amali yordamida yozish mumkinmi? Misollar keltiring.

2-bosqich: "Musobaqa" tarzida.

Har bir kichik guruhga topshiriq.

1-topshiriq. Quyidagi bo'linmalarni kasr ko'rinishida yozing (Topshiriq matni kompyuterda ekran orqali ko'rsatiladi yoki tarqatma materiallar ko'rinishida o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yiladi). Har bir guruh a'zolaridan bittadan o'quvchi doskaga chiqib yozadilar.

1-guruhga: 4:5; 10:13; 2009:10; 70:2011

2-guruhga: 7:8; 14:17; 2001:1327; 2008:2001

3-guruhga: 9:5; 25:29; 2012:1; 1972:2001

2-topshiriq. Kasrni bo'linma ko'rinishida yozing:

$\frac{25}{7}, \frac{19}{23}, \frac{125}{25}, \frac{196}{7}, \frac{2011}{2012}$

3-topshiriq. Kasrni bo'linma ko'rinishida yozing va noma'lumni toping.

$1)\frac{x}{25}=12;\ \ 2),\frac{130}{x}=26;\ \ 3)\frac{y}{18}=\frac{380}{19};\ \ 4)\frac{125}{y}=\frac{20}{4}$

Guruhlar bo'yicha umumiy holda mustaqil ish sifatida " kim birinchi? " musobaqasi o'tkaziladi va g'olib o'quvchilarga rag'bat kartochkasi beriladi.

III. Yangi mavzuni o'rganish.

Mavzuga doir masala yechish orqali **"Aralash son"** haqida tushuncha hosil qilinadi. Quyidagi masalani **"Bahs-munozara"** shaklida hal qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Masala: Ona 8 ta plitkali shokoladni 3 ta farzandiga teng qilib bo'lishi kerak. Buni qanday bajaradi?

Yechish: Buning uchun 8:3 amalni bajarish kerak. Har bir farzandga 2 tadan tegadi va yana 2 ta shokolad ortib qoladi. Buning uchun ortib qolgan shokoladni har birini ham 3 tadan teng qismga bo'lib bersa, $\frac{2}{3}$ tadan tegadi. Demak, har bir farzandiga 2 tadan

butun va yana 1 ta shokoladning $\frac{2}{3}$ qismini beradi.

Buni $2 + \frac{2}{3} = 8:3$ yoki $\frac{8}{3} = 2\frac{2}{3}$ deb yozish mumkin.

Demak, $8:3 = \frac{8}{3} = 2\frac{2}{3}$

Noto‘g‘ri kasr berilgan bo‘lsa, suratini maxrajiga bo‘lsak, hosil bo‘lgan to‘liqsiz bo‘linma berilgan kasrning butun qismiga, qoldiq suratiga yozilsa, maxraj o‘zgarishsiz qolar ekan. Aksincha ko‘rinish bo‘lsa, ya’ni:

$2\frac{2}{3} = \frac{2\cdot3+2}{5} = \frac{6+2}{3} = \frac{8}{3}$ hosil bo‘ladi.

Qoida. Aralash kasrni noto‘g‘ri kasrga aylantirish uchun butun qismini maxrajiga ko‘paytirib, chiqqan natijaga suratini qo‘shib hosil bo‘lgan yig‘indi suratiga yoziladi, maxraji esa o‘zgarishsiz qoladi.

IY. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun guruhlar bo‘yicha navbati bilan 2 ta topshiriq asosida “Musobaqa” tashkil etiladi.

1-topshiriq. Noto‘g‘ri kasr yozing, uni aralash kasrga aylantiring.

Masalan: $\frac{17}{4} = 4\frac{1}{4}$; $\frac{29}{3} = 9\frac{2}{3}$; $\frac{23}{5} = 4\frac{3}{5}$; va h.k. ko‘rinishida yozish mumkin.

2-topshiriq. Aralash kasrni noto‘g‘ri kasrga aylantiring:

Masalan: $5\frac{3}{8} = \frac{5\cdot8+3}{8} = \frac{43}{8}$; $8\frac{3}{4} = \frac{8\cdot4+3}{4} = \frac{35}{4}$ va h.k. ko‘rinishda yozish mumkin.

Keyingi bosqichda darslikdagi mashqlarning bir qismini doskada "Kim to'g'ri va tez bajaradi?" sharti asosida bajariladi. Dars yakunida ko'p ball to'plagan guruh va o'quvchilar rag'batlantiriladi.

V. O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa:

Dars o'qituvchi tomonidan yakunlanib, guruhlar bo'yicha "g'olib guruh" va "eng bilimdon o'quvchi" aniqlanadi. Musobaqada faol qatnashgan o'quvchilarning faoliyati rag'bat kartochkalari orqali to'plagan o'rtacha ballari bo'yicha baholanadi.

Eslatma: Rag'bat kartochkalari o'qituvchi tomonidan tayyorlanib, uning rangi va shakli uch ko'rinishida bo'ladi: Qizil rangli uchburchak, ko'k rangli kvadrat, yashil rangli doira ko'rinishlarida rag'bat kartochkasi tayyorlanadi. Uchburchak shaklidagi qizil rangli kartochka 3 ballik, kvadrat shaklidagi ko'k rangli kartochka 4 ballik, doira shaklidagi yashil rangli kartochka esa 5 ballik bo'ladi.

MAVZU: HAQIQIY SONLAR VA ULAR USTIDA AMALLAR

Mashg'ulot texnologiyasi modeli

Vaqti – 2 soat	O'quvchilar soni: 30 nafar
O'quv mashg'uloti mavzusi	**Haqiqiy sonlar va ular ustida amallar**
O'quv mashg'uloti shakli	**Amaliy mashg'ulot**
O'quv mashg'uloti rejasi	1.Sonlarni taqqoslashga oid misollar. 2. Sonlarni kami bilan va ortig'i bilan o'nli yaqinlashishlarini topishga doir misollar. 3. Haqiqiy sonlar ustida amallarni ma'lum bir aniqlikda bajarish. 4. Haqiqiy sonning butun va kasr qismi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi	**Ta'limiy:** haqiqiy sonlarni taqqoslash, haqiqiy sonning butun va kasr qismi, haqiqiy sonlar ustida bajarilgan amallarni ma'lum bir aniqlikda topishni va masalalar yechish ko'nikmasini shakllantirish. **Tarbiyaviy:** o'rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otish orqali matematika faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish. **Rivojlantiruvchi:** taqqoslash, umumiashtirish, xulosa chiqarish usullarini qo'llash ko'nikmasini shakllantirish orqali ularni matematik bilimlarini chuqurlashtirisi va mustaqil fikrlash qobiluyatlarini rivojlantirish.

Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyatining natijalari:
O'qituvchi:	O'quvchi:
1. O'quvchilarni haqiqiy sonlar va ular ustida amallarga doir masalalarni yechishga oid asosiy qoidalar, formulalar, nazariy tasdiqlar bo'yicha egallagan nazariy bilimlarini esga tushurish.	– Haqiqiy sonlar va ular ustida bajariladigan amallarga doir asosiy qoidalar, formulalar, nazariy tasdiqlar, metodik tafsilotlar haqidagi bilimlarga ega bo'ladi.
2. Haqiqiy sonlar va ular ustida bajariladigan amallarga doir masalalarni yechish ko'nikmasini shakllantirish.	– Haqiqiy sonlar ustida bajariladigan amallarni yechish malakasiga ega bo'ladi.
3. Mavzuga oid masala va misollarni yechishning asosiy qoidalarini o'rgatish.	– Sonlami taqqoslash, masalani ma'lum bir aniqlikda topish, masalalami yechishning turli usullarini biladi.
4. O'quvchilarni misol yechishda eng qulay usulni tanlash nuqtai nazaridan masala shartini tahlil qilishga o'rgatish.	– Masalalarni yechishdagi eng qulav yo'lni tanlash nuqtai nazaridan tahlil qila oladi va shu yo'l bilan masalani hal qiladi.
5. Egallagan ko'nikmalar darajasini mustaqil ish masalalari orqali tekshirish.	– Yig'ilgan mustaqil ish masalalarini hal qiladi va mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini tekshiradi.
O'qitish metodlari	Muammoli vaziyatlarni yaritish, yozma va og'zaki bayon qilish, matn bilan ishlash, hamkorlikda o'qitish texnalogiyasi
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, topshiriq savollari
O'qitish shakli	Jamoada, yakka shaklda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan o'quv xonasi

TEXNOLOGIK XARITA

Mavzu	Haqiqiy sonlar va ular ustida amallar
Maqsad, vazifalar	O'quvchilarga haqiqiy sonlar haqida ma'lumot berish va ular ustida amallar bajarishga o'rgatish.
O'quv jarayonini mazmuni	O'quvchilarda haqiqiy sonning butun qismi, kasr qismi, taqqoslash, chiziqli tenglamalar yechish haqidagi tasavvurlarni hosil qilish va ular ustida ishlash haqida tushunchalar berish.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	**Metod:** og'zaki bayon qilish, Klaster, Blitz so'rov, kichik guruhlarda ishlash. Forma: amaliy mashg'ulot, musobaqa darsi. Vosita: mavzuga doir slaydlar, proyektor. Nazorat: "Blits so'rov", tarqatma materiallar, o'z- o'zini nazorat qilish.
O'quv jarayoniga ajratilgan vaqt taqsimoti	**Tashkiliy qism**: uch daqiqa o'tilgan mavzuni so'rash, o'n besh daqiqa yangi mavzuning bayoni, yigirma besh daqiqa yangi mavzuni mustahkamlash, yigirma besh daqiqa yangi mavzuni umumlashtirish, yetti daqiqa uyga vazifa.
Kutiladigan natijalar	**O'qituvchi:** Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishish. O'quvchilarning fanga qiziqishlarini kuchaytirish va ularning faolligini oshirish. **O'quvchi:** Yangi mavzuni osonroq o'zlashtirishi. Eslab qolish va yozib borishga o'rganish. Mavzu haqida ko'proq ma'lumotlar olish.

Kelgusi rejalar	**O'qituvchi:** O'z ustida ishlash. Darsni axborot texnologiyalardan foydalanib o'tish. Pedagogik-psixologik mahorat va malakasini oshirish. **O'quvchi:** Mustaqil ishlashga o'rganish. Darslik, fanga doir qo'shimcha adabiyotlardan ma'lumot topish, ular haqida o'z fikr mulohazalarini bildirish.

Mavzu: Haqiqiy sonlar va ular ustida amallar.

1. Quyidagi sonlarni taqqoslang:

a) 17,586631 va 17,586897

b) −2,37561 va −2,37571

c) −0,786 va 0,867 d) 0,24444.. va 0,244

e) 0,428571 va $\frac{3}{7}$

Yechish:

$$\begin{array}{r|l} 30 & 7 \\ \hline 28 & 0{,}428571428571 \\ 20 & \\ 14 & \\ \hline 60 & \\ 56 & \\ \hline 40 & \\ 35 & \\ \hline 50 & \\ 49 & \\ \hline 10 & \\ 7 & \\ \hline 30 & \end{array}$$

Demak: $\frac{3}{7}=0{,}(428571)$

Shuning uchun:

$0.428571<\frac{3}{7}$

2. 0,461538 va $\frac{6}{13}$;

3. $\sqrt{10}$ va 3,15;

4. $\sqrt{2}+\sqrt{3}$ va $\sqrt{5}+\sqrt{1}$.

2. Quyidagi sonlarning 0,1; 0,01 va 0,001 gacha aniqlikdagi kami bilan va ortig'i bilan o'nli yaqinlashishlarini toping:

1) 0,2664; 2) $\frac{5}{6}$; 3) $-\frac{2}{7}$; 4) $\frac{11}{13}$; 5) $\frac{16}{19}$;

Yechish: 1) $0,2<x<0,3$
$0,26<x<0,27$
$0,266<x<0,267$

$$\begin{array}{r|l} 50 & 6 \\ \hline 48 & 0,833\ldots \\ \hline 20 & \\ 18 & \\ \hline 20 & \end{array}$$

$\frac{5}{6}=0,8333\ldots$
$0,8<\frac{5}{6}<0,9$
$0,83<\frac{5}{6}<0,84$
$0,833<\frac{5}{6}<0,834$

3. a) ABC uchburchak tomonlari: $AB=\sqrt{58}$, $BC=\sqrt{85}$, $AC=9$, uning P perimetrini 0,01 aniqlikda toping (1-rasm).

Yechish: 1-usul: Qo'shiluvchilaring aniq qiymatini 0,001 gacha aniqlik bilan olamiz va natijani 0,01 aniqlikda yaxlitlaymiz:

$$P=AB+BC+AC=\sqrt{58}+\sqrt{85}+9=7,615+9,219+9=25,834\approx 25,83.$$

2-usul: Sonlarni quyi va yuqori chegara qiymatlari bo'yicha yozamiz va amalni bajaramiz:

$7,61<\sqrt{58}<7,62$. $9,21<\sqrt{85}<9,22$

$25,82<P<25,84 \Rightarrow P=\frac{25,82+25,84}{2}=25,83$



1-rasm

1) kubning qirrasi $12,8<a<12,9$ (sm). Uning to'liq sirti va hajmini toping. Javobni 0,1 gacha aniqlikda yozing.

2) quyidagilarni 0,001 gacha aniqlikda toping:

a) $\frac{1}{3}+\frac{4}{7}$; 4) $\frac{2}{5}+\sqrt{7}$; b) $\sqrt{3}+\sqrt{5}$; 6) $\sqrt{10}-\sqrt{2}$.

3) a sonining butun qismi deb, a dan katta bo'lmagan butun sonlarning eng kattasiga aytiladi va [a] yoki E [a] orqali belgilanadi.

a) hisoblang:

1) $[2.8]=2$; 2) $[0]=0$; 3) $[-1.5]=-2$; 4) $[\pi]=3$;

5) $[\sqrt{15}]$; 6) [2]; 7) [9,9]; 8) [0.2],

9) $[-\pi]$; 10) $\left[\frac{100}{7}\right]$; 11) $100\cdot\left[\frac{1}{7}\right]$; 12) $8\cdot\left[3\frac{2}{3}\right]$;

13) $\left[12\frac{2}{7}+5\frac{3}{7}\right]$; 14) $\left[\frac{100}{7}\right]\cdot 7$; 15) $\left[\frac{100}{7^2}\right]\cdot 7$; 16) $\left[\frac{490}{100}\right]^2$.

b) tenglamani yeching:

1) $\left[\frac{3x-1}{4}\right]=5$; 2) $[2x+4]=-5$; 3) $\left[\frac{3x}{4}-1\right]=15$; 4) $[3x-1]=-4$.

Yechish: 1) sonning butun qismi 5 ga teng bo'lishi uchun bu son 5 dan katta yoki teng va 6 dan kichik bo'lishi kerak:

$$5 \le \frac{3x-1}{4} < 6 \Rightarrow 20 \le 3x-1 < 24 \Rightarrow 20+1 \le 3x < 24+1 \Rightarrow$$

$$21 \le 3x < 25 \Rightarrow 7 \le x < \frac{25}{3} \Rightarrow 7 \le x < 8\frac{1}{3} \Rightarrow x \in \left[7; 8\frac{1}{3}\right)$$

O'quvchilar bilimini faollashtirish. Tezkor savolga tezkor javob:

t/n	Tezkor savol	Tezkor javob
1	Sanashda ishlatiladigan sonlar ..... ?	Natural sonlar
2	Qanday songa irratsional son deyiladi	$\frac{m}{n}$ (bunda, $m \in N$ va $n \neq 0$, $n \in Z$) kasr ko'rinishda ifodalash mumkin bo'lmagan sonlar irratsional sonlar deyiladi.
3	$\sqrt{2}$ qanday son?	Irratsional son
4	Ratsional sonlar to'plami qanday harf bilan belgilanadi?	Q
5	Ratsional va irratsional sonlar to'plamlari birlashmasi qanday sonlar deyiladi?	Haqiqiy sonlar
6	Butun sonlar to'plamiga ta'rif bering	Natural sonlar to'plami va unga qarama-qarshi sonlar hamda 0 butun sonlarni tashkil etadi
7	Sof davriy kasrga misol keltiring	0,(76); 9,(67); ....'
8	Aralash davriy kasrga misol keltiring	1,24 (34); 0.54(87);....


9	Tub son deb qanday songa aytiladi?	1 dan va o'zidan boshqa natural bo'luvchiga ega bo'lmagan 1 dan katta natural son tub son deyiladi.
10	Qanday oddiy kasrlarni bilasiz?	To'g'ri va noto'g'ri
11	Bo'sh to'plam deb qanday to'plamga aytiladi?	
12	Butun sonlar to'plami qanday harf bilan belgilanadi?	Z
13	0 natural sonmi?	Yo'q
14	Noto'g'ri kasrga ta'rif bering	
14	To'g'ri kasrga ta'rif berin	
16	Tenglamaga ta'rif bering	
17	Tenglamaning ildizi nima?	
18	Murakkab songa izoh bering	
19	23 soni tubmi yoki murakkab sonmi?	
20	"97 murakkab son" izoh to'g'rimi?	Yo'q. U tub son.
21	1/5 ni o'nli kasrga aylantiring	
22	1/7 ni davriy o'nli kasr bo'la oladimi?	
23	N va Z sonlar to'plamlarining birlashmasi qanday sonlarni tashkil etadi ?	
24	3,333333.... qanday son?	
25	Matematika qanday fan?	
	To'g'ri javob:	**Noto'g'ri javob:**

Miyangizni charxlang:

1. 8 ta 8 sonidan qo‘shish amalidan foydalangan holda 1 000 sonini hosil qiling.

2. Otam 32 yoshligida men 8 yoshda edim. Hozir otamning yoshi mening yoshimning 2 barobariga teng. Men necha yoshdaman?

3. Arifmetik amallar yordamida 5 ta 5 dan 100 hosil qiling.



Test savollari:

I variant

1. Hisoblang: $\left(4\frac{1}{10}-3\frac{4}{15}\right)*\frac{5}{6}+4\frac{1}{10}:1\frac{1}{5}=$

A) $3\frac{5}{9}$ B) $4\frac{1}{9}$ C) $5\frac{2}{3}$ D) $2\frac{3}{5}$ E) $3\frac{7}{9}$

2. Tenglamani yeching: $\left(x+3\frac{2}{9}\right):4\frac{1}{6}=6$

A) $22\frac{2}{9}$ B) $21\frac{7}{9}$ C) $22\frac{1}{3}$ D) $20\frac{4}{9}$ E) $21\frac{5}{6}$

3. Hisoblang:

$$\left(3\frac{3}{8}\right)^{-\frac{2}{3}}+27^{\frac{2}{3}}\cdot 9^{0,5}\cdot 3^{-2}+\left(\left(\frac{7}{9}\right)^{3}\right)^{0}-\left(-\frac{1}{2}\right)^{-2}$$

A) $\frac{4}{9}$ B) $\frac{8}{9}$ C) 1 D) 0 E) $1\frac{2}{3}$

4. Tenglamani yeching: $\sqrt{x-5}+3\sqrt{x+3}=10$

A) -6 va 17 B) $17\frac{1}{4}$ C) 6 D) $-17\frac{1}{4}$ E) $-17\frac{1}{4}$ va 6

5. Soddalashtiring: $\frac{cos\alpha-ctg\alpha}{sin\alpha-1}$

A) $tg\alpha$ B) $-ctg\alpha$ C) $ctg\alpha$ D) $tg2\alpha$ E) $1+tg^2\alpha$

6. Tenglamani yeching: $2\cos^2 x - \cos x - 1 = 0$

A) $x = \frac{\pi}{3} + 2\pi n, n \in z$ B) $x = \pm\frac{2\pi}{3} + 2\pi n, n \in z$

C) $x = -\pi n, n \in z$ D) $x = 2\pi n, n \in z$

E) $x = 2\pi n, n \in z, x_2 = \pm\frac{2\pi}{3}, n \in z$

7. Tengsizlikni yeching: $2^{x-1} + 2^{x+3} > 17$

A) $x > -1$ B) $x < 2$ C) $x > 1$ D) θ E) $x < -3$

II variant

1. Hisoblang: $\left(12\frac{1}{9} - 10\frac{2}{5}\right) : 38\frac{1}{2} + 2\frac{8}{9} * 18 =$

A) $24\frac{1}{15}$ B) $32\frac{7}{45}$ C) $38\frac{3}{5}$ D) 47 E) $52\frac{2}{45}$

2. Tenglamani yeching: $\left(3\frac{19}{22} + x\right) : 4\frac{1}{4} = 5$

A) $17\frac{19}{22}$ B) $18\frac{3}{22}$ C) $17\frac{3}{22}$ D) 21 E) $18\frac{3}{11}$

3. Hisoblang: $1^{-0,43} - 0,008^{\frac{1}{3}} + (15,1)^0 =$

A) 5 B)-3 C) -4 D) -5 E) -2

4. Tenglamani yeching: $\sqrt{x+1} + \sqrt{2x+3} = 1$

A) 3 B) -1 C) -3 D)2 E) 3 va 1

5. Soddalashtiring: $\frac{\sin\alpha - tg\alpha}{\cos\alpha - 1}$

A) ctg B) -4 C) $tg\alpha$ D) $\cos\alpha$ E) $tg\alpha + 1$

6. Tenglamani yeching: $2\sin^2 x - \sin x - 1 = 0$

A) $\frac{\pi}{6} + \pi n, n \in z$ B) $x = -\frac{\pi}{2} + 2\pi n. n \in z$

C) $x = \pi n, n \in z$ D) $x = 2\pi n, n \in z$

E) $x_1 = (-1)^n \frac{\pi}{6} + \pi n, n \in z, \quad x_2 = -\frac{\pi}{2} + 2\pi n, n \in z$

7. Tengsizlikni yeching: $5^{3x+1} + 5^{3x-3} \leq 624 -$

A) $x \leq 1$ B) $x \geq 1$ C) $x > 1$ D) $x < 3$

Uyga vazifa:

1. Quyidagi sonlarni taqqoslang:

A) $-2,37561$ va $-2,37571$; B) 0,24444.. va 0,244;

C) 0,461538 va $\frac{6}{13}$ va ; D) $\sqrt{2} + \sqrt{3}$ va $\sqrt{5} + \sqrt{1}$.

2. Quyidagi sonlarning 0,1; 0,01 va 0,001 gacha aniqlikdagi kami bilan va ortig'i bilan o'nli yaqinlashishlarini toping:

A) $-1,27$; B) $-\frac{2}{7}$; C) $\frac{16}{19}$;

3. Quyidagilarni 0,001 gacha aniqlikda toping:

A) $\frac{2}{5}+\sqrt{7}$; B) $\sqrt{10}-\sqrt{2}$;

4. Hisoblang:

A) $[2]$; B) $[0,2]$; C) $\left[\frac{100}{7}\right]$;; D) $8\cdot\left[3\frac{2}{3}\right]$;

E) $\left[\frac{100}{7}\right]\cdot 7$; F) $\left[\frac{490}{100}\right]^2$;

5. Tenglamani yeching:

A) $[2x+4]=-5$; B) $[3x-1]=-4$.

3.3.4. Amaliyotchi-talabaning ish rejasi

Amaliyotchi-talabalar malakaviy amaliyot to'g'risidagi dastur va yo'riqnomalarga asoslangan holda metodistlar va umumta'lim fanlari o'qituvchilarining ko'rsatmalari asosida shaxsiy reja tuzadi va shu asosda ish yuritadi. Bu reja amaliyotchi-talabaning amaliyot davridagi butun faoliyatini, uning boshlanishidan oxirigacha bajariladigan barcha ta'lim-tarbiya ishlarini o'z ichiga oladi. Bu ish rejasining taxminiy namunasi 2-ilovada o'z aksini topgan.

Amaliyotchi-talaba **ish rejasining** mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

• umumta'lim fanlari bo'yicha o'tadigan darslari, darsdan tashqari ishlari;

• umumta'lim fanlari bo'yicha amalga oshiriladigan ommaviy va yakka tartibdagi ishlari, kechalar va musobaqalarga tayyorlanishi va o'tkazilishi;

• umumta'lim fanlari bo'yicha darsdan tashqari mashg'ulotlarni kuzatish va ularning muhokamasida ishtirok etishi;

• akademik guruh murabbiysi sifatida amalga oshiradigan ma'naviy-ma'rifiy ishlari;

• ta'lim muassasi va ota-onalar qo'mitasi ishlarida ishtiroki;

• akademik guruh va ta'lim muassasi miqyosida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni kuzatish, uni tashkil qilish va muhokama qilishda ishtiroki;

• akademik guruh o'quvchilarini o'rganishi;

• navbatchilik ishlarida qatnashishi;

• yangi ko'rgazmali qurollar va tarqatmali materiallar va testlar tayyorlashi;

• kurs ishi, bitiruv malaka ishi uchun materiallar yig'ishi va h.k. Amaliyotchi talabaning kundaligi va uni yuritish.

Amaliyotchi-talabadan malakaviy amaliyot davrida har kuni bajargan ishlarini muntazam ravishda yozib borish talab etiladi. Bu ishni to'ldirish quyidagicha amalga oshiriladi:

3.3.5. Amaliyotchi-talaba kundalik daftarining namunaviy nusxasi

(daftarning birinchi sahifasi quyidagicha shaklda bo'ladi)

Nizomiy nomidagi TDPU "Fizika-matematika" fakulteti "Matematika o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich 306-guruh talabasi Maqsudov Shoh Jahonning

(daftarning ikkinchi sahifasi)

Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi Toshkent TYMI qoshidagi 2-son akademik litsey

Matematika fani bo‘yicha metodist-o‘qituvchi: Mansurov Miron Shoh

Amaliyotchi-talaba biriktirilgan akademik guruh: 1 “a” 4

Mutaxassislik fan o‘qituvchilari:

Akademik guruh murabbiysi:

Pedagogik amaliyot muddati: 09.02.2015-yildan 26.03.2015-yilgacha

Amaliyotchi-talaba bajargan ishlar mazmuni (navbatdagi sahifa)

Bajarishga rejalashtirilgan ish mazmuni	Bajarilishi to'g'risida mulohazalar

Kundalikni muntazam va to'g'ri yuritish pedagogik amaliyot jarayonida erishilgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklar va uchragan qiyinchiliklarni aniqlashda muhim o'rin tutadi. Natijada amaliyotchi-talaba mustaqil kasbiy faoliyatga qay darajada tayyor ekanligini anglab yetadi.

Kundalik malakaviy amaliyotning asosiy hujjati hisoblanib, u uchta qismdan iborat bo'ladi:

1) akademik guruh o'quvchi-talabalarining ro'yxati, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar, xodimlar (I.O.SH.) haqida ma'lumot va h.k.

2) amalyotchi-talabaning egallayotgan kasbini o'rganish bo'yicha har kuni bajargan ishlari batafsil yoritilib borilib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– ta'lim muassasasi, uning jamoasi va moddiy bazasi bilan yaqindan tanishish;

– akademik guruh o'quvchi-talabalarini umumiy holda va yakka tartibda o'rganish;

– umumta'lim fanlari bo'yicha darslarni kuzatish va muhokama qilishda ishtirok etish;

– akademik guruh murabbiysi ishini o'rganishi va pedagogik amaliyot davrida uning vazifasini bajarish;

– ta'lim muassasi miqyosida, akademik guruhda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tayyorlash va uni o'tkazishda qatnashish;

– kurs ishi, metodik seminarlarda ma'ruzalar o'qish uchun materiallar yig'ish va h.k.

3) amaliyotchi-talabaning amaliyot to'g'risida tanqidiy fikr-mulohazalari va taklif-istaklari yozib boriladi. Kundalik daftar oxirida pedagogik amaliyot rahbarining fikr-mulohazalari beriladi.

Kundalik har kuni to'la, aniq va tushunarli qilib to'ldirilib boriladi va uni amaliyotchi-talaba doimo o'zi bilan olib yurishi, rahbarlar tomonidan tekshirish uchun so'ralganda, ularga uni berish talab etiladi.

Kundalikdan tashqari amaliyotchi-talabada ish daftari ham bo'lib, unda amaliyot jarayonida tashkil etiladigan dars va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejalari aks ettirilgan bo'lib, unda o'quv va darsdan tashqari ishlarga oid ma'lumotlar qayd qilib boriladi.

3.3.6. Amaliyotchi-talabalarning darsni tashkil etishida uchraydigan xato va kamchiliklar

Amaliyotchi-talabalar darsga tayyorlanish va uni tashkil etish jarayonida turli xil xato-kamchiliklarga

duch keladiki, ular dars samaradorligini oshirishga to'sqinlik qiladi.

Amaliyotchi-talabalar darsga tayyorlanish davrida yo'l qo'yadigan xato-kamchiliklar asosan quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

1. Dars ishlanmasini tuzishda va darsda foydalanish mumkin bo'lgan jihozlarni tanlashda. Bu asosan dars maqsadini aniq ifodalay olmasligida, dars jarayonida o'quvchi-talabalarda qanday yangi tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish, qanday tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish, darsni jihozlashda kerak bo'ladigan ta'lim vositalarini tanlashdagi noaniqliklarda namoyon bo'ladi.

2. Amaliyotchi-talabalar darsni tashkil etish jarayonida uchraydigan xato-kamchiliklarni xarakteri jihatidan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

A) Ilmiy xarakterdagi xato-kamchiliklar.

Bunday xato-kamchiliklar asosan amaliyotchi-talabalar tomonidan yangi mavzuni o'tishda kuzatiladi. Unda asosan yangi o'rganilayotgan materiallar mazmunini chuqur bilmasliklari asosiy sabab bo'ladi.

B) Metodik xarakterdagi xato-kamchiliklar.

Bular asosan dars tuzilishi qismlarini amalga oshirishda kuzatiladi.

Masalan, bunday xato-kamchiliklar uy vazifalarini tekshirishda (bu ko'p hollarda yakunlanmay qoladi), ayniqsa, yangi mavzuni o'rganishda, uni mustahkamlashda, o'quvchi-talabalar bilimini baholash jarayonida ko'proq kuzatiladi.

C) Psixologik xarakterdagi xato-kamchiliklar.

Bular asosan o'quvchi-talabalarning dars jarayoniga qaratilgan diqqati, ishchanlik kayfiyatining ta'minlanmasligida, amaliyotchi-talabalarning tortinchoqligi, no'noqligida ko'zga tashlanadi. Shuningdek, o'quvchi-talabalar bilan muomalada qat'iyatsizlikka yo'l qo'yishlari, darsning emotsional holatlariga e'tibor bermasliklari oqibatida yuzaga keladi.

D) Tarbiyaviy xarakterdagi xato-kamchiliklar.

Bunday kamchiliklar asosan o'quvchilar egallagan bilimlar ularda dunyoqarashini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladigan ishonchga aylanishi to'la ta'minlanmaganda kuzatiladi.

3.3.7. Amaliyotchi-talabaning darsga tayyorlanishi

Malakaviy amaliyotning muvaffaqiyatli o'tishi, avvalo, amaliyotchi-talabaning darslarga tayyorlanishiga bog'liq bo'lib, uni amalga oshirish quyidagi tartibda bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

a) metodist va mutaxassislik fani o'qituvchisidan tashkil etiladigan yangi dars bo'yicha maslahat olish (yangi mavzuni o'rganishda asosiy e'tibor berish kerak bo'lgan tushunchalar, darsni jihozlash, o'tilgan darslar va fanlararo aloqani qanday yo'lga qo'yish, dars jarayonida o'qitishning qanday metodlaridan foydalanish, ta'lim-tarbiya birligiga erishish, foydalaniladigan tarbiya metodlari va h.k.);

b) yangi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmunini, aniqlash va uni chuqur o'rganish;

d) yangi mavzuga oid ilmiy-metodik adabiyotlar bilan tanishib chiqish;

e) o'rganiladigan mavzuning boshqa fanlar bilan va o'tgan materiallar bilan aloqadorligini aniqlash;

f) o'qitish metodlarini aniqlash;

g) darsning tuzilishini aniqlash;

h) yangi dars maqsadini aniqlash, shu asosda dars rejasini tuzish va umumta'lim fanlari o'qituvchisi bilan maslahatlashish;

i) ushbu reja asosida dars metodikasini ishlab chiqish hamda dars uchun zarur bo'lgan ta'lim vositalarini tayyorlash;

j) o'quvchilar bilimini nazoroat qilish va baholash metodlarini aniqlash;

k) mavzu bo'yicha uy vazifasi va darsdan tashqari ishlar mazmuni, hajmi hamda shaklini aniqlash;

l) dars uchun reja-konspekt tuzish va uni metodist hamda umumta'lim fanlari o'qituvchisiga tasdiqlatish.

Dars reja-konspektining taxminiy namunasi

Sana_____
Guruh_____
Fanning nomi_____
Darsga qatnashayotgan
o'quvchi-talabalar soni_____
Fan o'qituvchisining F.I.SH_____
Dars mavzusi_____
Dars maqsadi:
a) ta'limiy_____
b) tarbiyaviy_____
d) rivojlantiruvchi_____
Darsda qo'llaniladigan o'qitish
metodlari_____

Dars turi_____
Dars jihozi_____

Darsning borishi:

Tashkiliy qism_____.
O‘tilgan materiallarni so‘rash va baholash_____
Yangi mavzuning bayoni_____
O‘tilgan mavzuni mustahkamlash_____
Darsni xulosalash va uyga vazifa_____
O‘quvchi-talabalar bilim, malaka va ko‘nikmalarini baholash va uni e’lon qilish_____
Darsni yakunlash_____
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati_____

Dars tahlilining taxminiy namunasi quyidagicha bo‘ladi:

O‘qituvchi (F.I.SH.)_____
Mutaxassislik fani_____
Bosqich_____Guruh_____
Dars tahlilida qatnashuvchilar:
1_____
2_____
3_____
Darsni kuzatish maqsadi_____

I. Darsning tarbiyaviy ahamiyati

1. O‘quv materialning g‘oyaviy yo‘nalishi.
2. Mamlakat miqyosidagi iqtisodiy va siyosiy muammolarning hal qilinishidagi ahamiyati.
3. Barkamol avdod tarbiyasi vazifalarini bajarilishi.
4. Mamlaktimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va siyosiy islohotlarni yoritilishi va h.k.

II. Darsning ilmiyligi

– o‘rganilayotgan yangi materialning ilmiy asoslanganligi;

– fanning oxirgi yutuqlaridan foydalanish darajasi.

III. Darsning metodik jihatdan maqsadga muvofiqligi:

• dars mavzusining taqvimiy rejaga mosligi; darsning umummetodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi;

• o‘quvchilar bilimini nazorat qilish va tekshirishda qo‘llanilgan usullar va ularning samaradordigi;

• o‘quvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalarini baholashda qo‘llanilgan mezonlar va baholashning obyektivlik darajasi;

• darsni tashkil etishda foydalanilgan o‘qitish metodlari va ularning maqsadga muvofiqligi;

• o‘qituvchining darsga tayyorgarligi, o‘rganilayotgan nazariy materialning yetarliligi, izchilligi va uning tushunarliligi;

• tayanch tushunchalarning ajratilganligi;

• ko‘zlangan maqsadga erishishganligi;

• dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanganligi;

• yangi mavzuni o‘tilgan materiallar bilan bog‘lagan holda bayon qilishga erishganligi;

• mavzuning boshqa fanlar bilan bog‘lagan holda bayon qilishga erishganligi;

• o‘quvchilar faolligini oshirish (muammoli vaziyatlardan chiqish, o‘quv jarayonini faollashtirish)ga erishganligi;

• o‘quvchilarning mustaqil ishlashlarini tashkil etilishi va uning samaradorligi;

• o‘qitishning tabaqalashtirish, differensiallashtirish usullari va ularning samaradorlik darajasi;

• yangi o'rganilgan o'quv materiallarini mustahkamlashda qo'llanilgan metodlar, ularning maqsadga muvofiqligi;

• uy vazifasi, uning hajmi, turi, tavsiya qilingan adabiyotlar, uy vazifasi bo'yicha berilgan ko'rsatmalar va h.k.

IV. Darsning boshqa sifat tavsifi

• O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, dunyoqarashi, pedagogik mahorati, madaniyati.

• O'quvchilar intizomi, dars xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi.

V. Umumlashtirish va xulosa

Yutuqlari	Kamchiliklari

Mulohazalar

Tahlil qiluvchi:

Sana:

Izoh: Dars tahlili yuzasidan albatta qaror yoziladi. Bu qarorda har bir so'zga chiqqan shaxsning fikrlari to'liq aniq va tushunarli qilib yozilishi zarur.

Bir soatlik dars tahlili qarorining taxminiy namunasi_____(O'Y nomi) _____ Fakultetining _____ bosqich talabasi _____ ning_____shahar _____tumanidagi _____ Akademik litseyda "Matematika o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha _____ dan _____ gacha davrda o'tgan bitiruv malakaviy amaliyotda _____ akademik guruhda "Algebra va analiz asoslari" fanidan o'tgan bir soatlik darsi tahlilining

Qarori

Dars mavzusi_____
(mavzu nomi)
Qatnashuvchilar: 1. 2._____ 3. _____

Dars o'tgan amaliyotchi-talaba so'zi:
Darsni kuzatgan amaliyotchi-talaba so'zi:
Matematika o'qituvchisining so'zi:
Metodist so'zi:
Qaror yozuvchi
amaliyotchi-talaba: (F.I.SH.) (Imzo)

(**Izoh:** dars tahlili qarorida nechta kishi qatnashgan bo'lsa, har birining fikr va mulohazalari to'liq holda alohida-alohida qayd etiladi)

3.4. Amaliyotchi-talaba tomonidan amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar va uni tashkil etish

3.4.1. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar. Ularni loyihalash va rejalashtirish

Tarbiyaviy tadbirlar – turli xil moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarining yagona majmuasiga bo'ysundirilgan, bir-biri bilan o'zaro hamkorlik qiluvchi, o'zida butun ta'limni ko'zda tutuvchi tarbiyaviy ta'sir majmuidir.

Tarbiyaviy ish yo'nalishining asosini tarbiyaviy tadbirlar tashkil etadi. Mazkur tarbiyaviy tadbirlar maqsadni oydinlashtirish, loyihalashtirish, amalga oshirish, nazorat va tahlil qilish kabi ish harakatlari ketma-ketligidan iborat quyidagi texnologik chizmaga asoslanishni talab etadi:



1-rasm. Tarbiyaviy tadbirlarni texnologiyalashtirish bosqichlari

1-rasmdan ko'rinadiki, tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish mazkur jarayonni loyihalashdan boshlanib, talabalarda tarkib toptirilishi lozim bo'lgan qiziqish, ehtiyoj va motivlarni aniqlab olishdan boshlanadi, ya'ni talabalarda tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etishga ichki kuch va imkoniyatlarini tarkib toptirishni taqozo etadi.

Motivatsiya – motivlarning harakatlanish jarayoni, insonni asosiy faoliyatga undovchi motivlar yig'indisi. "Motiv" esa fransuzchadan tarjima qilinganda, "undovchi kuch", "sabab" degan ma'noni bildiradi.[1]

[1] Xodjayev B.X. Umuta'lim maktabi o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishning didaktik asoslari (5-7 sinf tarix darslari misolida): Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. –T.: 2009. – B.36.

Adabiyotlarda keltirilishicha motiv tushunchasi tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Masalan, A.Maslou motivni ehtiyoj bilan bog'lasa, S.L.Rubinshteyn motivni mazkur ehtiyojning his qilinishi va qondirilishi, deb hisoblaydi. A.N.Leontev motivni ehtiyojlarni qanoatlantirishga inson faoliyatini yo'naltiradigan va uni qo'zg'atadigan obyektivlik deb hisoblaydi. L.I.Bojovichning fikricha, motiv nafaqat tashqi obyektiv omillar, balki tasavvurlar, g'oyalar, his-tuyg'ular, bir so'z bilan aytganda, ichki subyektiv omillar ko'rinishida ham bo'lishi mumkin.

A.A.Reanning ta'rificha, motiv deb shaxsni faoliyatning u yoki bu turiga ichki jihatdan undashga aytiladi. V.K.Vilyunas motivni qo'zg'alish va faoliyat uchun javob beradigan jarayonlar tizimi deb hisoblaydi.[1]

Sh.S.Shodmonovaning fikricha, olimlarning motivlarga bergan tasniflari turlicha bo'lib, ularning ayrimlari insonda vujudga keluvchi holatlarni, ya'ni insonni xatti-harakatga keltiruvchi holatlarni motiv deb atashsa, ayrimlari insonlarning maqsadi, qiziqishi, orzu-istagi, niyati, intilishi, manfaati, ehtiyoji va e'tiqodlarini motiv sifatida keltirishadi, yana boshqa birlari motivlarni jarayon sifatida talqin etishgan.[2]

Fanda ehtiyojlar inson faoliyatining faolligi sababi va manbai sifatida ko'rib chiqiladi. O'zining kelib chiqishi va rivojlanishiga ko'ra ular ikkita bosqichni bosib o'tishadi. Birinchi bosqichda ehtiyoj xuddi bir ichki, faoliyat uchun yopiq sharoit sifatida xarakterlanadi. Ushbu bosqichda qadriyat ehtiyojni qondirishga qodir-

[1] Haydarov F. O'quv faoliyati motivatsiyasi. –T.: "Fan", 2005. – B. 99.

[2] Shodmonova Sh.S. Talabalarda mustaqillik tafakkurlarini shakllantirish va rivojlantirish. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008. – B.105.

dir, ideal sifatida maydonga chiqadi, buni amalga oshirish esa berilgan ehtiyojning real dunyoni bilish uchun bilimlarni taqqoslashni nazarda tutadi, bu esa mana shu mavjud ehtiyojni qondirish uchun vositalarni tanlashga yordam beradi. Ikkinchi bosqichda ehtiyoj — real bir kuchdir, u insonning aniq bir faoliyatini boshqaradi. Bu yerda ehtiyoj bilan mazmun aniqlashtirilib olinadi, u esa aynan tashqi reallikdan kirib keladi.

Jahon psixologiyasi fanining nazariy mushohadalariga va o'zimizning shaxsiy ma'lumotlarimizga asoslanib, motivlarni quyidagi turkumlarga ajratib ko'rsatish mumkin:

I. Shaxsning ijtimoiy ehtiyojlari bilan uyg'unlashgan, ularning mohiyati mezoni orqali o'lchanuvchi motivlar:

1) dunyoqarashga taalluqli, aloqador bo'lgan g'oyaviy motivlar;

2) ichki va tashqi siyosatga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi, shaxsiy mavqeni ifodalovchi siyosiy motivlar:

3) jamiyatning axloqiy normalari, prinsiplari, turmush tarzi, etnopsixologik xususiyatlariga asoslanuvchi axloqiy motivlar;

4) borliq go'zalligiga nisbatan ehtiyojlarda aks etuvchi nafosat (estetik) motivlari.

II. Vujudga kelishi, shartlanganlik manbai bo'yicha umumiylikka ega bo'lgan, boshqaruv va boshqariluv xususiyatli motivlar:

1) keng qamrovli ijtimoiy motivlar (vatanparvarlik, fidoyilik, altruistik);

2) guruhiy, jamoaviy, hududiy, umumbashariy motivlar;

3) faoliyat tuzilishi, mohiyati va tuzimiga yo'naltirilgan protsessual motivlar;

4) faoliyat mahsulini baholashga, maqsadga erishuvga mo'ljallangan rag'batlantiruvchi, mukofot motivlari.

III. Faoliyat turlari mohiyatini o'zida aks ettiruvchi motivlar:

1) ijtimoiy-siyosiy voqeliklarni mujassamlashtiruvchi motivlar;

2) kasbiy tayyorgarlik va mahoratni o'zida namoyon etuvchi motivlar;

3) o'qishga, bilishga (kognitiv), ijodga (kreativ) oid motivlar.

IV. Paydo bo'lish xususiyati, muddati, muhlati, barqarorligi bilan umumiylikka ega bo'lgan motivlar:

1) doimiy, uzluksiz, longityud xususiyatli motivlar;

2) qisqa muddatli, bir lahzali, bir zumlik va soniyalik motivlar;

3) uzoq muddatli, vaqt taqchilligidan ozod, xotirjam xatti-harakatlarni talab etuvchi motivlar.

V. Vujudga kelishi, kechish sur'ati bioquvvat bilan o'lchanuvchi motivlar:

1) kuchli, qudratli, ta'sir doirasidagi shijoatli motivlar;

2) paydo bo'lishi, kechishi o'rta sur'atli motivlar;

3) yuzaga kelishi, kechishi zaif, bo'sh, kuchsiz, beqaror motivlar.

VI. Faoliyatda, muomalada va xatti-harakatda vujudga kelish xususiyati, xislati hamda sifatini aks ettiruvchi motivlar:

1) aniq, yaqqol voqea bo'luvchi real motivlar;

2) zarurat, yuksak talab va ehtiyojlarda ifodalanuvchi dolzarb motivlar;

3) imkoniyat (potensiya), zaxira (rezerv), yashirin (latent) xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi motivlar.

VII. Aks ettirish darajasi, sifati nuqtai nazardan iyerarxiya vujudga keltiruvchi motivlar:

1) biologik motivlar;

2) psixologik motivlar;

3) yuksak psixologik motivlar.

Tarbiyaviy tadbirning maqsadi – diagnostik, tarbiyaviy ish qayta ishlab chiqiladigan – takrorlanadigan bo'lishi uchun har bir maqsad erishiladigan bo'lishi lozim, ya'ni tarbiyaviy tadbir maqsadi shunday ifodalanishi lozimki, unga erishilgani haqida aynan bir xil hukm chiqarish mumkin bo'lsin. Tarbiyaviy tadbir natijasini aniqlash imkoniyatini beradigan vazifalar oydinlashtirilgan tarbiyaviy maqsadlar deyiladi. Oydinlashtirilgan maqsadlar talabaning kuzatish, o'lchash mumkin bo'lgan harakatlarini nazarda tutadi.

Maqsadni ko'zlash bosqichida tarbiyachining vazifasi – ijtimoiy vaziyatni baholash, o'zining tarbiyaviy faoliyatini asosiy maqsadga bo'ysundirish, tarbiyalanuvchilarning kelajakda muayyan tarbiyaviy ta'sirlarni qabul qilishga tayyorlik darajasiga tashxis qo'yishdan iboratdir.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda quyidagi metodik tavsiyalarga amal qilinishi lozim:

1. Tarbiyaviy tadbirning vazifalarini aniqlashtirish uning samaradorligini oshirishning zarur shartidir. Mazkur vazifalar mahorat bilan talqin etilgan va tarbiyalanuvchilarga yetkaziladigan bo'lishi kerak. Tarbiyaviy tadbir tashkilotchilari talabalarga o'z nuqtai nazarlarini majburan o'tkazmasliklari kerak: tarbiyalanuvchilarni zarur qarorlar qabul qilishga, go'yo o'z qarorlari sifatida qabul qilinadigandek ishontirish zarur.

2. Har qanday tarbiyaviy tadbir faol va majmuaviy yo'nalish asosida loyihalashtiriladi. Birinchi

yo‘nalish talabalarning jonli, ijodiy, qiziquvchan faoliyatini talab etadi va zarurat tug‘ilganda, tirishqoqlikni, faol harakat qilishni talab etuvchi vaziyatlarni tanlashga yo‘naltiradi. Ikkinchisi esa, murabbiy-tarbiyachidan har bir vazifani har tomonlama samarali amalga oshirishni talab etadi.

3. Tarbiyaviy tadbirlar jarayonida hal qilinishi lozim bo‘lgan barcha vazifalar kutiladigan natijalar bilan mos bo‘lishi lozim. Tarbiyaviy tadbir vazifalari oydinlashtirilgan tarbiyaviy maqsad asosida belgilab olinadi.

4. Tarbiyaviy ishlar mazmunini uning vazifalari va amalga oshirish sharoitlari bilan bog‘liq holda belgilab olish nihoyatda muhimdir.

Material tanlanayotganda, u tarbiyalanuvchilarning tarbiyasiga ijobiy ta’sir etish tomonlariga e’tiborni qaratish lozim. Tarbiyaviy ishlarda turli xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun murabbiy-tarbiyachi talabalarning nuqtai nazarlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda ularni rivojlantirishi, shuningdek, ularga tayanib ish olib borishi kerak.

5. Maqsadga muvofiq shakl, metod va vositalar tarbiyaviy ishlarning har bir bosqichi uchun alohida loyihalanadi. Bunda texnologik komponentlarning imkon qadar faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik tamoyillarini ta’minlashga xizmat qilishi nazarda tutilishi lozim.

6. Tarbiyaviy tadbirlarni tayyorlashda tashkillashtirishning yuqori darajadagi aniqligiga erishishga harakat qilish lozim. Har qanday tarbiyaviy tadbir tarbiyalanuvchilar uchun “tashkilotchilik maktabi”ga aylanishi kerak. Tayyorgarlik tashabbuskorlik, talabchanlik, kirishimlilik,majburiyatlarni taqsimlash mahorati, vaziyatlarni tezda baholash kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

7. Tarbiyaviy tadbirlar nusxa ko'chirishni yoqtirmaydi. O'zgaruvchanlik va harakat doirasining kengligi tarbiyaviy tadbirlarning farqlovchi belgilaridir. Guruhlarning, ayrim talabalarning bir-biriga jipsligidan keng foydalanishga intilish yaxshi natija beradi. Tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash chog'ida, bir guruhda muvafaqqiyat keltirgan tajriba ikkinchisida aynan shunday natijani bermasligi mumkinligini esda tutish kerak.

8. Tarbiyaviy tadbirlar turli-tuman bo'lishi kerak. Talabalar yorqin ishlarni uzoq eslab yuradilar, shu bois bunday tadbirlarni takrorlash maqsadga muvofiq emas, chunki u ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlarni har doim yangisini topish qiyin, ammo ularni amalga oshirish texnologiyasini qayta ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

9. Tarbiyaviy tadbirlar emotsionallik, yuqori jo'shqinlik asosida loyihalashtirilishi lozim. Ma'lumki, hayajonga tushgan kishi nihoyatda ta'sirchan bo'ladi. Har bir tarbiyaviy tadbirda talabalarning hayotiga yaqin, hamohang bo'lgan jihatlarni topish va unda ijobiy xislatlarni rivojlantirish,barqaror hayotiy e'tiqodni qaror toptirish, olam manzarasini va haqiqatni anglashga yordam beradigan qilib yetkazish kerak.

Maqsad, mazmun, shakl kategoriyalari tarbiya jarayonining mohiyatini (u nimaga qaratilgan, nimani to'ldiradi, nimaga yo'naltirilgan, qanday shaklda tugallanadi) ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda qanday qilib tarbiyalash masalasi bilan aloqador yana bir muhim kategoriya ham mavjud. Bu tarbiya metodi tushunchasidir.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» — yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li. Ta'lim muassasasi

amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga hamma murabbiy-tarbiyachining kuchi yetmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir murabbiy-tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish tarbiya usullari deb ataladi. Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo'yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o'zining tarbiyalanuvchilari bilan yo'l ochadigan o'rganilmagan so'qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda astasekin usullar keng ustunli yo'llar – metodlarga aylanishi mumkin. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to'g'ri qo'llay olishni egallash – bu pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim tavsiflardan biri. Tarbiya metod va usullarining aloqadorligi ana shunda.

Amaliyotda tarbiya vositalari tushunchasi ham ajratiladi. Usullar deganda ta'sir ko'rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig'indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko'rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko'rsatish – bu usullar. So'z (keng ma'noda) – tarbiya vositasi, biroq replika, taqqoslash – usullar. Bu bilan bog'liqlikda ba'zan tarbiya metodlari qo'yilgan maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan

usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek, metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo'ladi.

Tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash bosqichining yana bir muhim tarkibiy qismi – baholash va refleksiyadir. Pedagogik baholashning hozirda ikki turi qo'llaniladi: ochiq pedagogik baholash va yopiq tarzdagi pedagogik baholash. Shaxsning subyektiv mustaqilligini intensiv rivojlantirgani bois, tobora samarali hisoblangan yopiq tarzdagi pedagogik baholash alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy tarbiya amaliyotida quyidagi tarzda ifodalanishi mumkin bo'lgan yopiq tarzdagi pedagogik baholash tobora katta ahamiyat kasb etib bormoqda:

– "Men – xabar", hayotiy hodisa bilan bog'liq o'z holati va kechinmalarini ovoz chiqarib ma'lum qilish (masalan: "Yoshi kattalar yoki mansabdorlar mening yonimda kichiklarga qo'pol gapirsa, men doim o'zimni noqulay his qilaman";

– "Sen – xabar", talaba biror ish sodir qilgan vaziyatda uning taxmin qilingan holatini ovoz chiqarib aytish (masalan: "Sen juda xafa bo'lganing va o'zingni nazorat qila olmaganinig uchun shunday qilgan, endi afsuslanayotgan bo'lsang kerak" yoki "Bajarmadingmi, demak bajarishing kerak!");

– baholash vakolatini talaba zimmasiga yuklash (masalan: «Sen nima deysan? O'z xatti-harakatingni qanday baholaysan?");

– kechiktirilgan baho ("Hammasini keyinroq muhokama qilamiz") va boshqalar.

Refleksiya – faoliyat natijalarining shaxsning o'zi tomonidan baholanishi: "Menga berilgan vazifani yaxshi bajardimmi?", "Tadbirda ishtirok etish jarayonida nimalarni his qildim?", "O'zimni qay

tarzda namoyon etdim?", "Tadbirdan qoniqish hosil qildimmi?".

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish bosqichi maqsadni ko'zlash bosqichidan keyin boshlanadi va undan faqat nazariy jihatdan farqlanadi, ammo amaliy jihatdan bu ajralmas jarayondir. Bu bosqichda tarbiyachilar oldida: tarbiyalanuvchilar bilan birga faoliyat yo'nalishining barcha qismlarini aniqlash, ishtirokchilar orasida majburiyatlarni taqsimlash, ularni qanday qilib bajarish lozimligini ko'rsatish kabi muhim vazifalar ham turadi.

Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda talabalarning tayyorgarlik darajasiga tayanish, ularning yosh va shaxsiy xususiyatlarini imkon darajasida kengroq qamrash lozim, chunki, tarbiyaviy tadbirning favqulodda murakkabligi murabbiy-tarbiyachi maqsadining talabalar tomonidan anglab yetilmasligiga, tadbirning nega va nima uchun tashkil etilganligi haqidagi noaniq tasavvur esa, tarbiyaviy tadbirni quruq rasmiyatchilikka aylantiradi. Keyingi tadbirga qiziqtirish yengil kechmaydi.

2. Tarbiyaviy tadbir – jamoatchilik ishi. Murabbiy-tarbiyachi talabalarning tadbir ishlanmasini tuzishning nihoyatda mas'uliyatli ish ekanligi, talaba amalga oshirayotgan har bir bosqichning boshqa bosqichlar bilan albatta bog'liqligi va bir-birini taqozo etishini his etishiga imkoniyat yaratishi lozim.

3. Murabbiy-tarbiyachi rejalashtirishning tarmoqli metodikasi, ko'rgazmali, oson o'qiladigan va tushunarli chizma rejalar tuzish metodikalari bilan tanish bo'lishi lozim. Talabalar bilan ularni o'rganish hamda tarbiyaviy tadbirni rejalashtirishda tarmoqli chizmani qo'llash maqsadga muvofiq.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishning asosiy qoidalari:

– bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarning maqsadini aniq belgilash, harakatni boshidan oxirigacha yaxlit tasavvur qilish (nimaga erishish kerak?);

– tarbiyaviy tadbir ishtirokchilari uchun aniq vazifalarni belgilash (qanday harakatlar vositasida erishish mumkin?);

– kutilayotgan ish uchun barcha zaruriy narsalarni tayyorlash (nimalar yordamida erishish mumkin?);

– natijalarni aniqlash uchun muayyan mezonlarni belgilash (erishilgan miqdor qancha?);

– javobgarlik, vazifani bajarishga mas’ul va hisobot vaqtini taqsimlash (maqsadga erishilganlikni nima bilan rag‘batlantirish mumkin?);

– tashkiliy tizimni uyushtirish vositasi sifatida ijrochilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish (qanday qilib erishish mumkin?).

3.4.2. Malakaviy amaliyot jarayonida amaliyotchi-talaba tomonidan amalga oshirilishi talab etiladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar

Bular quyidagilardan iborat :

• O‘ziga biriktirilgan akademik guruh murabbiyining ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejasi bilan tanishib chiqish va shu asosida o‘zi ishchi rejani tuzishi;

• o‘ziga biriktirilgan akademik guruh o‘quvchilari bilan tanishib chiqish va malakaviy amaliyot davrida guruh yig‘ilishlari, tarbiyaviy soatlarni o‘tkazish, ular bilan hamkorlikda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish;

• akademik guruh o‘quvchilarining ota-onalari bilan suhbatlar uyushtirish;

• to'garaklar faoliyatini o'rganish va matematika fani bo'yicha to'garak mashg'ulotlarini o'tkazish;

• "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatini o'rganish va uning ishlarida ishtirok etish;

• malakaviy amaliyot yakunida barcha amaliyotchilar bilan hamkorlikda ta'lim muassasasi miqyosida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbir ssenariysini ishlab chiqish va uni o'tkazish va h.k.

3.4.3. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasini tuzishda amaliyotchi-talabalarning quyidagilarga amal qilishi talab etiladi:

1) guruhning ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasi bilan yaqindan tanishib chiqish;

2) rejada belgilangan tadbirlarning guruh o'quvchilarining yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlariga mosligini tahlil qilish;

3) rejaga kiritilgan tadbirlarning tarbiyaviy ahamiyati, tadbirlar o'rtasidagi o'zaro izchillik, aloqadorlik mavjudligini baholashga urinib ko'rish;

4) guruh jamoasiga xos xususiyatlarni aniqlash;

5) o'quvchilarining qiziqish va ehtiyojlarini o'rganish;

6) to'plagan ma'lumotlarni tahlil qilish;

7) tahlil asosida guruh jamoasining umumiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasini ishlab chiqish;

8) tuzilgan reja bo'yicha pedagogikadan mas'ul o'qituvchi va akademik guruh rahbari bilan fikr almashish.

3.4.4. O‘ziga biriktirilgan guruh bilan ishlash

Guruh bilan ishlashga doir topshiriqlar:

• guruh rahbarining ish tajribasini o‘rganish;

• guruh o‘quvchilarning tashxis xaritalari bilan tanishish;

• guruh o‘quvchilari bilan tanishish;

• guruh rahbari bilan guruh o‘quvchilari haqida suhbatlashish;

• guruh o‘quvchilarining qiziqishlari, xohish-istaklari, ehtiyojlarini o‘rganish;

• haftada bir marotaba guruh murabbiysi bilan birgalikda guruh yig‘ilishini o‘tkazish va bayonnoma asosida rasmiylashtirish;

• guruh jamoasi va alohida tanlangan bir nafar o‘quvchiga tavsifnoma yozish.

3.4.5. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish

• ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etish va ish tajribasini o‘rganish;

• ma’naviy-ma’rifiy tadbir ishlanmalarini yaratish (tadbir ssenariysi, 1 ta ekskursiya ishlanmasi, 1 ta videorolik, namuna ilovada keltirilgan);

• o‘ziga biriktirilgan guruh bilan birgalikda 2 ta ma’naviy-ma’rifiy tadbir (davra suhbati, uchrashuv, bayram kechasi, tok-shou va boshqalar) o‘tkazish.

3.4.6. Oila bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan tadbirlar

Oila bilan hamkorlikda ishlashga doir topshiriqlar:

• guruh o‘quvchilarining ota-onalari bilan suhbatlashish;

• guruh murabbiysi bilan birgalikda ota-onalar majlisini o'tkazish va bayonnomani rasmiylashtirish;

• ota-onalar bilan olib boriladigan individual va ommaviy ish shakllarini amaliyotda qo'llash.

3.4.7. Oila bilan hamkorlikni amalga oshirish qoidalari

Birinchi qoida. Maktab va guruh rahbarlarining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari asosida ota-onalarning obro'sini oshirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan harakat va tadbirlar turishi kerak. Ota-onalar bilan maslahatlashganda, hech vaqt "qilishingiz kerak", "majbursiz" kabi jumlalarni ishlatmaslik maqsadga muvofiq.

Ikkinchi qoida. Ota-onalarning tarbiyaviy ishlarni to'g'ri va samarali amalga oshirishiga ishonish, ularning pedagogik madaniyati darajasi va tarbiyalashdagi faolligini oshirish. Ko'pchilik ota-onalar psixologik jihatdan barcha talablarni qabul qilishga tayyor bo'lishsa ham, shunday ota-onalar borki, bolalarni tarbiyalashga mas'uliyat bilan yondashish va bu jarayonni chuqur tushunishga doir yetarlicha ma'lumotga va pedagogik tayyorgarlikka ega emas.

Uchinchi qoida. Pedagogik takt, oila hayotiga nojo'ya aralashishga yo'l qo'yilmasligi. Guruh (sinf) rahbari – rasmiy shaxs, biroq u o'z faoliyatida oila hayotining maxfiy tomonlariga, "boshqalar"dan sir saqlanadigan tomonlariga ham daxldor bo'ladi. Yaxshi guruh (sinf) rahbari oila uchun begona bo'lmaydi, ota-onalar yordam qidirganlarida ularning bu vaziyatdan chiqishlariga ishonadi, maslahat beradi.

To'rtinchi qoida. Oilaviy muammolarni hal qilishga doir qaror qabul qilishda ko'tarinki ruh va

kayfiyat, o‘quvchining ijobiy sifatlari, oila tarbiyasining kuchli tomonlari, shaxsning muvaffaqqiyatli rivojlanishiga tayanish.

3.4.8. O‘quvchilarning ota-onalari bilan olib boriladigan ish shakllari:

• pedagogik adabiyotlarda ta’lim muassasasining oila bilan olib boradigan ishlarining ikki asosiy shakli ajratib ko‘rsatiladi:

1. Jamoaviy. 2. Individual.

Jamoaviy shakllari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• pedagogik ma’ruzalar;

• guruhlar bo‘yicha olib boriladigan majburiy o‘qish;

• pedagogik ta’lim universitetlari;

• yakuniy yillik ilmiy-amaliy konferensiya;

• ochiq eshiklar kuni yoki ta’lim muassasasida ota-onalar kuni;

• guruh ota-onalar majlisi.

Individual shakllari quyidagilardan iborat:

• oilaga tashrif buyurish;

• pedagogik topshiriq;

• pedagogik maslahat.

Ota-onalar majlisini o‘tkazish metodikasi:

• majlis o‘tadigan joyni jihozlash;

• majlis o‘tkazish metodini tanlash: suhbat, tushuntirish;

• majlis mavzusi va maqsadini aniqlash.

3.4.9. To‘garaklar faoliyatini o‘rganish va mashg‘ulotlar o‘tkazish

To‘garaklar faoliyatini o‘rganish va mashg‘ulotlar o‘tkazishga doir topshiriqlar:

• to‘garak nizomi va ish faoliyati rejasini o‘rganish;

• to‘garak mashg‘uloti rejasidagi mashg‘ulotlardan biri uchun ishlanma tuzish;

• to‘garak rahbari bilan birga bitta mashg‘ulot (trening, intellektual o‘yin, breyn ring) o‘tkazish.

3.4.10. Tarbiyaviy soatlarni o‘tkazishga doir topshiriqlar:

• guruh murabbiyi ish rejasi asosida amaliyot davrida o‘tkaziladigan tarbiyaviy soatlar mavzularini aniqlash;

• tarbiyaviy soat ishlanmalarini yaratish (beshta);

• har haftada guruh murabbiyi bilan birgalikda va o‘zi besh marotaba mustaqil tarbiyaviy soat o‘tkazish.

3.5. Pedagogik amaliyotni yakunlash

Malakaviy amaliyot muddati tugagandan so‘ng amalayotchi-talabalar, amaliyot rahbari, metodistlar, umumta’lim fanlari o‘qituvchilari va amaliyot o‘tkazilgan ta’lim muassasasi jamoasining bu davrdagi faoliyatiga yakun yasaladi. Amaliyot yakunida mazkur jarayonda erishilgan yutuqlar va yo‘l qo‘yilgan xato-kamchiliklar chuqur tahlil qilinadi va tegishli xulosalar chiqariladi va amaliyotchi-talabalar faoliyatini baholash talab etiladi. Buni quyida keltiriladigan qoidalarga asoslangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Har bir amaliyotchi-talabaning amaliyot jarayonida olib borgan faoliyatidagi ishlarining hajmi va sifatiga qarab baholanadi.

2. Amaliyot jarayonida amaliyotchi-talabaning ta'lim-tarbiya faoliyati har kuni metodistlar, umumta'lim fanlari o'qituvchilari, amaliyotchi-talabalar va ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan kuzatib boriladi va shu asosda doimiy ravishda tekshirib, natijalar hisobga olib boriladi.

3. Amaliyotchi-talabaning malakaviy amaliyot davridagi faoliyatini baholashda uning shaxsiy xususiyati, amaliyot o'tash joyidagi shart-sharoitlar hisobga olinadi.

4. Amaliyotchi-talabalarning akademik guruh murabbiysi sifatidagi ishlari, jumladan, ma'naviy-ma'rifiy mavzudagi tadbirlarni tayyorlash va uni o'tkazish jarayonida tashkilotchilik qobiliyatlari kuzatib boriladi va baholash jarayonida ular hisobga olinadi.

Malakaviy amaliyotni to'la yakunlash quyidagi ishlarni o'z ichiga oladi:

a) amaliyotchi-talabalar tomonidan pedagogik amaliyot to'g'risida hisobot tayyorlanadi va himoya qilinadi;

b) pedagogik amaliyot rahbari yozma hisobot tayyorlaydi va kafedraga hamda dekanatga topshiradi;

d) amaliyot yakuni u o'tkazilgan ta'lim muassasasida muhokama qilinadi va tegishli tavsiyanomalar ishlab chiqiladi;

e) fakultetda amaliyot yakuniga bag'ishlangan anjuman o'tkaziladi va unda amaliyot jarayonida erishilgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklar atroflicha tahlil qilinib, tegishli tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Talabalarning amaliyot jarayonidagi faoliyati reyting tizimi asosida baholanib, u quyidagi mezon asosida amalga oshiriladi:

Amaliyot bo'yicha maksimal reyting balli o'quv rejasida amaliyotga ajratilgan soatlar miqdori bilan belgilanadi.

Masalan, "Matematika o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishlarida Malakaviy amaliyot uchun:

– 3-kursda "O'quv amaliyoti" o'quv rejasiga binoan 4 hafta 22 soat;

– 4-kursda "Pedagogik amalityot" 11 hafta, har bir kichik guruh uchun 24 soatdan vaqt ajratilgan.

Malakaviy amaliyotga rahbarlik qilish uchun metodist va pedagog professor-o'qituvchilar tayinlanadi va umumiy rahbarlik metodist o'qituvchiga yuklatiladi. Ta'lim muassasalari tomonidan rahbarlik o'quv ishlari bo'yicha direktor muovuni zimmasiga yuklatiladi.

Talabalarni amaliyot bo'yicha o'zlashtirishini baholash pedagogik amaliyot jarayonida amaliyotchi-talabaning metodika va pedagogika bo'yicha bajargan ishlari, ularning mazmuni, xususiyatlaridan kelib chiqqan holda 100 ball bilan belgilanib, u quyidagicha taqsimlanadi.

Malakaviy amaliyot bo'yicha talabaning reyting kartasi

Nizomiy nomidagi TDPU "Fizika matematika" fakultetining 4-bosqich 405 guruh talabasi Muro dova Shahri Bonu

Reyting kartada ballar taqsimoti umumiy ballga nisbatan quyidagicha taqsimlanadi:

Malakaviy amaliyot bo'yicha maksimal ball 100 ball – 100% bo'lib, shundan, metodika bo'yicha maksimal ball: 60 ball – 60 %, pedagogika bo'yicha maksimal ball: 40 ball – 40 %.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Malakaviy (o'quv, pedagogik) amaliyot QAYDNOMASI № _____

Fizika-matematika fakulteti "Matematika o'qitish metodikasi" Ta'lim yo'nilishi _____ kurs, _____ - guruh

Mutaxassislik fan metodisti _____

Pedagogika fani o'qituvchisi _____

t/r	Talabaning F.I.SH.	Talaba shaxsiy kodi	Fevral		Mart		Aprel		O'qituvchi imzosi	
			Mutaxassislik	Pedagogika	Mutaxassislik	Pedagogika	Mutaxassislik	Pedagogika	metodist	pedagog
1.										
2.										
3.										
4.										
5.										
6.										

7.										
8.										
9.										
10.										
11.										
12.										

Jami talabalar soni_____ (85-100%) – _____

(70-85%) – _____
(55-70%) – _____
(54% va undan past) – _____
kelmagan _____

Fakultet dekani_____ _____
Imzo F.I.SH.

Kafedra mudiri _____ _____
Imzo F.I.SH.

1-ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING MALAKAVIY AMALIYOTI HAQIDA NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan bo‘lib, oliy ta’lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyotini o‘tkazish shakllari, tartibi va uslublarini belgilaydi.

2. Malakaviy amaliyot bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari fanlaridan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy va kasbiy faoliyat ko‘nikmalari, uquvlarini shakllantirish uchun o‘tkaziladigan o‘quv jarayonining bir qismi.

3. Bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari davlat ta’lim standartlarida (DTS) ko‘zda tutilgan malakaviy amaliyotlar (o‘quv-tanishuv, ishlab chiqarish, bitiruv malakaviy ishi oldi va boshqalar) ilg‘or korxona, muassasa va tashkilotlarda o‘tkaziladi. Oliy ta’lim muassasasi ta’lim yo‘nalishlari (mutaxassisliklari)ning o‘ziga xosligini inobatga olgan holda kadrlar buyurtmachilari talablariga binoan, Ilmiy kengash qaroriga muvofiq malakaviy amaliyotning boshqa turlari (masalan, dala amaliyoti, pedagogik amaliyot va boshqalar)ni kiritish huquqiga ega.

4. Har bir amaliyotning maqsadi, mazmuni va muddati ta’lim yo‘nalishi (mutaxassislik)ning DTS, o‘quv rejalari va amaliyot dasturlarida belgilanadi.

5. Malakaviy amaliyot dasturlari tegishli ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi)ning malakaviy talablari hamda korxona, muassasa, tashkilotlarning (bundan buyon — amaliyot obyektlari) tavsifini hisobga olgan holda oliy ta'lim muassasasi tomonidan ishlab chiqiladi va rektor tomonidan tasdiqlanadi.

II. Malakaviy amaliyotni tashkil etish va unga rahbarlik qilish

6. Talabalar malakaviy amaliyoti oliy ta'lim muassasalarining vazirlik, davlat qo'mitalari, idora, korxona, muassasa, tashkilot va boshqalar bilan tuzgan shartnomalari asosida tashkil qilinadi. Soha bo'yicha ilg'or korxonalar ro'yxati tegishli vazirlik va tashkilotlar tomonidan tavsiya etiladi.

7. Yuridik shaxslar bilan tuzilgan to'lov-shartnoma asosida o'qiydigan talabalar, agar amaliyot obyektida amaliyot dasturini bajarish uchun yetarli sharoitlar mavjud bo'lsa, malakaviy amaliyotni o'tishi uchun to'lov-shartnoma mablag'i o'tkazayotgan obyektga yuborilishi mumkin.

8. Malakaviy amaliyot joylari, talabalarning katta guruhlari o'tishini hisobga olib, oliy ta'lim muassasasi yaqinida joylashgan amaliyot obyektlaridan tanlanishi maqsadga muvofiq. Mazkur tayanch joyda talabalar malakaviy amaliyot o'tadigan korxona mavjud bo'lmasa, amaliyot obyektlari sifatida birinchi navbatda oliy ta'lim muassasasiga eng yaqin joylashgan korxona va tashkilotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

9. Oliy ta'lim muassasasi:

a) har yili dekabr oyida navbatdagi kalendar yili uchun sohaviy idoralik buyrug'i bilan tasdiqlangan

malakaviy amaliyot obyektlari bilan shartnomalar tuzadi. Malakaviy amaliyot boshlanishidan ikki oy oldin talabalar amaliyotini o'tkazish dasturi va kalendar jadvalini amaliyot obyektlari bilan kelishib oladi;

b) malakaviy amaliyot rahbari tajribali professor-o'qituvchilardan tayinlanadi;

d) fan, texnika va madaniyatning eng yangi yutuqlari, ishlab chiqarish iqtisodiyoti, uni ilmiy tashkil etish, boshqarish va shunga o'xshash dolzarb masalalar bo'yicha amaliyot obyektlari ma'muriyati bilan birgalikda mutaxassislarning ma'ruzalarini tashkil etadi;

e) talabalar va amaliyot obyektlarini amaliyot dasturlari bilan ta'minlaydi;

f) amaliyot obyektlarida talabalar malakaviy amaliyotini tashkil etish tartibi va o'tkazilishi hamda uning muddati va mazmuniga rioya qilinishini nazorat qiladi.

10. Oliy ta'lim muassasasi tomonidan tayinlangan amaliyot rahbari:

a) malakaviy amaliyot boshlanishidan oldin amaliyot obyektlariga boradi yoki ular bilan bog'lanib amaliyotga tayyorgarlik ishlarini tashkil etadi;

b) talabalar bilan tashkiliy tadbirlar (amaliyot dasturi bilan tanishtirish, amaliyot o'tish tartibini tushuntirish, xavfsizlik texnikasi haqida ko'rsatmalar berish va h.k.) o'tkazadi;

d) talabalarning amaliyot obyektlariga belgilangan muddatlarda yetib borishlarini nazorat qiladi;

e) amaliyot obyektlarida talabalarning mehnat va maishiy xizmat sharoitlarini me'yordagidek ta'minlanganligini nazorat qiladi;

f) talabalarning kafedra topshiriqlarida ko'zda tutilgan ilmiy-tadqiqot hamda ilmiy-uslubiy ishlariga rahbarlik qiladi;

g) talabalarning ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qiladi;

h) amaliyot yakunlari bo'yicha talabalar ilmiy anjumanlarini tayyorlashda va amaliyot natijalarini baholovchi komissiya ishida ishtirok etadi;

i) talabalarning amaliyot bo'yicha hisobotini ko'rib chiqadi, ularning amaliyot davridagi faoliyati haqida amaliyot obyektidan tayinlangan bevosita rahbar bilan birgalikda tavsiyanoma beradi. Talabalar amaliyotini tashkil etish va o'tkazish natijalari bo'yicha yozma hisobotni kafedra mudiriga taqdim etadi;

j) amaliyot bilan bog'liq barcha ishlarni amaliyot obyekti tomonidan biriktirilgan rahbar bilan birgalikda o'tkazadi.

11. Talabalar malakaviy amaliyotiga umumiy rahbarlik amaliyot obyekti rahbarining buyrug'i bilan amaliyot obyektidagi mas'ul xodimlarning biriga yuklatiladi. Sex, bo'lim, laboratoriya kabilarda talabalar malakaviy amaliyotiga bevosita rahbarlik amaliyot obyekti boshlig'ining buyrug'i bilan amaliyot obyekti tarkibiy bo'limining yuqori malakali mutaxassisi zimmasiga yuklanadi.

12. Shartnoma majburiyatlariga muvofiq amaliyot obyektlari:

a) talabalar amaliyotini amaliyot dasturi va mazkur Nizomga muvofiq tashkil qiladi va o'tkazadi;

b) dasturga muvofiq talabalarni malakaviy amaliyot o'tkazilishining samaradorligini oshiruvchi ish joylari bilan ta'minlaydi;

d) xo'jalik yurituvchi subyektlar (korxona va tashkilotlar), talabalar ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) bo'yicha bo'sh ish joylari mavjud bo'lganda, amaliyotchilarni vaqtinchalik ish haqi bilan lavozimlarga qabul qilish huquqiga egadirlar;

e) talabalarga mavjud adabiyotlar, texnik va boshqa hujjatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratib beradi;

f) kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi mavzularini tanlashda amaliy yordam ko'rsatadi;

g) hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha majburiy ko'rsatmalar beradi, zarur bo'lgan hollarda talabalarni mehnatning xavfsiz usullariga o'rgatadi va bu haqidagi hujjatlarni rasmiylashtiradi;

h) amaliyotchi-talabalarning mazkur amaliyot obyektida joriy qilingan ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishlarini ta'minlaydi va nazorat qiladi;

i) yaqin atrofda joylashgan boshqa turdosh korxona, muassasa va tashkilotlarga birgalikda tashriflar uyushtiradi;

j) malakaviy amaliyot o'tish davrida talabalarni mazkur amaliyot obyektining tegishli ishchilari uchun joriy qilingan shaxsiy himoya vositalari va maxsus ovqat, poyabzal, himoya kiyimlari bilan ta'minlaydi;

k) shartnoma asosida talabalarni yashashi uchun qulay sharoitlar bo'lgan talabalar turar joyi bilan ta'minlaydi va zarur bo'lganda ularni joylashtirish uchun turar joylarni ijaraga oladi;

l) zarur hollarda, ichki mehnat intizomini buzgan amaliyotchi-talabalarga nisbatan tegishli choralar ko'rish haqida oliy ta'lim muassasasi rektoriga tavsiyalar beradi;

m) malakaviy amaliyot o'tayotgan talabalar baxtsiz hodisaga uchragan holda to'la javobgarlikni zimmasiga oladi;

n) talabalarning mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan va amaliyot dasturida ko'zda tutilmagan lavozimlarda ishlashlariga yo'l qo'ymaydi.

13. Talaba malakaviy amaliyot o‘tish davrida:

a) amaliyot dasturida ko‘zda tutilgan topshiriqlarni to‘liq bajarishi;

b) amaliyot obyektining ichki mehnat tartib-qoidalariga bo‘ysunishi;

d) mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalarini o‘rganishi va qat’iy rioya qilishi;

e) bajarilgan ish va uning natijalari uchun shu korxona ishchilari qatori javobgarlikni olishi;

f) kundalik daftar yuritishi, dasturda belgilangan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishi;

g) malakaviy amaliyot dasturiga muvofiq yozma hisobot tayyorlashi va topshirishi lozim.

III. Malakaviy amaliyot natijalarini yakunlash

14. Malakaviy amaliyot yakunida talaba yozma ravishda o‘rnatilgan tartibda hisobot tayyorlaydi va uni amaliyot obyektidagi bevosita rahbar imzolagan kundalik daftar bilan birga oliy ta’lim muassasasidan tayinlangan rahbarga topshiradi.

15. Malakaviy amaliyot yakunida talaba o‘z hisobotini oliy ta’lim muassasasi tomonidan tayinlangan komissiya oldida himoya qiladi. Komissiya tarkibiga oliy ta’lim muassasasi tomonidan biriktirilgan rahbar ham kiritiladi.

16. Amaliyot bo‘yicha talaba erishgan natijalar amaldagi reyting tizimi asosida baholanadi. Amaliyot natijasi talabani kursdan-kursga o‘tkazish va unga stipendiya belgilashda hisobga olinadi.

17. Malakaviy amaliyot dasturini bajarmagan va hisoboti qoniqarsiz baholangan talabalar akademik qarzdor hisoblanadi.

18. Uzrsiz sabablarga ko‘ra amaliyotga qatnashmagan talabalar uchun amaliyot qayta o‘tkazilmaydi. Uzrli sabablar bilan malakaviy amaliyotni o‘ta olmagan talabalar oliy ta’lim muassasasi rektori qarori bilan ta’til vaqtida o‘z hisobidan amaliyotni qayta o‘tishi mumkin.

19. Malakaviy amaliyot natijalari oliy ta’lim muassasasining ilmiy-uslubiy anjumani va amaliyot obyektining ishlab chiqarish kengashida muhokama qilinadi. Oliy ta’lim muassasasi yoki fakultet ilmiy kengashida amaliyot natijalariga yakun yasaladi.

IV. Moddiy ta’minot

20. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar (korxona va tashkilotlar) malakaviy amaliyot obyekti xodimlariga talabalar guruhiga rahbarlik qilgani uchun oylik maoshi to‘lash (asosiy ish joyining o‘rtacha ish haqining foizi hisobidan) huquqiga ega. Pedagogik amaliyotga rahbarlik qilgan maktab yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasi o‘qituvchisi, rahbarlikni uning yillik ish rejasida (bir yildagi 1540 soat (maktablarda 1548 soat) miqdordagi ish vaqtining jamlangan hisobidan kelib chiqib) tashkiliy pedagogik va ma’naviy-ma’rifiy tusdagi asosiy tadbirlarni bajarish uchun ajratilgan ish vaqti sarfi doirasida amalga oshiradi.

21. Talaba malakaviy amaliyot davrida amaliyot o‘tish joyidan ish haqi olish-olmasligidan qat’i nazar, uning umumiy qoidalar asosida stipendiya olish huquqi saqlanib qoladi.

22. Oliy ta’lim muassasalarining kunduzgi bo‘limida o‘qiyotgan talabalar malakaviy yoki o‘quv ishlab chiqarish amaliyotiga temir yo‘l transporti bi-

lan yo‘naltirilganda, ularning amaliyot o‘tash joyiga borish va qaytish xarajatlari oliy ta’lim muassasasi tomonidan qoplanadi. Talabalarning malakaviy va o‘quv ishlab chiqarish amaliyotini o‘tash joyiga borish-kelishda shahar, shaharlararo va mahalliy transportlardan foydalanilganda, transport xarajatlari (oliy ta’lim muassasasi va amaliyot o‘tash joyi orasidagi masofadan qat’i nazar) talabaning o‘z hisobidan qoplanadi.

23. Malakaviy amaliyotni o‘tish davrida talabalar boshqa korxonalarga tashriflarini o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar oliy ta’lim muassasalarining amaliyotini o‘tkazish uchun xarajatlar ro‘yxatida ko‘zda tutilgan mablag‘lar hisobidan qoplanadi.

24. Tasarrufida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirlik, tashkilot va idoralar, mazkur Nizom asosida o‘z tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalarining talabalari uchun malakaviy amaliyot o‘tish bo‘yicha yo‘riqnoma (uslubiy qo‘llanma)ni ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar.

V. Yakuniy qoidalar

25. Ushbu Nizomdagi tartib va qoidalar mulkchilik shaklidan qat’i nazar barcha tashkilot va korxonalar hamda amaliyot obyektlarida bir xilda kuchga ega.

26. Malakaviy amaliyot bilan bog‘liq nizolar ushbu Nizom va amaldagi qonunchilik asosida hal qilinadi.

27. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” Davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, O‘zbekiston Res-

publikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Navoiy kon-metallurgiya kombinati, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Aloqa va axborotlashtirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan kelishilgan.

GLOSSARIY

AN'ANAVIY DARSLAR – darsni bir xil o'tish jarayoni. Har doimgi bir xil holat.

AKSEOLOGIYA –ijtimoiy subyektlar yaratgan pedagogik qadriyatlar yig'indisini ifodalab, insonni eng oliy qadriyat deb biladi va jamiyat rivojlanishining maqsadi deb hisoblaydi.

GURUHLI TA'LIM – bir o'qituvchi bir necha o'quvchini o'qitadigan ta'lim shakli. Guruhlar o'quvchilar soniga qarab: kichik (3-6 o'quvchi), o'rta (7-15 o'quvchi), katta (15 dan ortiq o'quvchi) guruhlarga ajratiladi. Shuningdek, har bir guruhdagi ta'lim oluvchilarning yoshiga, ta'lim yo'nalishiga va shu kabilarga qarab ham guruhlarga ajratiladi. Bu shaklni qo'llash jarayonida yakka ta'lim shakllari ham amalga oshiriladi.

DARS – ta'limni tashkil etish shakli bo'lib, belgilangan vaqt (45 daqiqa) davomida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsad asosida, hamkorlikdagi faoliyati ko'rinishi.

JAMOA – umumiy maqsad yo'lida shaxslarning o'zaro munosabatlari, tashkiliyligi va intilishlari bilan bir-biriga monand turg'un sotsial (ijtimoiy) guruh.

INNOVATIKA – pedagogik innovatika: pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirishning pirovardida uni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot.

INNOVATSIYA– yangilanishni, o'zgarishni amalga joriy etish jarayoni va faoliyati, yangilik kiritish.

Ilmiy texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqaruv va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalari va doiralarda qo‘llanishini aks ettiradi.

INTERFAOL MASHG‘ULOT – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘zaro faol ishtirok etadigan mashg‘ulot. Bunda jarayon o‘zaro hamkorlikda kechadi.

INTERFAOL USUL – bu ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi faol hamkorlikdagi ta’lim usuli bo‘lib, unda ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchining bir-birini to‘liq tushunishiga erishiladi.

«Inter» so‘zi lotincha bo‘lib, o‘zbek tilidagi «oraliq», «o‘rtasi», «o‘zaro» kabi ma’nolarni bildiradi. Shu sababli ham interfaol usullar ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi faollikka asoslangan ta’lim uslubiyati deb atash ham mumkin.

KASBIY BILIMDONLIK – pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi.

MALAKA – bu shaxs harakatining amalga oshirilishi va boshqarilishining avtomatlashgan shaklidir. Shaxsning malakalari shu bilan xarakterlanadiki, uning harakatlari oson va tez, go‘yo o‘z-o‘zidan bajarilayotganday bo‘ladi. Shu tufayli ham bir hajmdagi ishni malakali va malakasiz shaxs turli muddat va turli sifat bilan bajaradi. Shaxsning malakalari uning faoliyatining barcha sohalari uchun xosdir. Faoliyatning biror sohasi uchun hosil qilingan malaka shaxsning faqat shu sohadagi mehnatni osonlashtiribgina qolmasdan, faoliyatning boshqa sohalaridagi harakatning ham tezligi va samarali bo‘lishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

PEDAGOG – tarbiyachi, o‘qituvchi, dars beruvchi.

PEDAGOGIK INNOVATSIYA – bu bo‘lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo‘lib, u oldingi egallagan bilimlar asosida ijobiy pedagogik samaralarni beruvchi yangicha yondashuv texnologiyasini yaratish va joriy etishdan iboratdir. Bunda ta’limning maqsadi, mazmun-mohiyati, belgilarini, tamoyillarining innovatsion usullarini tanlash, to‘plash, qo‘llash usullarini va ulardan foydalanishga uslubiy tavsiyalar tizimini yaratish tushuniladi. Bular orqali bo‘lajak mutaxassislarda shakllanadigan xislatlarni hosil qilish jarayonini ifodalovchi ta’lim-tarbiya jarayonining sifat jihatlarini takomillashtirib, bu sohada yuqori samaradorlikka erishishni tushunish mumkin. Pedagogik innovatsiyalar keng qamrovli, ko‘p qirrali, murakkab va ijodiy tashkiliy-pedagogik faoliyat bo‘lib, ular yordamida ta’lim-tarbiya jarayonining istiqbolli va samarali metodikasini yaratish mumkin.

PEDAGOGIK JARAYON – ta’lim masalalari, uning taraqqiyotini kashf qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlari.

PEDAGOGIK MAHORAT – yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishi, pedagogik texnikani mukammal egallash, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi va kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko‘rinishi.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA – ta’lim oluvchining ichki imkoniyatlari va o‘qituvchining innovatsion tayyorgarligiga tayangan holda ishlab chiqilgan va ta’limiy maqsadga erishishni kafolatlovchi o‘quv-tarbiya jarayonining loyihasi.

PEDAGOGIK FAOLIYATGA YO‘NALGANLIK – 1) shaxsning “pedagogik kasbga qiziqishi va faoli-

yatning ushbu turi bilan shug'ullanishga bo'lgan ishtiyoqi" (N.V. Kuzmina); 2) bolalarga bo'lgan munosabat, pedagogik mehnatga ishtiyoq, pedagogik kuzatuvchanlik qobiliyati (V.A. Slastenin). Demak, shaxsning pedagogik faoliyatga yo'nalganligi uning dunyoqarashi, pedagogik kasbga qiziqishi, u bilan shug'ullanishga bo'lgan layoqati bilan belgilanadi.

PEDAGOGIK LOYIHALASH (PL) – yaratilayotgan modelni dastlabki va yakuniy ko'rinishda ishlab chiqish va uni amaliy qo'llash darajasiga yetkazishdan iborat. Pedagogik faoliyatda loyihalash obyektlari sifatida pedagogik jarayon, pedagogik vaziyat, pedagogik tizim bo'lishi mumkin.

PL quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

• Obyekt haqidagi ilmiy asoslangan tasavvurga maksimal yaqinlashtirish uchun uni nima qilish kerakligi haqida umumiy tasavvurlarni izlash. Loyihaviy model pedagogik faoliyatning yangilangan qismi qanday bo'lishi lozimligini, mazkur faoliyatni yaxshilashni ta'minlash omillari haqida bilimlarni o'zida mujassam etadi.

• Eskirgan samarasiz modellar o'rniga taqdim etiladigan yangiliklarni modellashtirish uchun qo'llanishi mumkin bo'lgan pedagogik xulosalar namunalarini izlash.

• Pedagogik tizimning yangilangan bir bo'lagining innovatsion modelini yasash.

• Yangilikni amaliyotga joriy etish algoritmini qurish.

RIVOJLANISH – miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish, o'sish.

• – berilgan fikrlar doirasidan chetga chiqadigan fikrlarning mavjudligi; mavzuda yangi o'lchovlarni ko'rish; muammolarni izlash va yechish; shuning-

dek, dalillangan yozuv yoki munozara shaklida ifodalanadigan fikrlar o'rtasidagi tafovut.

TARBIYALASH – keng ma'noda u yoki bu sifatlarning yoki ijtimoiy guruhlarning maqsadlariga muvofiq odamlarning yangi avlodlariga avvalgi avlodlarning ijtimoiy-tarixiy tajribasini uzatish vositasi bilan jamiyatning rivojlanishini ta'minlaydi.

Tarbiyalashning tor ma'nosi – ijtimoiy institutlar doirasida va ta'sirida ijtimoiy amaliyotning har bir doirasidagi hayotiy faoliyatiga, ijtimoiy vazifalarni va rollarni bajarishga tayyorlash maqsadida shaxsni ongli, maqsadga yo'naltirilgan, muntazam shakllantirish jarayoni. Tarbiyalash ijtimoiylashtirishning asosiy halqasi bo'lib, u o'qitish bilan uzviy ravishda bog'liqdir hamda ta'lim tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

TARBIYA – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro ommaviy va nazariy muloqotidir.

TA'LIM – bu ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayoni bo'lib, u kishining shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi.

Ta'limning boshlang'ich (dastlabki) vazifasi ta'lim oluvchini o'qitishdan iborat. Shuning bilan birga u oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarga ma'lumot berish vazifasini ham bajaradi.

TRENING – tahsil oluvchi faoliyatiga mo'ljallangan ta'lim shakli bo'lib, nazariy ma'lumotlarni amaliy mashqlar orqali o'zlashtirilishini ta'minlaydi. U ta'lim beruvchi tomonidan o'qitishni emas, balki tahsil oluvchi tomonidan mustaqil va faol o'rganishni ko'zda tutadi.

TEXNOLOGIYA – bu ma'lum bir muayyan maqsadga yoki maqsadlar tizimiga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar ketma-ketligidan iborat bo'lgan yaratuvchilik (paydo etish jarayoni) faoliyatiga aytiladi yoki boshqacha aytganda texnologiya deganda manbalardagi (obyektlardagi) sifat o'zgarishlarga olib keluvchi jarayonga aytiladi.

FAOL TA'LIM – ta'lim jarayonida tarbiya beruvchi va ta'lim oluvchilarning ongli va faol ishtiroki, mustaqilligi hamda ijodiy qobiliyatlarini ta'minlovchi tizimiy-pedagogik jarayondan iborat. FT sharoitida o'zlashtirilgan bilim va ish-harakat usullari mazmunan mukammal tizimli, mantiqan tugal va turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga yaroqli bo'ladi. Bunda asosan quyidagi ta'lim metodlari foydalaniladi: bahs-munozara, fikrlashga jalb qilish, doskada mustahkamlash yoki pinbort, ishbilarmonlik, rolli o'yinlar, aqliy hujum, kitob (manbalar) bilan ishlash, tanqidiy fikr, muloqot-nazorat darsi va h.k.

FAOL O'RGANISH – tadqiq qilish (ijod) va o'rganishga qiziqishni (intilishni) yuzaga chiqaruvchi faoliyat yondashuvi.

YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA – ta'lim maqsadlarini aniqlab, o'quv jarayoni rejasini tuzib, ularni joriy etish yordamida ta'lim samaradorligini oshiruvini ta'minlovchi o'quv jarayonining optimal boshqaruvini o'z ichiga olgan yagona tizimdir.

YPTni o'quv jarayoniga qo'llashning quyidagi afzalliklari bor:

• professor-o'qituvchi ham, talaba ham qulay vaziyatlardan foydalanib, tushuntirish va tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi;

• talabalarning bilim, ko'nikmalarni egallash samarasi oshadi;

• darsni yuqori saviyada sifatli olib borish uchun sharoit yaratiladi;

• o‘qitishning eng progressiv usullaridan foydalanishga imkoniyat yaratiladi;

• pedagog va talabalar hamkorligida nafaqat o‘zi uchun yangi bilimlar o‘zlashtiriladi, balki bunda talaba o‘zgacha kashfiyotlar qiladi. Bunday faoliyat talaba uchun alohida shaxsiy qadriyatga ega va shu sababli uning o‘rganish ishtiyoqini orttiradi;

• mavzu mazmunini to‘liq o‘zlashtirishga imkon yaratiladi.

O‘Z-O‘ZINI ANGLASH – insonning o‘zi haqidagi tasavvurlar - xulq-atvori, faoliyati va ehtiyojlarini anglashida namoyon bo‘ladi.

O‘QITISHNI INDIVIDUALLASHTIRISH – ta’lim mazmunini o‘quvchi shaxsi, uning individual xususiyatlariga moslash.

O‘QITISH VOSITALARI – ma’lum o‘qitish usulini muvaffaqiyatli amalga oshirmoq uchun zarur bo‘lgan yordamchi o‘quv materiallari – asbob, qurol, apparat va shu kabilardan foydalanishdir.

Dars jarayonida tabiiy yoki tasviriy ko‘rgazmali materiallar laboratoriya yoki namoyish qismi mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan qurol va asboblar, o‘quv, kino uskunalari, proyeksion fonar, mikroskop va boshqa apparatlar, shuningdek mavzuga oid boshqa o‘quv materialaridan keltirilgan dalillar (ma’lumotlar, isbotlar, ta’rif, qoida)ning ishlatilishidir.

HAMKORLIK – ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning o‘zaro muloqotiga asoslangan ijodiy faoliyat jarayoni.

HAMKORLIK PEDAGOGIKASI – ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning o‘zaro muloqotiga asos-

langan shaklda ta'lim berishga asoslangan tizim.

SHAXS – muayyan ijtimoiy guruh a'zosi bo'lgan, biror-bir faoliyat turi bilan mustaqil shug'ullana oladigan, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'la oladigan, o'ziga xos individual va psixologik xususiyat egasi bo'lgan inson.

SHAXSIY FAZILAT – shaxs tomonidan o'zining axloqiy–ruhiy va ishchanlik qobiliyatining ijtimoiy ahamiyatini, jamiyatdagi o'rnini anglay olish.

FANLARNI O‘QITISH JARAYONINI LOYIHALASHTIRISH

Pedagogik jarayonni loyihalash – bu pedagogning tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlarni nazarda tutgan holda ma’lum bir vaqt birligi ichida o‘quvchilarni maqsadga muvofiq holda rivojlantirishning kelajakdagi jarayoni va natijasi o‘rin oladigan kasbiy faoliyatining bir ko‘rinishidir. Bo‘lajak ta’lim jarayonining loyihasi loyihalashning mahsulidan iborat.

Har qanday loyihalash obyektining, bu pedagogik tizimni, pedagogik jarayonmi, pedagogik vaziyatmi, uning asosiy qismi – uning ishtirokchilarining faoliyati hisoblanadi. Shuning uchun, birinchi navbatda, o‘qituvchi va ta’lim oluvchining faoliyati loyihalashtiriladi.

Loyihalash jarayonida va u orqali pedagogik jarayon ishtirokchilarining rivojlanishini ta’minlaydigan pedagogik texnologiya ishlab chiqiladi.

Ta’lim – boshqariladigan jarayon bo‘lib, uning natijasi, ko‘p jihatdan, tayyorlangan didaktik loyihaga bog‘liq. Didaktik loyiha esa ta’lim texnologiyasining mahsulidir. O‘quvchilarning bilish faoliyatini didaktik loyihaga ko‘ra boshqarish ta’lim texnologiyasining pedagogik asosi sanaladi. Har qanday jarayonning boshlanishi va yakuni mavjud bo‘lganidek, didaktik loyihani amalga oshirishning ham kirish va chiqish nuqtalari bor. Ikki nuqta orasiga juda ko‘p nuqtalarni joylashtirish mumkin bo‘lganidek, didaktik loyihani amalga oshirish ibtidosi bilan intihosigacha bo‘lgan masofada ta’limning samarali metodlari, vositalari ko‘p topiladi. Demak, maqsad-

dan etalonga yetib kelguncha o'qituvchi va o'quvchi ongi juda ko'p hodisalar bilan uchrashadi. Ta'limga texnologik yondashish – bu ma'lumot va ta'lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi va o'quvchi maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o'qitish maqsadi, o'qish maqsadi) ta'limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta'limni loyihalash va amalga oshirish yo'llari bilan mo'ljaldagi etalonga erishishdir.

Bundan ta'lim jarayonining formulasi quyidagicha bo'lishini ko'rish mumkin:

DJ = M + Abf + Ab

Bu yerda: DJ – didaktik jarayon;

M – o'quvchilarning o'qish (ta'lim olish) motivatsiyasi;

Abf – bilish faoliyati algoritmi;

Ab – boshqarish algoritm.

Didaktik loyihalashtirishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Ta'lim loyihasini tayyorlash. Loyiha o'qituvchi yoki ekspert a'zolari tuza olish faoliyatining mahsuli bo'lib, qator umumiy xususiyatlarga ega. Loyiha asosida o'qituvchi va o'quvchilarning kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyati yotadi.

2. Ta'lim loyihasini amalga oshirish. Ta'lim loyihasi bevosita real ta'lim sharoitida amalga oshiriladi. Bu jarayonda quyidagi ishlarga alohida e'tibor qaratiladi: o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan o'quvchilarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil bajariladigan ishlarni, ularni bajarish tartibi, vaqtini e'lon qilish, mavzuni to'liq o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berish, o'zlashtirish me'yorlarini aytib berish.

DARSNING TURLARI VA ULARNING TUZILISHI

1. Dars turlari

An'anaviy darslar:	Noan'anaviy darslar:
– kirish darsi;	– seminar-dars;
– yangi bilim berish darsi;	– leksiya-dars;
– bilimlarni mustahkamlash darsi;	– konferensiya-dars;
– amaliy dars;	– panorama-dars;
– laboratoriya darsi;	– munozara-dars;
– takrorlash-umumlashtirish darsi;	– o'yin-dars.
– o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholash darsi;	
– aralash dars.	

2. Amaliy darslarning tuzilishi.

Tashkiliy qism.
Motivatsion bosqich.
Nazariy materiallarni mustahkamlash.
Amaliy ish topshiriqlarini bajarish.
O'quvchilar bilimini baholash.
Uy vazifasi.
Darsni yakunlash.

B.Blum taksonomiyasi bo'yicha o'quv maqsadlari toifalariga mos keluvchi fe'llar namunalari

№	O'quv maqsadlari	Fe'llar	
1.	Bilish	Qaytarib aytish	ifodalash
		Qayd qilish	farqlash
		Xabar berish	tanib olish
		Nomlamoq, atamoq	aytib berish
		Yozmoq	takrorlash
2.	Tushunish	Dalillar keltirmoq	o'tkazish, aylantirish
		Almashtirmoq	o'zgartirib berish
		Aniqlamoq, belgilamoq	surat bilan ko'rsatish
		Tushuntirmoq	izoh berish, ochib tashlash.
3.	Qo'llash	Tatbiq etish	aniqlash
		Hisoblab chiqarish	bajarish
		Namoyish etish	hisoblash
		Foydalanish, o'rganish.	amalga oshirish, yechish
4.	Analiz	Keltirib chiqarish	oldindan aytish
		Ajratib ko'rsatish	qismlarga ajratish
		Differensiyalash	taqsimlash
		Tasniflash	tekshirish

		Taklif etish	guruhlash
5.	Sintez	Kashf etish	tizimga solish, qo'shish,
		Umumiylashtirish	ulamoq
		Rejalashtirish	tuzish
		Ishlab chiqish	loyihalash
6.	Baholash	Diagnostikalash	baholash, tekshirish
		Isbotlash	nazorat qilish,
		Asoslash	taqqoslash, solishtirish.
		O'lchash	qiyoslash
		Ma'qullash	

Ushbu jadvalda ko'rsatilgan o'quv maqsadlari toifalari o'quv materialining o'zlashtirilsh darajasini belgilaydi. Masalan: ba'zi tayanch tushunchalarni (usul, tamoyil, ko'rsatkich, koeffitsiyent, atama, ta'rif, qonun, teorema) o'quvchi bilishi darajasida (materialni esda tutish) o'zlashtirish kifoya bo'lib, boshqarish, qo'llash – darajasida (o'quv materialini muayyan vaziyatda qo'llash malakasi), baholash – darajasida (o'quv materiali ahamiyatini muayyan maqsadlar uchun baholash, xulosalash malakasi) kabilar yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lishi talab etiladi.

Guruhni psixologik nuqtai nazardan o'rganishda sotsiometriya metodidan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi

1. O'quvchi-talaba haqida umumiy ma'lumot (I.SH.O., mutaxassisligi, yoshi, sog'lig'i, jismoniy rivojlanish holati, oilaviy sharoiti, ota-onasi va ularning ma'naviy-ijtimoiy-moddiy holati va h.k.).

2. O'quvchi-talabaning o'qishga bo'lgan munosabati (darsda o'zini tutishi. Uy vazifalarini bajarishi. O'qituvchi va tarbiyachilar, guruh o'quvchilari bilan o'zaro munosabati, fanlar bo'yicha o'zlashtirishi).

3. Aqliy rivojlanish darajasi (kuzatuvchanligi, topqirligi, xotirasi, o'quv materialini o'zlashtirishi, diqqati, nutqi va uning rivojlanishi).

4. Tafakkur va uning xususiyatlari (mustaqil fikrlashi, tafakkurning rivojlanishi, mantiqiy xulosalar chiqarishi).

5. Xarakteri (mas'uliyatni his qilishi, o'z ishiga vijdonan munosabatda bo'lishi, to'g'ri so'zligi, kamtarinligi va h.k.).

6. Temperamenti (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik)

7. Hissiyoti.

8. Qiziqishlari va qobiliyati.

9. Jamoada o'zini tutishi (o'z jamoasiga munosabati, tutgan o'rni, obro'si va h.k.).

10. Ongi (dunyoqarashi, jamiyatga, siyosatga, milliy masalalarga, dinga, iqtisodiy masalalarga munosabati, faolligi).

11. Xulosalar, takliflar va tavsiyalar.

Amaliyotchi-talaba: _____

Guruh rahbari: _____

7-ILOVA

Amaliyotchi-talaba uchun psixologik topshiriqlarni bajarishning taxminiy tuzilishi

2–3-hafta. Guruh jamoasi va guruh murabbiyi bilan tanishish (Guruhga oid hujjatlar bilan tanishish, o'quvchilarning dars va darsdan tashqari faoliyatini kuzatish).

4–6-hafta. O'quvchilarning o'zaro munosabatlarini kuzatish.

7–10-hafta. Sotsiometriya metodi yordamida guruh o'quvchilarini o'rganish.

11–hafta. Olingan natijalarni qayta ishlab chiqish.

Guruh uchun psixologik-pedagogik tavsifnoma tuzish quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Guruh, uning shakllanishi, tashkil etilgan vaqti, guruh murabbiyi ushbu guruh bilan qachondan beri shug'ullanishi.

2. Faoliyatlar mazmuni va xarakteri:

• o'zlashtirishi, o'quv ko'nikma, malakalar va ularning shakllanishi;

• guruhda tartib-intizomning holati, o'quvchilar odobi va axloqi (misollar asosida izohlab ko'rsating);

• guruh jamoasi va uning tuzilishi;

• guruh faollari va yetakchilari, ularning o'zlashtirish holati, guruh hayotida tutgan o'rni (ularga qisqacha tavsif bering);

• guruhda o'zaro munosabatlar, guruhdagi kichik guruhlar, ularning ichki tuzilishi, o'zaro munosabati;

• guruh murabbiyining jamoa ichki hayotida tutgan o'rni, obro'si va uning munosabati (misollar asosida izohlab ko'rsating).

3. Amaliyotchi-talabalar tomonidan guruhda o'quvchilar ijtimoiy faolligini oshirish yuzasidan amalga oshirilgan tadbirlar (misollar asosida izohlab ko'rsating).

8-ILOVA

Namuna

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

va_____o‘rtasida

2015–2019-yillarga mo‘ljallangan o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida

SHARTNOMA №_____

2014-yil “___”_____ Toshkent shahri

Mazkur shartnoma bir tarafdan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori Sh.S.Sharipov va ikkinchi tarafdan _____ _____ bilan quyidagilar to‘g‘risida tuziladi.

1. Shartnoma predmeti

1.1. 2015–2019-o‘quv yillari davomida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti_____fakulteti_____ kafedrasi bilan _____ o‘rtasida hamkorlik asosida sifatli kadrlar tayyorlashni amalga oshirish.

2. Umumiy qoidalar

2.1. Hamkorlikda _____ bakalavriat yo'nalish(lar)i va u (lar) ning negizidagi magistratura mutaxassisliklari uchun Davlat ta'lim standartlari, namunaviy o'quv rejalar va fan dasturlarini ishlab chiqish.

2.2 O'zaro kelishuv asosida _____ malakali yetakchi xodimlarni ta'lim jarayoniga jalb etish.

2.3 _____ bazasida talabalar malakaviy amaliyotini o'tkazishni tashkil etish.

2.4 _____ yetakchi mutaxassislarini talabalar malakaviy amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbar sifatida jalb qilish.

2.5 Hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, o'quv adabiyotlari yaratish; anjumanlar o'tkazish, sohadagi dolzarb muammolarga bag'ishlangan ilmiy maqolalar e'lon qilish.

2.6. Zarur hollarda _____ bazasida kafedralar filiallarini tashkil qilish.

2.7. Amaliyot obyektidagi malakali yetakchi mutaxassislarni ta'lim jarayoniga jalb etish.

2.8. Talabalarning ishlab chiqishga moslashib borishini ta'minlash.

3. Taraflarning huquq va majburiyatlari

3.1. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining huquq va majburiyatlari:

- yo'nalish va mutaxassisliklar uchun DTS, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish jarayoniga ___

_____ning yetakchi mutaxassislarini keng jalb etish;

– _____ ning yetakchi mutaxassislarini amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini olib borishga jalb etish;

– o'zaro kelishuv asosida _____ bazasida talabalar malakaviy amaliyotini o'tkazish bo'yicha reja ishlab chiqish;

– _____ _ mutaxassislari ishtirokida amaliyot dasturini ishlab chiqish;

– amaliyot o'tish uchun yuborilayotgan talabalarni tegishli me'yoriy hujjatlar va kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlash;

– zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish jarayoniga _____ _____ yetakchi mutaxassislarini jalb qilish;

– hammualliflikda tayyorlangan o'quv adabiyotlarini nashr etish;

– _____qoshida kafedralar filiallarini tashkil etish bilan bog'liq jarayonda faol ishtirok etish;

3.2. _____ning huquq va majburiyatlari:

– Davlat ta'lim standartlari, namunaviy o'quv rejalar va fan dasturlarini ishlab chiqish jarayonida faol ishtirok etish;

– tashkilot yetakchi mutaxassislari tomonidan ixtisoslik fanlaridan ma'ruzalar o'qish orqali ta'lim jarayonida ishtirok etishlari uchun sharoitlar yaratish;

– talabalar amaliyotini amaliyot dasturi va Nizomga muvofiq tashkil qilish va o'tkazish;

– dasturga muvofiq talabalar amaliyot o‘tkazishining samaradorligini ta’minlovchi ish joylari bilan ta’minlash (imkoniyat darajasida);

– talabalar ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bo‘sh ish joylari mavjudligida, amaliyotchilarni tegishli ish haqi bilan lavozimlarga qabul qilish (imkoniyat darajasida);

– amaliyotni o‘tishda oliy ta’lim muassasasi bilan kelishilgan oy-kunlik ish jadvaliga amal qilish;

– talabalarga mavjud adabiyotlar, texnik va boshqa hujjatlardan foydalanish imkoniyatni berish;

– kurs ishi va malakaviy bitiruv ishlari uchun mavzular tanlashda yordam ko‘rsatish;

– hayot faoliyati xavfsizligi bo‘yicha majburiy ko‘rsatmalar berish, zarur bo‘lgan hollarda talabalarni mehnatning xavfsiz usullariga o‘rgatish;

– amaliyotchi talabalarning mazkur amaliyot obyektida joriy qilingan ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishlarini ta’minlash va nazorat qilish;

– amaliyotchi talabalarga zamonaviy moddiy-texnika bazasidan foydalanish imkoniyatini yaratish;

– talabalarning amaliyot o‘tish vaqtida mazkur amaliyot obyektining tegishli ishchilari uchun joriy qilingan shaxsiy himoya vositalari va maxsus ovqat, poyabzal, himoya kiyimlari bilan ta’minlash;

– shartnoma asosida talabalar yashashi uchun qulay sharoitli yotoqxonalar bilan ta’minlash;

– amaliyot tugaganidan so‘ng, uning natijasi bo‘yicha har bir talabaning daftariga uning amaliyot o‘tash davomida erishgan yutuq va kamchiliklari ko‘rsatilgan holda amaliyot natijalarini baholashni amalga oshirish;

– ish o‘rganish amaliyoti tugagach, talabaning shaxsiy xislati, ishchanlik qobiliyati va kamchiliklari,

tanlagan kasbiga munosabati haqida _____ _____ tomonidan tavsifnomalar tuzib, imzolanadi.

4. Shartnoma muddati

Mazkur shartnoma 5 yil muddatga tuziladi. Agar taraflardan biri kelgusida mazkur shartnoma yuzasidan fikr-mulohaza bildirmasa, shartnoma keyingi muddatgacha o'z kuchini saqlab qoladi.

5. Maxsus qoidalar:

_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____

6. Shartnomaning yakuniy qoidalari:

6.1 Shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzilib, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

6.2. Shartnomaning amal qilish muddati 2019-yilgacha bo'lib, ikki tomonning roziligi bilan o'zgartirilishi yoki uzaytirilishi mumkin.

6.3. Shartnoma ikki tomonning roziligi bilan yoki bir tomon shartnoma shartlarini bajarmagan holda bekor qilinishi mumkin.

6.4. Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ikkala tomonning yozma shakldagi kelishuviga asosan kiritiladi.

6.5. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ularning ikkalasi ham bir xil huquqiy kuchga ega.

Taraflarning manzillari va rekvizitlari:

"Universitet"
Nizomiy nomidagi Toshkent
davlat pedagogika universiteti
100100, Toshkent shahri,
Yusuf Xos Hojib, 103
Rektor
Sh.S.Sharipov

"____" _____ 2015-y. **"____" _____ 2015-y.**

"Xush kelding Navro'zi olam" deb nomlangan bayram dasturi

Birinchi boshlovchi:
Yana bahor keldi, yana olamda.
Ajib bir go'zallik, ajib bir bayot.
Men seni qutlayman shu ulug' damda,
Aziz yelkadoshim, muzaffar hayot.
Ikkinchi boshlovchi:
Yangi kun baxtlarni yetaklab kelgin,
Oppoq orzulardan to'shay poyandoz,
Sen, tole quyoshim, porlagin, kulgin
Iqbolim, qanot yoz, aylagin parvoz.

Birinchi boshlovchi: Assalomu alaykum, muhtaram ustozlar, aziz mehmonlar-u qalbi ummon o'quvchi-yoshlar.

Ikkinchi boshlovchi: Shu kunlarda yurtimizning har bir jabhasida shodiyona, tantana. Bobolarimizdan, momolarimizdan meros bo'lib qolgan, o'zida milliy qadriyatlarimizni mujassamlashtirgan muborak ayyom Navro'zi olam eshik qoqib kirib kelmoqda.

Birinchi boshlovchi: Ana shu munosabat bilan bugun bizning akademik litseyimizda ham katta tantana. Bahor faslining ko'rki hisoblanmish Navro'zi olamni qarshi olmoqdamiz. Yangi kunni inson hamisha o'zgacha intiqlik bilan qarshi oladi. Navro'z bayrami esa sharq xalqlarida qadim-qadimdan yilning dastlabki kuni, yasharish, yangilanishning boshlanishi sifatida qadrlanib kelingan. Bu bejiz emas, albatta. Zotan, kun bilan tun teng kelgan ondan boshlab tabiat uyg'onadi, go'zallikka intiladi.

Ikkinchi boshlovchi: Demak, bu kun inson shuuri, ruhiyatida o‘zgarish yasaydi. U esa faqat ezgu tuyg‘ularni tarbiyalaydi.

Birinchi boshlovchi: Ana shunday go‘zal tuyg‘ularni qalbimizga jo qilib, bugungi Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan bayram dasturimizni ochib berish uchun so‘zni litseyimiz direktori _____ga beramiz. Marhamat!

Ikkinchi boshlovchi: Endigi so‘z navbatini _____ ga beramiz.

Birinchi boshlovchi: Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan bugungi tadbirimizda milliy sport bo‘yicha arqon tortish, qo‘l jangi, tosh ko‘tarish musobaqalarda o‘rin olgan va o‘g‘il bolalar o‘rtasida o‘tkazilgan mini futbol bo‘yicha musobaqalar natijalari e’lon qilinadi va g‘oliblar taqdirlanadi. Bundan tashqari, tayyorlab kelingan badiiy qismlar, raqslar va birbiridan qiziqarli bo‘lgan kuy va qo‘shiqlar o‘rin olgan.

Ikkinchi boshlovchi: Olamni yashnatib, xush kelding, Navro‘z,
Bahor-la qo‘l berib qo‘sh kelding, Navro‘z,
Sog‘inib kutganim har yilgidan ham,
Mehrga burkanib, jo‘sh kelding, Navro‘z!

Birinchi boshlovchi:
Bahorni bilmagan ellarni ko‘rdim,
Bir chechak kulmagan yerlarni ko‘rdim,
O‘zingni sog‘inib keladi Navro‘z,
Kaftinga ko‘z suray, dehqonim yurtim,
O‘zingdan o‘rgilay, bog‘bonim, yurtim!

Ikkinchi boshlovchi: Hurmatli ustozlar va o‘quvchiyoshlar bugun tadbirimizda litseyimizning iqtidorli o‘quvchilari o‘zlarining turli xil qiziqarli chiqishlarini namoyish etadilar Shoirlar yuragiga ilhom, hofiz-

lar ovoziga ovoz qo‘shayotgan bahor tarovati bugun hech kimni chetlab o‘tmaydi.

Birinchi boshlovchi: Hozir davramizga ana shunday sehrli ovoz sohiblaridan biri _____ guruh mehmoni _____
ni taklif etsak-da ular ijrosidagi ajoyib bir qo‘shiqni tinglasak.

Birinchi boshlovchi:

Bahor osmonida chaqnasa chaqin,
Ko‘ksingdan otilar olovli nafas.
Ey, sen chiroyli, muzaffar oqin,
Ko‘m-ko‘k ko‘zlaringga qilurman havas.

Navro‘z milliy qadriyatlarimizni o‘zida mujasamlashtirgan qadimiy bayramlarimizdandir. Qadimda bu bayramda momolarimiz xalq yaratgan turli xildagi qo‘shiq va laparlarni kuylab, bayramni ko‘tarinki ruhda nishonlaganlar. Hozir davramizga _____ guruh o‘quvchilarini taklif etsak-da, ular ijrosida xalq og‘zaki ijodi turkumidan bo‘lgan yallalardan bahramand bo‘lsak.

Ikkinchi boshlovchi:

Qadimdan ajdodlar qutlar bu kunni,
Mehnatga bel bog‘lab kutib olganlar.
Bebaho ne’matdek qadrlab uni,
Yil bo‘yi xush tuyg‘u bilan qolganlar.

Endigi navbatni litseyimizning _____
o‘quvchilarining

“Shov-shuv” jamoasiga bersak, ular ijrosida sahna ko‘rinishlarini tomosha qilamiz.

Birinchi boshlovchi:

Qirlarning to‘shida yog‘ayotgan qor,
Termulib qor kabi eriydi ko‘zim.
Hormay sog‘-omon keldingmi, bahor,
Keldingmi qadami qutlug‘ Navro‘zim!

Hozir davraga akademik litseyimizning_____ guruh o‘quvchisi _____ni taklif etamiz. Ular ijrosida “Bahor” deb nomlangan dilbar taronani birgalikda tinglaymiz.

Ikkinchi boshlovchi:

Hamma kunlarimiz Navro‘z bo‘lsin deb,
Quvonch hissi bilan mavjlanib yurak.
Hayotga beramiz Navro‘zona zeb,
Shu kunda kuylamoq, o‘ynamoq kerak.

Davraga litseyimizning _____ hamda _____guruh o‘quvchilarini taklif etamiz va ular ishtirokidagi go‘zal bir raqsdan bahramand bo‘lamiz.

Birinchi boshlovchi: Bizga ma’lumki, Navro‘z kunlari qadimdan milliy musobaqalar o‘tkazib kelingan. Ana shunday sport musobaqalarini o‘tkazish uchun Jismoniy tarbiya va sport kafedrasining o‘qituvchi-murabbiylariga navbatni besak, ular mard yigitlarimizni sinovdan o‘tkazib ko‘rsalar. Marhamat.

Ikkinchi boshlovchi: Yana davramizga litseyimizning faol guruhlaridan bo‘lgan _____ guruh o‘quvchilarini taklif qilamiz, ular tomonidan tayorlangan qiziqarli sahna ko‘rinishlarini birgalikda tomosha qilsak, marhamat!

Birinchi boshlovchi: Endi sahnaga _____ o‘quvchisi _____ni taklif etamiz / Ular “O‘rik gullaganda” deb nomlangan qo‘shiqni bizga ijro etib beradilar.

Birinchi boshlovchi:

Bahor! Sekin hayot unadi yerdan,
Yayrar go‘zallikni sog‘ingan dilim,
Dunyoni qutqargan buyuk sehrdan,
Uzayadi endi mening ham umrim.

Endi davramizga _____ o‘quvchisi _____ni takliflif

etib qolamiz. U bizga o'zlari yoqtirgan bir she'rini aytib beradilar.

Ha, Navro'zning oramizdagi mehr-oqibatni mustahkamlash, qishloqlarimizda obodonchilik ishlarining avj olishidagi ta'sirini hech bir me'zon bilan o'lchab bo'lmaydi.

Ikkinchi boshlovchi:

Qancha diyorlarda sayr etib yurdim,
Qancha manzillarda tuzdim oshiyon.
Va buyuk hikmatga oxir yuz burdim,
Siylagan joyida azizdir inson.

Hozir davramizga MMIBDO' _____ ni taklif etsak-da, ulardan bayram tabrigi va bayram dasturimizga nihoya yasab beruvchi so'zlarini eshitsak.

Birinchi boshlovchi: Shuning bilan bayram dasturimiz o'z nihoyasiga yetdi. Barchangizni bahoriy kayfiyat hech qachon tark etmasin. Yana bir bor Navro'zi olam muborak bo'lsin!!! Xayr salomat bo'ling.

10-ILOVA

"Quvnoqlar va zukkolar " nomli bellashuv ssenariysi

Musobaqaning uch guruh o'rtasida tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlovchi: Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar! Tengdoshlar, musobaqa ishtirokchilari! "Matematik bilimlar bayrami"ga xush kelibsiz! Umid qilamizki, bugungi bayramimiz barchangizda yaxshi taassurot qoldiradi!

Barchamizga yaxshi ma'lumki, insoniyat juda qadimdan matematik bilimlarni o'rganishga intilgan. Zero, insonlar o'rtasida tashkil etiladigan ijtimoiy munosabatlarning aksariyati oldi-sotti, mahsulotlarni o'zaro ayirboshlashga asoslangan. Insoniyat hayoti, tirikchiligi uchun muhim ahamiyatga ega ushbu holatlar negizi hisob-kitobga asoslangan bo'lib, u jamiyat a'zolaridan yetarli darajada matematik bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. Shu sababli bugungi sizlar hukmingizga havola etilayotgan "Quvnoqlar va zukkolar" deb nomlangan matematik kechaning asosiy maqsadi sizlarni matematikaga bo'lgan qiziqishlaringizni yanada oshirish va shu orqali mustaqili matematik bilimlarni egallashga yo'naltirishdan iboratdir.

Endi bellashuv adolatli, qiziqarli va sizlarga yanada manzur bo'lishiga erishish maqsadida unga bevosita rahbarlik qiluvchi hay'at a'zolari bilan tanishtirib o'tamiz:

Hay'at raisi: litsey direktori (yoki direktor o'rinbosari) _____

Hay'at a'zolari:

1. Akademik litseyning "Algebra" fani o'qituvchisi _____

2. Akademik litseyning "Algebra" fani o'qituvchisi

_____

3. Akademik litseyning "Algebra" fani o'qituvchisi

_____

4. Akademik litseyning "Algebra" fani o'qituvchisi

_____

Bellashuvimizda uchta guruh ishtirok etadi. Ushbu guruhlar bilan tanishing:

1-guruh: .....-guruh o'quvchilaridan iborat "Algoritm" jamoasi.

2-guruh: .....-guruh o'quvchilaridan iborat "Logarafm" jamoasi.

3-guruh: .....-guruh o'quvchilaridan iborat "Al-Xorazmiy" jamoasi.

Endi sizlarni bellashuv shartlari bilan tanishtirib chiqamiz:

Bellashuvimiz yettita shartdan iborat:

1-shart. Jamoalar a'zolari bilan tanishtiruv(bunda har bir guruh sardori jamoa a'zolarini tanishtiradi)

1-guruh sardori: (jamoa a'zolarini tanishtiradi, tanishtirish jarayonida jamoa a'zolarining matematik qobiliyatlari alohida qayd etib o'tiladi. Misol uchun: "Ergasheva Go'zal hisob-kitobga juda usta, nafaqat matematik, balki geometrik teoremalarni isbotlash borasidagi bilimlari ham ancha teran" tarzida jamoa a'zolarining matematik qobiliyatlarini baholaydi).

2-guruh sardori: (jamoa a'zolarini tanishtiradi, tanishtirish jarayonida jamoa a'zolarining matematik qobiliyatlari alohida qayd etib o'tiladi).

3-guruh sardori: (jamoa a'zolarini tanishtiradi, tanishtirish jarayonida jamoa a'zolarining matematik qobiliyatlari alohida qayd etib o'tiladi).

2-shart. Tezkor savol-javob.

3-shart. Krossvord yechish.

4-shart. Kim ko'p formula biladi? (bunda har bir guruh a'zolari o'zlari bilgan formulalarini yozadi)

5-shart. O'zaro savol-javob.

6-shart. Erkin mavzu.

7-shart. Sardorlar bellashuvi (bunda topshiriqlar guruhlarning barchasiga bir vaqtda beriladi).

Har bir topshiriqni bajarish uchun ma'lum vaqt ajratiladi (vaqt hajmi topshiriqning murakkabligiga ko'ra aniqlanadi).

Har bir guruh belgilangan vaqt mobaynida topshiriq yuzasidan javob topadi.

Guruhlarning sardorlari yoki guruh tomonidan ishonch bildirilgan o'quvchi topshiriq yuzasidan jamoaning javobini e'lon qiladi.

Hay'at a'zolari javobning to'g'riligi, javobni topish uchun sarflangan vaqt hajmiga ko'ra guruhlar faoliyatini baholab boradilar.

1-tanishtiruv sharti uchun ajrtailgan vaqt _____ daqiqa bo'lib, 10 ballik tizimda baholanadi.

2-tezkor savol-javob sharti uchun ajratilgan vaqt _____ daqiqa bo'lib, 15 ballik tizimda baholanadi.

3-krossvord yechish sharti uchun ajratilgan vaqt _____ daqiqa bo'lib, 20 ballik tizimda baholanadi.

4-"Kim ko'p formula biladi" sharti uchun ajratilgan vaqt _____ daqiqa bo'lib, 10 ballik tizimda baholanadi.

5-fantamimiya sharti uchun ajratilgan vaqt _____ daqiqa bo'lib, 15 ballik tizimda baholanadi.

6-mantiqiy savol-javob sharti uchun ajratilgan vaqt _____ daqiqa bo'lib, 20 ballik tizimda baholanadi.

7-"Sardorlar bellashuvi" sharti uchun ajratilgan vaqt _____ daqiqa bo'lib, 10 ballik tizimda baholanadi.

Jamoalar tayyor bo‘lsalar, u holda bellashuvni boshlaymiz!

1-tanishtiruv sharti: marhamat, guruh sardorlari, navbatma-navbat guruh a’zolarini tanishtirishingiz mumkin.

2-tezkor savol-javob sharti:

I guruh:

1. Eng kichik butun uch xonali son (J: -999)
2. 1637-yil XVI asrga kiradimi? (J: yo‘q)
3. Uchning beshinchi darajasi kattami yoki beshning uchinchi darajasi kattami? (J: uchning beshinchi darajasi)
4. e soni kattami ? yoki π soni kattami ? (J: ular teng)
5. Nolni kashf qilgan buyuk allomaning ismini ayting: (J: Al-Xorazmiy)
6. -7 ga teskari sonni ayting. (J: - 1/7)
7. To‘rtdan birning uchdan bir qismi nechaga teng? (J: o‘n ikkidan birga)

II guruh:

1. $1\frac{1}{2}$ irratsional son bo‘ladimi ? (J: yo‘q)
2. To‘rtta akaning bittadan singlisi bor. Oilada nechta farzand bor? (J:5 ta)
3. Ikkita ikkining yig‘indisi kattami yoki ikkita ikkining ko‘paytmasi kattami? (J: ular teng) .
4. To‘rtburchakning ichki burchaklari yig‘indisi necha gradusga teng? (J: 360°)
5. G‘o‘lani 4 ta bo‘lakka bo‘lish uchun necha marta arralash kerak? (J: 3 marta)
6. Silindr yoyilmasi nimadan iborat? (J: to‘g‘ri to‘rtburchakdan)

7.”Al- jabr va al- muqobala “ asari muallifi kim? (J: Al-Xorazmiy)

III guruh:

1. Teng tomonli uchburchakning burchaklari necha gradusga teng? (J: 60°)

2. 0,(9) nechaga teng? (J: 1 ga)

3. Muntazam uchburchakli piramidani qanday nom bilan ataymiz? (J: tetraedr)

4. Haftaning beshinchi kuni nomini ayting? (J: juma)


5. Ikki jismning hajmlari teng bo‘lsa bunday jismlar qanday jismlar deyiladi? (J: tengdosh)

6. Bitta xonada bitta stol ustida likopchada 4 ta olma bor. Savol: xonada nechta olma bor? (J: 6 ta olma)

7. Qaysi sonni rim raqamlari yordamida ifodalab bo‘lmaydi ? (J: 0 ni)

3-krossvord yechish sharti:

1-guruh uchun




Bo‘yiga:

1. Sanoqda ishlatiladigan sonlar...
3. 3+3+3+3+3+3-16:4=
6 Sonning uchinchi darajasi
8. Natural sonlar nechadan boshlanadi

Eniga:

2.m*(n+k)=m*n+m*k bu tenglik ko‘paytirishning.....qonuni
4. Gradus o‘lchov birligi
5. 5x5+25=
7. Bir ko‘paytuvchilarni ko‘paytirish amali.....ga ko‘tarish amali deyiladi.

2-guruh uchun



1. Noma`lum qatnashgan misol.
2. Ikki tomoni parallel, qolgan ikki tomoni parallel bo‘lmagan to‘rtburchak.
3. Kundalik nazorat ishi.
4. Tomonlari uzunliklar yig‘indisi.

5. Uzunlik o‘lchov birligi.

6. To‘g‘ri burchakli uchburchak to‘g‘ri burchagi qarshisidagi tomon.


7. Aylana chizadigan asbob.

8. Vaqt o‘lchov birligi.

9. Berilgan nuqtadan bir xil uzoqlikda joylashgan nuqtalar to‘plami.

10. Tomonlari uzunliklari teng bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak.

3-guruh uchun



1. Ikki tomoni chegaralangan to‘g‘ri chiziq.

2. Kesishmaydigan to‘g‘ri chiziqlar.

3. Geometrik figura.

4. Noma`lum qatnashgan sonli ifoda.

5. Tomonlari parallel va qarama-qarshi burchaklari teng bo‘lgan kvadrat.

6. Ko‘paytuvchi va ko‘paytuvchi natijasi.

7. To‘g‘ri burchakli uchburchak to‘g‘ri burchagiga yopishgan tomon.

8. Koordinata tekisligida OY o‘qi qanday nomlanadi.

9. Natural sonlar to‘plamidagi birinchi juft son.

10. Tomonlarining uzunliklari teng bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak..

11-ILOVA

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatini o‘rganish

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati:

• «Kamolot» o‘zini o‘zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkilotdir;

• «Kamolot»ga 14 yoshdan 30 yoshgacha a’zo bo‘ladi;

• “Kamalak” bolalar tashkilotiga 10 yoshdan 14 yoshgacha a’zo bo‘ladi;

• «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kengashiga qarashli 14 ta tuman 2 shahar Kengashi bo‘limlari bor.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsadi:

• yoshlarni birlashtirish;

• sog‘lom turmush talablari asosida tarbiyalash;

• yoshlarning manfaatlarini himoya qilish;

• yosh yigit-qizlarning o‘z aql-zakovoti, kuch g‘ayratini to‘la namoyon etishi, jamiyatda munosib o‘rin egallashlari uchun shart-sharoit yaratib berish

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining Dasturi

Bu harakat Qurultoyida tasdiqlanadigan va uning asosiy maqsad va vazifalarini belgilaydigan hujjat bo‘lib, “Kamolot” Dasturi 6 ta bo‘lim, 33 ta banddan iborat. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining Dasturi bo‘limlari:

- demokratik huquqiy davlat va fuqoralik jamiyati barpo etish sohasi, sohadagi vazifalar;
- ma’naviy-ma’rifiy sohadagi vazifalar;
- ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi vazifalar;
- yoshlarning iste‘dod va qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash;
- sport va jismoniy tarbiya sohasidagi vazifalar;
- xalqaro faoliyat sohasidagi vazifalar.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining Nizomi

Bu harakat Qurultoyida tasdiqlanadigan va uning ichki faoliyat qoidalarini belgilaydigan hujjat bo‘lib, “Kamolot” Nizomi 11 ta bo‘lim, 38 ta banddan iborat.

12-ILOVA

MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH

“Qorong‘ulikdan o‘pkalagandan
ko‘ra, shamchiroq yoqqan ma’qul”
Konfutsiy

Hozirgi kunda axborotlar oqimining keskin oshib, zamonaviy texnologiyalarning esa shiddat bilan ta-

komillashib borayotganligi, doimiy ish o'rinlarining kamayishi va jamiyat hayotining boshqa jabhalaridagi ma'romining turli xil sharoitda ekanligi mutaxassisning yoki bo'lg'usi mutaxassisning o'zi tanlagan kasbi bo'yicha paydo bo'layotgan yangiliklar yoki egallayotgan kasb-mutaxassislik bo'yicha chuqurroq bilim egallashga bo'lgan intilishlari ularni mustaqil izlanish va o'rganishga undaydi.

Aksincha, mutaxassis yoki bo'lg'usi mutaxassis o'zi tanlagan kasbi bo'yicha paydo bo'lgan yangiliklar yoki egallayotgan kasb-mutaxassislik bo'yicha chuqurroq bilim egallashga intilmas ekan, u holda mehnat bozoridagi raqobatga bardosh bera olmaydi va o'z ish o'rnini yo'qotadi. Shuning uchun ham talabalarda mustaqil ta'lim olish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kun ta'lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biridir.

Hozirgi kunda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan zarurat asosan quyidagilardan iborat:

• Shaxsning mustaqil bo'lishga va mustaqil fikrlashini o'stirishga bo'lgan intilishlari.

• Muntazam ravishda o'z bilimlarini takomillashtirib borishga bo'lgan intilishlari.

• O'z mehnat faoliyatini mustaqil rejalashtirish, monitoring qilish, baholash va jamoa bo'lib ishlashga bo'lgan ehtiyojlar.

• Zamon bilan hamnafas bo'lgan holda o'z mehnat faoliyatini tashkil etishga bo'lgan ehtiyoji.

• Bozor sharoitida mehnat bozoridagi raqobatga dosh bergan holda o'z o'rnini topishga bo'lgan intilishlari va h.k.

Bularga erishishda asosiy e'tiborni nimalarga qaratish maqsadga muvofiq?

Ko'p yillik pedagogik faoliyat va ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi muammoni hal etishda har bir fan o'qituvchisi yoki guruh murabbiysi quyidagilarga e'tiborni qaratishi talab etiladi:

1. Har bir talabaning kelajakda malakali mutaxassis bo'lib yetishishi uchun turtki bo'luvchi asosiy omillarni shakllantirish.

Bunda 1-kurs maktabini shakllantirish jarayonidagi dastlabki mashg'ulotlarda Siz nima uchun mazkur oliy ta'lim muassasasida ta'lim olishni xohladingiz(bunda talaba faqatgini "diplom" uchun yoki "obro'" uchun o'qiyotgan bo'lsa unga alohida tushuntirilishi kerak bo'lgan narsalar ko'p) — degan savolga har bir talabadan yozma ravishda yetarli javobni olish va shu orqali ularning har biri uchun zarurat bo'lsa alohida tartibda ish olib borish ko'zlangan maqsadga erishishda asosiy hisoblanadi. Bunda talabalarga bozor iqtisodiyoti sharoitidagi mehnat bozori va undagi raqobatning mohiyatini anglangan darajaga yetkazgan holda tushuntira olish katta rol o'ynaydi. Bu talabalarda tanlagan mutaxassislik bo'yicha yuqori nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lmasdan turib bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozoridan o'ziga munosib ish o'rnini topa olmasligiga ishonchni shakllantiradi. Ana shu mustaqil ta'limga yo'naltirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, talabalar juda ko'p hollarda biror narsani tushunmasa yoki bilishni istasa ham bu borada o'zining yoki boshqa bir o'qituvchiga murojaat qilmaydi. Aksincha, birinchi navbatda (ko'pincha biror qiyinroq nazariy materiallarni tushunib olishga intilishda yoki biror amaliy masalani hal etish jarayonida) o'zining oldindan egallagan bilimlariga

tayangan holda faoliyat ko'rsatishadi. Bu qanday darajada samarali bo'lishidan qat'i nazar yaxshi albatta. Ammo tajriba shuni ko'rsatadiki, 1-kurs talabalari oliy ta'lim muassasasiga birinchi qadam qo'ygan paytida bu holatga yetarli darajada tayyor emasligi ayon bo'lmoqda. Umuman, talaba o'zining oldindan egallagan bilimlariga tayangan holda biror qiyinroq nazariy materiallarni tushunib olishga yoki biror amaliy masalani hal etishga intilishini to'g'ri yo'naltira olish ham mustaqil ta'limga yo'naltirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

2. Darslik va adabiyotlardan mustaqil ravishda foydalana olish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

Ma'lumki, an'anaviy ta'lim tizimida mustaqil ravishda adabiyotlar va darsliklarni o'rganishda juda ko'p hollarda kerakli ma'lumotlar ulardan ko'chirib olinar edi. Bugungi kunda bunday yo'l bilan bilimlar bazasini oshirib bo'lmaydi. Chunki axborotlar oqimining uzluksiz ravishda shiddat bilan oshib borishi har bir mutaxassis yoki bo'lg'usi mutaxassisdan ko'chirib olgan har bir ma'lumot yoki qoidalar yoki tushunchalarning har birini o'z vaqtida shaxsiy fikrlariga tayangan holda sharhlay olishi hamda asoslab bera olishini talab etadi. Bular esa o'z navbatida oldindan o'rganilgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarni ongli ravishda o'zlashtirgan hamda anglagan bo'lishini talab etadi. Aks holda biz ham, talaba ham ko'zlangan maqsadga erisha olmaymiz. Chunki talaba tomonidan o'rganilgan yoki o'rganilayotgan biror mavzu yoki fanni o'zlashtirishda uni yaxshi bilib olishning o'zi yetarli bo'la olmaydi. Negaki, oldindan egallangan bilimlar darajasi o'z amaliy faoliyatida yoki yangi

bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi amaliy vaziyatlarda namoyon bo'ladi.

Bunda talabalar mustaqil ishlarini quyidagi qismlarga ajratish mumkin:

• Ma'ruza matnlarini o'qish.

• O'rganilayotgan mavzuga aloqador bo'lgan turli o'quv va ilmiy metodik adabiyotlarni o'qish, undagi tushunchalarni tahlil qilish va shu asosida matn tuzish.

• Mazkur jarayonda alohida e'tiborni qaratish zarur bo'lgan ma'lumotlarni darslikdan o'qish.

• Olingan barcha ma'lumotlarni umumlashtirish va yakuniy xulosa chiqara olish va h.k.

Ma'lumki, darslik ta'lim maqsadlariga erishish va uning samaradorligini oshirishda asosiy ta'lim vositasi hisoblanib, u talabaning mustaqil ta'lim olishida muhim o'rin tutadi. Chunki, darslik — o'rganilayotgan fan bo'yicha dasturga asoslangan holda yaratilgan bo'lib, u mazkur fan bo'yicha butun materiallarni qisqartirilgan holda bo'lsa ham o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi va minimal darajada o'zlashtirilishi kerak bo'lgan majburiy bilimlar hajmini belgilab beradi.

Darslik bilan ishlash malakalari shakllantirilishi jarayonida turli ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ishlash asosida o'rganilayotgan fanni chuqur o'rganish imkoniyatlari oshishini talaba tomonidan ongli ravishda qabul qilinishiga erishish mustaqil ta'limning to'g'ri tashkil etish va shu asosida kelgusida uzluksiz ravishda o'z bilimlarini oshirib borishga bo'lgan intilishlarning rag'batlantirilishiga olib keladi.

3. Mustaqil ta'lim jarayonida berilgan topshiriqlarni har bir talaba mustaqil amalga oshirishiga erishish.

Bu omilni amalga oshirishda quyidagi tartibda ish olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

a) topshiriqning maqsadini belgilash. Bu talabalar guruhi tomonidan amalga oshiriladi(guruhni shakllantirishda o'qituvchi talabalarning xohish-istagidan kelib chiqqan holda shakllantirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki guruh a'zolari orasida o'zaro kelishmovchiliklar kelib chiqishi va ular topshiriqni bajarish jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin). Bunda topshiriqning bajarilishi yuzasidan ular o'z farazlari. takliflarini o'zaro o'rtoqlashadilar va bu borada topshiriqni bajarish bo'yicha o'z takliflarini beradilar.

b) topshiriq bajarilishni rejalashtirish. Bu bosqichda guruh yetakchisi boshchiligida guruh a'zolari tomonidan belgilangan maqsadga erishish rejasi tuziladi. Buning uchun kerakli bo'lgan barcha ma'lumotlar o'rganib chiqiladi;

d) topshiriqni bajarish. Berilgan topshiriq guruh a'zolari tomonidan tuzilgan reja asosida birgalikda yoki alohida-alohida bajariladi;

e) baholash. Topshiriq bajarib bo'lingandan so'ng guruh yetakchisi o'z yetakchiligiga baho beradi. Guruh a'zolari esa umumiy guruh ishiga baho beradi.

Topshiriqni bajarish jarayonida guruh ishining samarali bo'lishi uchun o'qituvchi tomonidan oldindan quyidagi tartibdagi ko'rsatmalarning berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- guruh a'zolari bir-birini diqqat bilan tinglashi;
- guruh a'zolarining navbat bilan o'z fikrlarini o'rtoqlashishi;
- guruh a'zosining fikri bajarilishi talab etilayotgan topshiriqni bajarish uchun to'g'ri bo'lmasa ham uni oxirigacha tinglash talab etiladi va h.k. (top-

shiriqni bajarishni yozma ravishda amalga oshirish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki ba'zi hollarda kishi o'z fikrini yozma holda yaxshiroq va erkinroq ifodalashi mumkin).

Ma'lumki hozirgi kunda "Mustaqil ta'lim" o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, unda har bir ta'lim yo'nalishinig o'quv rejasi bo'yicha belgilangan o'quv topshiriqlarini talabalarning mustaqil va ijodiy ishlari asosida amalga oshiriladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan omillarga tayangan holda oliy o'quv yurtlarida 1-kurs maktabini yaratish keyingi bosqichlarda har bir dekanat va tegishli kafedralar tomonidan yuqorida keltirilgan olib borish talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish samaradorligini oshishiga hamda ularning kelgusida malakali mutaxassislar bo'lib yetishishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Bulardan ko'rinadiki, mustaqil ta'limni tashkil etishda talabalar vaqt budjetini to'g'ri taqsimlash muhim o'rin tutadi. Bunda har bir tegishli dekanat va kafedra zimmasiga javobgarlik yuklanadi, chunki mustaqil ta'lim uchun oliy o'quv yurtida mustaqil ishlarni ishlab chiqish tegishli kafedralar professor-o'qituvchilari zimmasiga yuklatiladi va ulardan buni amalga oshirishda quyidagilarga amal qilish talab etiladi:

- har bir mustaqil ishni rejalashtirishda ta'lim tamoyillariga ayniqsa, izchillik va tizimlilik tamoyiliga qat'iy amal qilish;
- mustaqil ishlarni rejalashtirishda har talabaning bilim darajasini hisobga olish, ya'ni berilgan topshiriqni talaba mustaqil bajara olishi uchun uning oldindan egallagan bilim, malaka va ko'nikmalari yetarli bo'lishi kerak. Aks holda ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi;

• mustaqil ta'limni rejalashtirishda mutaxassislik fanlariga ajratiladigan o'quv soati miqdorini mumkin qadar oshirish (bu talabani egallayotgan mutaxassisligi bo'yicha ko'proq ma'lumotga ega bo'lishini va kelgusida shu yo'nalishda kerakli ma'lumotlarni o'z vaqtida topa olish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularni rivojlantirishda muhim hisoblanadi);

• mustaqil ta'lim vaqt budjetini taqsimlash va uning sifatini nazorat qilish jadvalini tuzishda tegishli kafedralar bilan hamkorlikni to'g'ri tashkil etishga erishish;

• mustaqil ta'lim uchun mo'ljallangan topshiriqlarni bajarish va uni nazorat qilish uchun haftalik vaqt budjetidan ajratilgan vaqt miqdori 18 soatdan oshmasligiga erishish (bu tegishli fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi va uni tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi).

13-ILOVA
KURS ISHINI TAYYORLASH YUZASIDAN MASLAHATLAR

Kurs ishi ma'lum predmetni o'rganish davrida uni chuqur o'rganish maqsadida tashkil etilgan malaka hamda ko'nikma laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish jarayonida shakllangan bilimlarni mustahkamlash uchun xizmat qiladigan ilmiy-metodik ish hisoblanadi.

Kurs ishining mazmuni mazkur yo'nalish bo'yicha o'rganilgan nazariy va amaliy bilimlarni o'z ichiga qamrab olmog'i lozim. Bunda bajariladigan

topshiriq shunday tuzilgan bo'lishi kerakki, natijada talaba oliy o'quv yurtida o'rgangan nazariy bilimlari bilan cheklanib qolmasdan, qo'shimcha ilmiy-metodik adabiyotlarga, kasb-hunar kollejlarining, ishlab chiqarish korxonalarining amaliy ish tajribalarini chuqur o'rganishga zaruriy ehtiyoj sezsin. Bular ko'zlangan maqsadga erishishda muhim o'rin tutadi.

Kurs ishi 2 ta qismdan iborat bo'ladi.

I. Metodik qism

Bu qismda berilgan mavzu bo'yicha (bunda mavzu 6–8 soatlik o'quv materialini o'z ichiga olishi maqsadga muvofiqdir) quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Tanlangan mavzuning o'quv predmetida tutgan o'rni.
2. Mavzu mazmunining metodik tahlili.
3. Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchi-talabalar uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar tavsifi.
4. Tanlangan mavzuga mos obyektni tanlash (ta'lim muassasasi tayyorlaydigan "kichik mutaxassis" yo'nalishi).
5. Ushbu mavzuni o'rganishda qo'llaniladigan o'qitish metodlari va shakllari (tanlangan har bir o'qitish metodi va shakli asoslab berilishi maqsadga muvofiq).
6. Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida foydalaniladigan texnika vositalari, ishlab chiqarish ustaxonasida foydalaniladigan texnologiyalar bo'yicha instruktaj.
7. Ushbu mavzuning boshqa mavzular va o'quv predmetlari bilan aloqasi.
8. Mavzuning o'quvchi-talabalarda texnik ijodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari va hokazolar.

II. Kurs ishini bevosita bajarish

Bunda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Mavzu bo'yicha adabiyotlar ro'yxati tuziladi va ular tahlil qilib chiqiladi. Shu asosda hal qilinishi kerak bo'lgan ilmiy-metodik muammo aniqlanadi va uning taxminiy rejasi tuziladi.

2. Mazkur mavzu nazariy jihatdan o'rganib chiqiladi (albatta fikrlar yozma bayon qilinadi) va uning metodik tomondan o'quvchi-talabalarga yetkazishning hozirgi kundagi ahvoli o'rganiladi.

3. O'zining nazariy va amaliy tayyorgarligi hamda tajribali o'qituvchilar ish tajribasini o'rganish asosida ishning metodik ishlanmasi tayyorlanadi.

4. Metodik ishlanma kasb-hunar kollejida tajriba asosida tekshiriladi (mazkur metodik ishlanma asosida dars tashkil etiladi) va ular tahlil qilinadi, erishilgan yutuqlar, kamchiliklar, qiyinchiliklar aniqlanadi. Ular umumlashtirilgan holda yakuniy xulosa chiqariladi.

5. Kurs ishini bajarish jarayonida ish rahbaridan, tajribali o'qituvchilardan doimiy maslahatlar olib borish zarur.

Kurs ishi quyidagi tartibda A4 formatdagi yozuv qog'ozida rasmiylashtiriladi:

1. Sarvaraq (1 varaq)
2. Ishning rejasi (1–2 varaq)
3. Kirish (ishning mazmuni qisqa va lo'nda qilib bayon qilinadi). Ishning mazmuni qismida darslarning reja-konspektlari to'liq keltiriladi (2–3 varaq)
4. Umumiy qism (4–8 varaq)
5. Asosiy qism (10–12 varaq)
6. Xulosa (1–5 varaq)
7. Ilova
8. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kurs ishi tayyor bo‘lgandan keyin (uning hajmi 30–35 betdan iborat bo‘ladi) u 5-10 talaba va ilmiy rahbar ishtirokida himoya qilinadi.

Kurs ishi natijasi sinov bilan xarakterlanadi. Unga qo‘yilgan baho nazariy bilimlarga qo‘yilgan baholar bilan teng bo‘ladi va talabalarning umumiy o‘zlashtirish natijalarida hisobga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekisiton Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston ", 1998. -48 b.

2. O'zbekisiton Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: "O'zbekiston". 1997.

3. O'zbekisiton Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni (1997-yil 29-avgustda qabul qilingan)/ Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: "O'zbekiston", 1997-y.

4. **I.Karimov.** Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. –T.: "O'zbekiston", 1995-y.

5. **I.Karimov.** "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". –T.: "Ma'naviyat", 2008. -176 b.

6. O'zbekisiton Respublikasi Prezidentining 2011-yil 28-maydagi "Malakali kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risidagi" Qarori.

7. O'zbekisiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011-yil 16-sentabrdagi "Yangilangan klassifikatorga muvofiq ishlab chiqilgan oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining Davlat ta'limi standartlari va o'quv rejalarini tasdiqlash to'g'risidagi" 387-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "5110100 - Matematika o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi Davlat ta'lim standarti.

8. **S.Alixonov.** Matematika o'qitish metodikasi. –T.: "TAFAKKUR-BO'STONI", 2011. -385 b.

9. **N.R. G'aybullayev va b.** "Pedagogika". –T.: 2000.

10. **V.Karimova.** "Psixologiya". –T.: 2002.
11. **E.G'oziyev.** "Taffakur psixologiyasi". –T.: 1990.
12. **N.R.G'aybullayev.** "Ta'lim-tarbiyaning amaliy yo'nalishlari". –T.:1986-y.
13. **N.N. Azizxodjayeva va b.** "Talabalarning malakaviy bitiruv amaliyotini tashkil etishda pedagogik texnalogiyalardan foydalanish" (metodik tavsiyalar). –T.: "TDPU", 2010. -58 b.
14. **Sharipov Sh.S. va b.** Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). –T.: TDPU, 2006.
15. **M.Barakayev va b.** "Kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha pedagogik amaliyotni o'tkazish metodikasi". –T.: TKTI, 2007. -41 b.
16. **M.Ochilov.** "Bo'lg'usi o'qituvchilarning axloqiy shakllanishi". –T.: 1979.
17. **M.Ochilov** "Muallim - qalb me'mori". –T.: 2001.
18. **Tojiyev.M., Salaxutdinov R., Barakayev M., Abdalova S.** "Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari". –T.: TDIU, 2001. -147 b.
19. **Полякова Т.С.** "Анализы затруднений в педагогической деятельности начинающих учителей". –М.: 1983.
20. **Селевко К.Г.** «Соверменные образовательные технологии». –М.: 1998 г. 256 стр.
21. **Смирнов Л. Р.** "Человек, образование, профессия, личность», –М.: 2000 г.
22. http://www.edu.uz – O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb sayti.

MUNDARIJA

Kirish 3
I BOB. MALAKAVIY AMALIYOTNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI 5
1.1. Malakaviy amaliyot va uning kasbiy tayyorgarlikdagi o'rni 5
1.2. Malakaviy amaliyotning vazifalari 7
1.3. Amaliyotchi-talabaning vazifalari 9
1.4. Malakaviy amaliyot rahbarining vazifalari 11
1.5. Malakaviy amaliyot jarayonida mutaxassislik bo'yicha metodistning vazifalari 12
1.6. Malakaviy amaliyot jarayonida pedagogika va psixologiya bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalar 13
1.7. Ta'lim muassasasi direktorining vazifalari 14
1.8. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari 15
1.9. Umumta'lim fanlari o'qituvchilarining vazifalari 15
1.10. Guruh (sinf) rahbarining vazifalari 16
II BOB. MALAKAVIY AMALIYOTNI O'TKAZISHNING TASHKILIY MASALALARI 17
2.1. Malakaviy amaliyotni o'tkazish vaqti va amaliyot uchun bazalarni tanlash 17
2.2. Malakaviy amaliyotning tuzilishi va mazmuni 18
2.3. Malakaviy amaliyotni o'tkazishga tayyorlash 21
2.4. Malakaviy amaliyot jarayoni 22
III BOB. MALAKAVIY AMALIYOTNI TASHKIL ETISH 24
3.1. Malakaviy amaliyot davrida ta'lim-tarbiya jarayonini kuzatish va tahlil qilish 24
3.2. Amaliyotchi talabani darsga tayyorlanishi 35
3.2.1. Darsga umumiy tayyorgarligi 35
3.2.2. Darsga kundalik tayyorgarligi 36
3.3. Dars ishlanmasini tayyorlash 39
3.3.1. O'quv jarayonini rejalashtirish 39

3.3.2. Texnologik xarita (Dars ishlanmasi) 40
3.3.3. Dars ishlanma rejasining tuzilishi 42
3.3.4. Amaliyotchi-talabaning ish rejasi 62
3.3.5. Amaliyotchi-talaba kundalik daftarining namunaviy nusxasi 63
3.3.6. Amaliyotchi-talabalarning darsni tashkil etishida uchraydigan xato va kamchiliklar 66
3.3.7. Amaliyotchitalabaning darsga tayyorlanishi 68
3.4. Amaliyotchi-talaba tomonidan amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar va uni tashkil etish 73
3.4.1. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ularni loyihalash va rejalashtirish 73
3.4.2. Pedagogik amaliyot jarayonida amaliyotchi-talaba tomonidan amalga oshirilishi talab etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar 84
3.4.3. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ishlar rejasini tuzish 85
3.4.4. O'ziga biriktirilgan guruh bilan ishlash 86
3.4.5. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish 86
3.4.6. Oila bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan tadbirlar 86
3.4.7. Oila bilan hamkorlikni amalga oshirish qoidalari 87
3.4.8. O'quvchilarning ota-onalari bilan olib boriladigan ish shakllari 88
3.4.9. To'garaklar faoliyatini o'rganish va mashg'ulotlarni o'tkazish 89
3.4.10. Tarbiyaviy soatlarni o'tkazish 89
3.5. Pedagogika amaliyotni yakunlash 89
Ilovalar 94
Izohli lug'at (Glossariy) 103
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 148

**BARAKAYEV MUROD, JALILOV ANVAR,
JUMANIYOZOV QUDRAT, XO'JAYEV BEGZOD,
RAHMONOV ISTAM**

MALAKAVIY AMALIYOT

Muharrir *S. Alimboyeva*
Badiiy muharrir *A. Muhammadiyev*
Texnik muharrir *T. Smirnova*
Musahhiha *S. Abdunabiyeva*
Sahifalovchi *A. Muhammadiyev*

Nashriyot lits. AI №223, 16.11.12.
Bosishga 20.11.2015 da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$.
«Times» garniturasi. Ofset bosma usulda bosildi.
Shartli b.t. 8,3. Nashr t. 8. Adadi 1000 nusxa.
42-sonli buyurtma.

«TURON-MATBAA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Olmazor tumani, Talabalar ko'chasi, 2-uy..